

NAVOIY KON METALLURGIYA KOMBINATI

NAVOIY DAVLAT KONCHILIK INSTITUTI

KONCHILIK FAKULTETI

“Noyob va radioaktiv metal rudalarini qazish va qayta
ishlash” kafedrasи

**URANNI YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA
O'TKAZISH USULIDA QAZIB OLISH**

O'QUV- USLUBIY QO'LLANMA

NAVOIY 2017

O'quv uslubiy qo'llanmada ruda tanasining tab'iy yotgan holatida uranni yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish texnologiyasi bo'yicha zamonaviy ma'lumotlar keltirilgan, shu progressiv usul bilan qazib olinadigan konlarning geologik qurilish, gidrogeologik va geokimyoviy xususiyatlari ko'rib chiqilgan. Qazib olish tizmlari, foydalaniladigan konchilik, burg'ulash va texnologik uskunalar yoritilgan. Konlarni qidirish, loyihalash va ekspluatatsiya qilish bo'yicha tajriba ishlar umulashtirilgan. Yer ostida tanlab eritishda foydalaniladigan sanoat korxonalari ishlarini xarakterlovchi texnik-iqtisodiy ma'lumotlar jamlanmasi keltirilgan. Uranni yer ostida tanlab eritish, bundan tashqari atrof muhitni iflosnashini ogohlantiruvchi va muhofaza qilish bilan bog'liq qator savollar ko'rib chiqilgan.

Ushbu o'quv uslubiy qo'llanma 5321100 – Noyob va radioaktiv metall rudalarini qazib olish, qayta ishlash texnikasi va texnologiyasi yo'nalishi talabalari uchun mo'ljallangan.

O'quv uslubiy qo'llanma "Noyob va radioaktiv metall rudalarini qazish, qayta ishlash" kafedrasi yig'ilishida muhokama qilingan.

O'quv uslubiy qo'llanma Navoiy davlat konchilik institutining ilmiy uslubiy Kengashida ko'rib chiqilgan va o'quv jarayonida foydalanish uchun ruxsat etilgan.

Tuzuvchilar

Halimov I.U.

Aliqulov Sh.Sh.

Taqrizchilar

NKMK bosh geotexnologi Ro'ziyev O.

*"Kovchilik ishi" kafedrasi dotsenti, t.f.d.
Zairov Sh.Sh.*

I

KIRISH

Zamonaviy fan texnika omillari va ishlab chiqarish jarayonlarining rivojlanib borishi tufayli elektr energiyaga bo‘lgan talab o‘ta keskin tarzda ortib ketdi. Butun dunyoda energiya resurslariga ehtiyoj eng yuqori darajaga etib kelib, birgina 1975-yilda qariyib 9 mld tonna hajmdagi energetika yoqilg‘isini talab qildi.

Bunday fan-texnikaning revolyutsiyasi atom energetikasi sohasi rivojining tezlashishiga va gullab yashnashiga sabab bo‘lib, bu sohani elektr energiya ishlab chiqarishda o‘rnini yanada oshirdi.

1976-yilda butun dunyoda umumiy quvvati 70987 MVt bo‘lgan 173 ta atom elektr stansiyasidan foydalanilgan. Yangi loyihalarda umumiy quvvati 323062 MVt bo‘lgan 352 ta AES qurilishi rejalashtirilgan.

1985-yilga kelib atom energiyasi ishlab chiqaruvchi davlatlar umumiy miqdorda 500000 MVt bo‘lgan AESlar qurilishi rejalashtirilgan.

MAGATE xodimlari guruhining tahminlariga ko‘ra 1990-yilga kelib AESlarning umumiy energiya ishlab chiqarish miqdori (Sobiq ittifoq va Sotsializm davlatlarini hisoblamaganda) 1068 GVtni, 2000-yilga kelib ung kamida (har 10 yilda 2 marta oshib boradi) 2000 GVt va maksimal hajmda (har 5 yilda 2 barobar oshib) 4000 GVt bo‘lishini aytganlar. Atom elektr energiyasi ishlab chiqarish o‘z o‘rnida tabiatdan uranni ajratib olishga o‘ziga xos talablarni qo‘yadi. Bu talab 2000-yilga kelib raqamlarda ifodalasak 2000 GVt eletr energiyasi ishlab chiqarish uchun yiliga 4000ming tonna, ishlab chiqarish 4000 GVt deb olinganda esa 8000 tonna uran talab etadi.

Sobiq ittifoqda atom energetikasi sohasi rivoji juda jadal suratlarda oshib bormoqda. Agar 9-besh yillikda quvvati 5-7 mln kVt bo‘lgan AESlar qurilib, foydalinishga topshirish reja qilingan bo‘lsa, 10-besh yillikka kelib bu ko‘rsatkich 13-15 mln kVt ni tashkil etadi. Akademik A.P.Aleksandrovning fikriga ko‘ra 2000-yilga kelib AESlar reaktorlari quvvati 1000 GVt issiqlik neytronlari bilan va 200-300 GVt tezkor neytronlargacha oshirishini talab qilar ekan.

Bunday holatlar uranga bo‘lgan talabni yanada ortishiga olib kelib, sanoat rudalarini yanada ko‘proq qazib olishni taqazo qilardi va an’anaviy usullar (ochiq usul va yer osti usullari bilan) bilan birmuncha oddiyroq tuzilishga ega konlar qazib olinsa, uran konlari asosan gidrogen, sochma va yupqa qatlamlarda, kambag‘al hamda qiyin kon-texnik va gidrogeologik sharoitdagi konlar bo‘lib, unchalik samara bermay qolgandi. Ikkinci guruh konlari – o‘ta kambag‘al ruda

tarkibli, uran zaxirasiga to‘yinmagan bo‘lib, oxirgi vaqtlargacha odatiy usullar bilan qazib olish iqtisodiy samara bermasligi sabab qazib olinmas edi.

Bu esa bugungi kundagi xalq xo‘jaligining eng muhim vazifasi sifatida qaralib, unga yechimlar qidirilardi. 1962-1963-yillardan boshlab oxirgi 10 yillik ichida uranni qazib olishda geotexnologik usullardan foydalanish boshlandi va qazib olish usuli yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli deb ataldi. Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli shunday usulki – bu uranni kimyoviy regentlar ta’sir ettirgan holda, rudalar joylashgan o‘rnining o‘zida erilib, uran tarkibli eritmalarini chiqarib olishga asoslangan. Boshida bir qancha konlar yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulida qazib olinmasdi. Vaqt o‘tib uranni bu usul bilan qazib olishda katta tajribalarga ega bo‘lindi. Bir qancha korxonalarining asosiy yo‘nalishiga aylangan bu usul va undagi yutuqlar kelajakda yanada yo’qsaladi.

Uranni yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli shu usulning xom ashyo bazasi bo‘lib bugungi kunda gidrogen genizisdagi kambag‘al konlar, yer qarining turg‘un zonalaridagi qum-gilli suv o‘tkazuvchan qatlAMDAGI konlar hisoblanadi.

Bazi hollarda gidrotermal va metamorfik balansdan tashqari zaxiralar ham, turgan joyida maydalanish va yumshatish jarayonlaridan so‘ng ushbu usul bilan qazib olinmoqda.

Bir vaqtning o‘zida ilmiy tadqiqiy va tajriba va malakalarining ortib borishi ushbu usulning kelajagi yorqinligini isbotladi – qidiruv va razvedka ishlari konda qisqa vaqt davomida olib boriladi. Barcha izlanishlar amalga oshirilib bo‘lingach, olingen ma’lumotlar o‘rganilib, yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulining qonuniyatları va shartlariga mos kelishi taqqoslanadi, bu usulni qo‘llashdan oldin afzallik va kamchiliklari odatiy usullar bilan solishtirib ko‘riladi. Konni razvedka qilishga qo‘yiladigan eng asosiy talab shundaki, yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish korxonalarini uchastkalarini to‘g‘ri loyihalash, atrof muhit himoyasi masalalarini o‘rganib chiqishdir. Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli uchun qo‘llaniladigan uskunalar, jihozlar, apparatlar, mexanizmlar, materiallar va o‘lchov asboblarining turli konstruksiyalari ishlab chiqilmoqda.

Shuni takidlash kerakki, ushbu muammolar va savollarga javob topish shart. Ushbu masalalarni hal etish korxonalarining kelajakdagи texnik iqtisodiy ko‘rsatkichlarini ortishiga va yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulini qo‘llashning ommalashishiga olib keladi.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulining afzallikkari quyidagilar:

1) kambag‘al va kam zaxirali konlarni o‘zlashtirish va ekspluatatsiya qilish, shuningdek murakkab yotish sharoitiga ega va balansdan tashqari zaxiralarni ham qazib olinishi tufayli tayyor mahsulot miqdori oshishiga olib keladi va xom ashyo bazasi yirikligidan dalolat beradi.

2) kapital va qurilish sarf xarajatlari hamda kon korxonalari qurilish vaqtining 2-4 martagacha qisqarishi;

3) mehnat unumdorligining va shuning bilan birga oxirgi mahsulot miqdorining 2-4 martagacha ortiqligi, ishchilar sonining kamligi;

4) uran qazib olish bilan shug‘ullanuvchi korxonalardagi mehnat sharoitining yaxshilanishi;

5) atmosfera, yer usti qatlamining va atrof muhit himoyasining yuqori darajada ekanligidadir.

Yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usulini qo‘llashning nazariy va amaliy asoslari va ishlab chiqarish jarayonining boshqaruvi qator yo‘nalishlarda: geologik, gidrogeologik, gidrodinamik, geoximiya,ximiya va Gidrometallurgiya, tabiatdagi filtrlanish jarayonlari, suyuq aralashmadan mahsulotni ajratib olish, murakkab tarkibli va kambag‘al aralashmalardan uranni sorbsiyalash usuli bilan ajratib olishlarda aks etadi.

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usulini barcha turdagи uran konlari uchun qo‘llab bo‘lmaydi. Uni qo‘llash imkoniyatlari chegaralangan. Usulning imkoniyatlarini oshirish yo‘llari, boshqa tur konlari (faqat uran konlarigina emas) uchun qo‘llash usullarini topish yaqin kelajakdagi muhim topshiriqdir.

Butun dunyo texnik adabiyotida uranni yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usuli muammolari haqida bir qancha adabiyot va patentlar mavjud. Bularda ishlar haqida qisqacha ma’lumotlar berilgan. Birgina Sobiq ittifoqning o‘zida bir qancha adabiyotlarni ko‘rib chiqish mumkin: masalan V.G.Baxurova, S.G.Vecherkin, I.K.Lutsenkolarning kitobi “Uran rudalarini yer ostida tanlab eritish”, V.G.Baxurov va I.K.Rudnevlarining “Foydali qazilmalarni kimyoviy qazib olish” kitobi, V.J.Arens qalamiga mansub “Foydali qazilmalarni qazib olishning geotexnologik usuli” deb nomlangan va boshqa adabiyotlar bunga misol bo‘la oladi.

Ushbu ish esa umumlashtirilgan kompleks savollar, uranni yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usuli bilan qazib olishda ijtimoiy tashkiliy masalalarga tajribaviy yondoshilganlaridan birinchisidir.

Muallif: bu kitob uran qazib olish sanoati xodimlariga, mutaxasislarga, geotoxnologiya ishlarida ishlaydigan ishchilarda, boshqa mahsulotlar qazib olish bilan shug‘ullanuvchi xodimlarda katta qiziqish uyg‘otib, yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usuli haqida to‘liqroq va mukammal ma’lumot olishlarida xizmat qiladi. Shu bilan birga bu kitob yosh mutaxasislarni o‘qitish jarayonida, xodimlarning malakasini oshirishda ham qo‘l keladi deb o‘ylayman.

Muallif kitob xato va kamchiliklardan xoli emasligini biladi, o‘quvchilarning shikoyatlarini to‘g‘ri qabul qiladi va uni yanada mukamallroq ishslashga undaydi.

II

BA'ZI TERMINLAR TUSHUNCHASI

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usulini qazib olish va joriy etishda tadqiqotchilar va ishlab chiqaruvchilar tomonidan tur xil munosabatda bo'lgan bir qator yangi atamalar va tushunchalar paydo bo'ldi. Bundan tashqari mavjud bo'lgan ba'zi tushunchalar va atamalar mazmuni ham o'zgargan va yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuliga nisbatan aniqlik kiritish zaruriyati tug'ildi. Quyida uranni yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli bilan shug'ullannadigan mutaxassislar tomonidan keng qo'llaniladigan atamalar va tushunchalar ro'yxati mavjud.

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli EOTE'O' usuli- Ma'danlarning foydali komponentlarini, ularga kimyoviy reagentlar ta'sir ettirish bilan yotgan joyida tanlab yerostida ko'chish holatiga kelitirish bilan qattiq foydali qazilmalarni qazishning geotexnologik usuli.

EOTE'O' usul bilan o'zlashtirishning quduqli tizimlari- Yer yuzasidan burg'ilangan quduqlari yordamida konlarni EOTE'O' usul bilan ochish, tayyorlash va ulardan foydalanishni nazarda tutuvchi tizim

Yerostida tanlab eritmaga o'tkazish korxonasi (kon boshqarmasi, kon, sexi). EOTE'O' korxonasi (kon boshqarmasi, kon, sexi)- EOTE'O' usul bilan ma'danlarning foydali komponentlarini qazishni olib boruvchi kon-ma'dan korxonasi (kon boshqarmasi, kon, sexi).

EOTE'O' korxonasining (kon boshqarmasi, kon, sexining) qazib olish majmuasi- Tanlab eritmaga o'tkazish jarayonini amalga oshirish uchun yerostiga ishchi aralashmalarni o'zatishni, mahsuldor aralashmalarni yer yuzasiga haydar chiqarishni va ularni keyinchalik qayta ishslash uchun tashishni ta'minlaydigan yerosti va yer usti inshootlari hamda texnik vositalari majmuasi.

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishning ishlatish uchastkasi- EOTE'O' jarayonini nazorat qilish va boshqarish qurilmasi hamda kommunikatsiya tizimi bilan biriktirilgan foydalanish bloklari guruhi tomonidan uzoq vaqt davomida ishlanadigan konning geologik yoki fazoviy alohidalashtirilgan qismi.

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishning ishlatish blogi- O'zlashtirishning bir xil quduq tizimining yagona geotexnologik rejimida ishlanadigan va bir vaqtda foydalanishga topshiriladigan ishlatish bo'lakchalari guruhidan tashkil topgan minimal qazish birligi.

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishning ishlatish yachevkasi-
Haydaladigan va so'rib olinadigan quduqlar bilan ishlanadigan ma'dan tanasining qismi

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish poligoni- EOTE'O' blogi (bo'lakchasi), tanlab eritmaga o'tkazishning yangi reagentlari, o'zlashtirishning quduqli tizimlari, EOTE'O' jarayonini kuchaytirishning fizikaviy usullari samaradorligi baholash bo'yicha eksperimental-tajriba ishlarini bajarishga mo'ljallangan

Texnologik eritma (qorishma)- Reagentlarning yoki (va) mahsuldor joy (sath) muhiti bilan ularni o'zaro ta'sir mahsulotlarining suvdagi eritmasi

Ishchi eritma (qorishma)- Foydali komponentni eritish uchun zarur bo'lgan reagentlarni bo'lgan va mahsuldor joyga haydashga mo'ljallangan texnologik eritma.

Mahsuldor eritma (qorishma)- Kon-ma'dan massasi bilan o'zaro fizikkimyoviy ta'sir natijasida yer ostida hosil bo'lgan va minimal sanoat konsentratsiyasiga teng yoki undan yuqori foydali komponenti bo'lgan texnologik eritma.

Qo'r (matochniy) eritma (qorishma)- Foydali komponent ajratib olingan texnologik eritma. Reagentlar bilan mustahkamlangandan so'ng ishchi sifatida ishlatiladi.

Qaytariladigan eritma- Zarur reagentlar bilan mustahkamlangandan so'ng ishchi sifatida mahsuldor joyga berish uchun yaroqli minimal sanoat konsentratsiyasidan past foydali komponenti bo'lgan ishchi eritma

Texnologik quduqlar- Ishlab berish geotexnologik tartibotini amalga oshirish uchun ishlatiladigan yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish quduqlari.

Yuboruvchi quduqlar- Ma'dan jismini ochish va unga ishchi eritmalarini berish uchun mo'ljallangan quduqlar.

So'rib oluvchi quduqlar- Ma'dan jismini ochish va texnologik eritmalarini (mahsuldor, qaytariladigan) yer yuzasiga chiqarish uchun mo'ljallangan texnologik quduqlar

Kuzatuv quduqlari- Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish jarayoni sharoitlari va dinamikasini kuzatish uchun mo'ljallangan quduqlar.

Kuzatish quduqlari- Ishlanayotgan uchastkalarda mahsuldor joy rudalaridan foydali komponentni chiqarish darajasini kuzatish va ma'danlar va sig'diradigan jinslar texnogen o'zgarishlarini tekshirish maqsadida burg'ulangan yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish quduqlari.

III

YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O'TKAZISH USULINI QO'LLASHNING GEOLOGIK VA GIDROGEOLOGIK SHAROITLARI

1. YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O'TKAZISHNI BELGILASHNING UMUMIY GEOLOGIK VA GIDROGEOLOGIK SHAROITLARI

Barcha konlardagi yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish orqali usuli ishlab chiqariladigan rudalarning tarkibi, ularning xossalari, ruda konlari va jismlarining morfologiyasi, gidrogeologik vaziyatining mavjud farqli jihatlariga qaramasdan ularning umumiyl xususiyatlari ham mavjud. Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli orqali konlarni qazib olish quyidagi asosiy sharoitlarda mumkin bo'ladi:

1) Rudalarda mineral shaklidagi chiqarib olishga moyil metallning mavjudligi hamda bu metallar tanlab eritmaga o'tkazilgan reagentning kuchsiz suv aralashmalarida engil parchalanadi;

2) Rudalar tarkibiga kiruvchi turlanuvchi minerallar texnologik aralashmalar bilan o'zaro bog'langanda past kislota hajmiga ega;

3) Rudalar, yoki tabiiy o'tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo'ladi, yoki sun'iy parchalanishdan so'ng aralashmani o'tkazuvchi bo'lib qoladi;

4) Rudalarni legallahsh shartlari hamda avval amalga oshirilgan tog' ishlari tanlab eritmaga o'tkazilayotgan aralashmani rudalar legallanayotgan joyiga ya'ni yer ostiga yetkazib berishda, ruda minerallari bilan ularning kontaktini ta'minlashda hamda kon ostidan texnologik qayta taqsimlash joyiga mahsuldor aralashmaning qayta ko'rib chiqilishi, qazib olish hamda tansportirovkasida ishlatilishi mumkin.

Quyida yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli orqali konlarni qayta ishlashning prinsipial imkoniyatlari hamda iqtisodiy maqsadga muvofiqligini aniqlovchi mineral, petrografik, suv fizikaviy va kimyoviy texnologik shartlarning qisqa tavsifi keltirilgan.

Sanoat konlarida uran tashuvchi minerallar

Barcha litosfera qobig'idagi yer osti suvlarida uranning ko'plab tabiiy birlashmalarining yaxshi eruvchanligi dastlab V.I.Vernadski tomonidan aniqlangan. Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli bilan qayta ishlab chiqariladigan konlardagi uran minerallari ichida uran oksidlari hisoblangan – nasturan va uranitit, uran silikatlari – koffinit va nenadkivit, kamdan-kam hollarda uranil fosfati hisoblangan – otenit, uranil vanadati – tuyamunit, uranil sulfati – uranopilit va seppeit rivojlangan hisoblanadi. Konlarda brannerit va boshqa titanlarning hamda tarkibida uran mavjud bo'lgan sirkon, arshinovit, monatsid va apatitning mavjudligirudadan tanlab eritmaga o'tkazish jarayonini qiyinlashtiradi.

Asosiy uran minerallaridan biri nasturan hisoblanadi. Uning yaxshi saqlangan turlarida to'rt valentli shaklga ega uran mavjud. 1960 yildayoq G.M.Nesmeyanova va G.M.Alxazashvililar tomonidan eksperimental tahlillarda uran ikki oksidi sulfat kislotasi eritmasida 150 g/l konsentratsiyasida, 90°S temperaturada va tajribaning 3 soatlik davomiyligida erimasligi ko'rsatildi. Ushbu sharoitlarda olti va to'rt valentli uran oksidlanishi bois ko'p darajali qiymatda eritmaga o'tadi. Keyingi ishlarda ko'rsatildiki, oksidlanish eritishining dastlabki bosqichida suyuqlikka ko'proq olti valentli uran o'tkazadi. U_2^{2+} ning U^{4+} ga munosabati eritishning boshlang'ich jarayonida 30-40 marta 2:1 nisbatdan oshadi hamda bu nisbat oksidlovchisiz kislotalarda U_3O_8 to'liq erishi orqali erishiladi.

Eritmalarda olti yoki to'rt valentli uran konsentratsiyasining o'zgarishini uran ionlarining turli xossalari hamda eritishning so'nggi mahsuli hisoblangan va eritmasi o'z tarkibini o'zgartirmasdan o'tadigan cheklash oksidlari bilan izohlash mumkin. Bunday oksidlar qatoriga U_4O_9 va $\beta - U_3O_7$ oksidi fazalari kiradi.

Olti valentli uranning qo'shilishi suv va suv aralashmalarida yuqori yoki nisbatan yuqori eruvchanligi bilan tavsiflanadi. Uranning olti valentli qo'shilmalari ichida eng qiyin eriydiganlaridan biri uran va ishqor metallar uranati uch oksidi (gidrooksid) hisoblanadi. Uran gidrooksidining eruvchanligi toza suvda deyarli 50°S da $2 \cdot 10^{-4}$ g/l dan 200°S da $2 \cdot 10^{-3}$ g/l ga oshadi; juda suyultirilgan kislotalarda ($pH = 3,0 \div 4,5$) eruvchanlik 2-3 tartibda oshadi.

Aytib o'tilgan oksid fazalari ichida ko'plab tadqiqotchilar tabiatda UO_3 mavjudligini ta'kidlashadi, ammo hech qanday isbot keltirilmagan. Uranning azot oksidi va besh oksidi tabiatda mavjudligi aniqlanmagan. Ammo olimlar qizil rangli uran rudalarida birlamchi tashkil topganligini hamda nasturanning besh oksid ko'rinishida birlamchi tushganligini ta'kidlashadi. Qatronning UO_{2+x} panjara parametrlari va $\alpha_0 = 5,45 \div 5,44A$ ga yaqin hamda yuqori darajada qattiq eng barqaror turlari U_4O_9 ning tabiiy analogi sifatida qaraladi.

Tabiatda sulfat kislotali suvlar UO_2 ga ega murakkab oksidlarni ham o'z ichiga oluvchi barcha uran minerallarini erita oladi. Bunda ularning kimyoviy o'zaro ta'siri pH ga bog'liq bo'ladi. Ammo har xil konlarning bir xil ruda minerallari har xil eruvchanlik xususiyatiga ega.

Nasturanlardan ko'proq koffinit parchalanganda paydo bo'lgan turlari sulfat kislotasida yaxshiroq eriydi. Ular $\alpha_0 = 5,36 \div 5,39A$ panjara parametri va 200-400 kgs/sm² li mikroqattiqlikka ega bo'lib, U_4O_9 tipli qo'shilma bilan qo'yilganda $\alpha_0 = 5,43A$ panjara parametri va 950-1000 kg/sm² li nasturan tez eruvchi hisoblanadi. Shunday qilib, rudalarda koffinitning mavjudligini Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish bo'yicha olib boriladigan ishlar uchun yaxshi omil sifatida qarash mumkin. Koffinit odatda ko'proq holatlarda tezroq eriydigan uran oksidlari bilan to'ldirilgan bo'ladi. Aynan shu sabablar tufayli koffinit agregatlari va uran oksidlari zinch jamlangan nasturanga nisbatan osonroq tanlab eritmaga olinadi.

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usulining muvaffaqiyatini oldindan aniqlab buruvchi omillardan biri sifatida uran qoramtiri va uran slyuda birikmasi singari tez eruvchi minerallarning mavjudligini ko'rsatish mumkin.

Brannerit va boshqa uran titanlari hamda tarkibida uran mavjud bo'lgan

minerallarning tutgan o‘rnini aniqlashda ularning xossalarini hisobga olish zarur.

Bu minerallarning barchasi kislotalarda qiyin eriydi hamda texnologik jarayonni qiyinlashtiradi. Ammo aytib o‘tilgan minerallarning metamiktli turlarida titanli va boshqa komponentlarga ega uran oksidlarining kristallik bog‘lanmasi yengilroq ekanligi kelib chiqadi hamda bu minerallar tabiatning o‘zidan texnologik qayta ishlash muvaffaqiyati uchun tayyorlangan bo‘lib, kislotalarda qiyin eriydi. Bu vaziyat esa har bir konkret konlardan ma’lum darajada uranni qazib olishni engib o‘tish uchun laboratoriya ishlarini amalga oshirish zarurligini ko‘rsatuvchi sabablardan biri sanaladi.

Tog’ jinslari va ma’danlarning bosh minerallari

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulini ishlatilayotgan reagentlarda kuchsiz erishi bilan ajralib turuvchi hamda uran rudalari tarkibiga kiruvchi jinslardan tashkil topgan minerallar joylashgan konlardan muvaffaqiyatli qo‘llash mumkin. Bu avvalambor kvars, yer shpatlari, slyudalar va gidroslyudlardir. Uran rudalari tarkibiga kiruvchi alyuminiy silikatlardan loy qorishma minerallar, asosan shishib chiquvchi loy qorishmalar tanlab eritmaga o‘tkazishni murakkablashtiradi.

Kislotali tanlab eritmaga o‘tkazishda rudalar va shunga oid jinslarida karbonat minerali mavjud bo‘lsa reagent chiqimi ko‘payadi. Amaliy ishlar Shuni ko‘rsatdiki, suv o‘tkazuvchi rudalar va shunga oid jinslarda karbonatning ko‘payib ketishi (SO_2 bo‘yicha 2,0%dan ko‘proq) tanlab eritmaga o‘tkazish jarayonini barcha munosabatlarda qiyinlashtiradi: kislota chiqimi birdan ko‘payadi, so‘rib oluvchi konlar va filtrlangan zonalarda filtrlarning kimyoviy va gazli kolmatatsiyasi kuchayadi.

Rudalarning tuzilishi va teksturasi

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli bilan ishlab chiqariladigan rudalar tuzilishi: tarqatilgan, chiziqli tarqatilgan va chiziqlilardir. Rudalar teksturasi xilmalxil bo‘ladi. Uran minerallari taqsimlanishi jinslarning o‘tkizilgan tekisliklari, ularning o‘tkazilgandagi yo‘nalishi, tektonik jarimalar maydoni va kichik yoriqlar yo‘nalishi bo‘yicha hisoblanadi. Ko‘proq eritmani Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish da yuvilib ketuvchi ochiq bo‘shliq va yoriq devorga o‘rgatilgan mineralli uranlarni rudalardan chiqarib olish teng kuchli hisoblanadi.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulini qo‘llash uchun foydalilanilayotgan texnologik eritmalar uchun o‘z xossasi bo‘yicha kam o‘tkazuvchi bo‘lgan tashkil qiluvchi jinslar komponentlarida olachipor uran minerallarining qo‘llanishi salbiy hisoblanadi. Bunday komponentlarga g‘ovakli sement orasida jinslarning minerallashtirilgan qismlari, o‘z ichida uran mavjud bo‘lgan fosforit konsentratsiyasi, chiqindi jinslarda qazilmalar va o‘simliklarning fosforlangan va uglevodlangan qoldiqlari, minerallashtirilgan loy qorishma granulalar hamda qumlardagi loy qorishma linzalari kiradi.

Agar rudalardagi loy qorishmalar uran minerallari konsentratsiyasi joylari bilan fazoviy bog‘langan bo‘lsa, unda yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish natijasi

past darajada bo‘ladi. Agar uranli minerallar va loy qorishmalari konsentratsiya joylari birlashtirigan bo‘lsa (uranli minerallar ko‘p o‘tkazuvchi jinslarda mavjud, loy qorishmalari esa – rudasiz burchak jinslarda yoki uran mavjud bo‘lmagan qatlamlar va zonalarda topiladi), unda loy qorishmalari yo‘qligiga nisbatan kon ichidagi texnologik jarayon samaraliroq o‘tadi, chunki ruda minerallari konsentratsiya mineralli bo‘yicha yo‘naltirilgan eritma oqimiga tabiiyki tayyor bo‘ladi, burchak jinslar esa yaxshi suv to‘suvchi vazifasini bajaradi. Loy qorishmaning bunday taqsimlanishi yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish ni tashkil qilish uchun ko‘proq ijobiy hisoblanadi. U uran birligini chiqarishda kislotaning kam chiqim bo‘lishini ta’minlaydi.

Rudalar va shunga oid jinslarda karbonat va loy qorishmalarni taqsimlay olishni bilish yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli bilan konlar ekspluatatsiyasining har xil bosqichlari texnologik jarayonining rejimi tanlashda va ish samaradorligini oldindan belgilashda yordam beradi.

Ma’dan va jinslarning eritma o‘tkazuvchanligi

Tog’ jinslarining mavjud yoriqlari va boshqa bo‘shliqlari orqali suv chiqarib yuborish xususiyatiga suv o‘tkazuvchanlik deyiladi. U birga teng va m/sut birlikda o‘lchanadigan naporli gradientda jins orqali o‘tuvchi suv filtratsiyasi tezligiga teng filtratsiya (yoki suv o‘zkauvchanlik koeffitsienti) bo‘yicha aniqlanadi.

Tog’ jinslarining suv o‘tkazuvchanligi uning quduqqa ega ekanligiga to‘g‘ridan to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi. So‘nggi jumla sifatida tog’ jinslaridagi bo‘shliqlarning umumiyligi hajmi tuShuniladi. Tog’ jinslaridagi “quduq” termini unchalik tarqalmagan, “bo‘shliq” termini esa quduqning bir xususiy holi sifatida emas, balki uning qat’iy sinonimi sifatida ham ishlataladi. Jinslardagi bo‘sh joylarning mavjud shakllarini aniqlash zaruriyati tug‘ilsa, yoriq bo‘shliqlar nazarda tutiladi.

Bo‘shliq jinsdagi bo‘sh joylar hajmining uning butun hajmiga nisbatida aniqlanadi va foizlarda ifodalanadi. U yana bo‘sh joylar hajmining mineral skeletlari hajmiga nisbatida berilgan ifodaga teng bo‘shliq koeffitsienti orqali ifodalanadi hamda u ham foizlarda ifodalanadi. Rudalarning texnologik xossalalarini baholashda quyidagilar ajratib ko‘rsatiladi: umumiyligi yoki absolyut bo‘shliq (shaklidan va o‘zaro bog‘liqligidan qat’iy nazar barcha bo‘sh joylar hajmini aniqlaydi hamda jinsning zichlik va massa hajmi munosabatiga tayanadi); samarali yoki ochiq bo‘shliq (bir-biri bilan masofadan bog‘langan bo‘sh qismlar hajmini hisobga oladi va berilgan ruda yoki tog’ jinsi orqali yer osti suvlari harakatini ta’minlaydi); yopiq bo‘shliq (umumiyligi bo‘shliq va ochiq bo‘shliq ayirmasi orqali aniqlanadi).

Bo‘sh joylar o‘lchamiga ko‘ra superkapillyar yoki yuqorikapillyar bo‘shliqlar (kapillyar bo‘shliqlarga ko‘ra – $> 0,5$ sm)ga, kapillyar bo‘shliq (alyana bo‘sh joylar o‘lchami 0,0002 dan 0,5 mm gacha, yoriqsifat bo‘sh joylarniki esa 0,0001 dan 0,25 gacha) hamda subkapillyar bo‘shliqlar (kapillyar bo‘shliqlardan ham kichikroq – $< 0,0002$ mm) ga ajraladi.

Bo‘shliqlar paydo bo‘lish sharoitlariga ko‘ra tektonik buzilishlar bilan yoki

minerallarni tanlab eritmaga o'tkazish bilan bog'liq bo'lgan birlamcha yoki ikkilamchi bo'shliqlar bo'lishi mumkin. Eng ko'p bo'shliqlar tog' jinslari cho'kindilari uchun tavsiflanadi (50-10%). Mineral paydo bo'lishining, shu jumladan, ruda paydo bo'lishining gidrotermal jarayonlari bo'shliq hajmining ma'lum darajada o'zgarib borishi bilan kuzatib boriladi. Ruda paydo bo'lishining har xil bosqichlarida o'z ichiga jinslarni qamrab olgan bo'shliqlarning ham ko'payishi ham kamayishi bo'lib o'tadi. Demak, chiziqli va qatlama po'stlarida ruda va jinslarning yuzaki gidrogen keltirib chiqarish sharoitida to'ydirilgan kislorodli suv ta'sirida shamollatishda bo'shliq odatda kengayadi.

Suv o'tkazgichdan farqli ravishda tog' jinslarining eritma o'tkazuvchanligi tubdagagi eritmalarining texnologik harakatlari hamda ularning ruda va ruda aralashmasiga ega jinslariga ta'siri o'zgarishi mumkin, boshqa so'z bilan aytganda yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish jarayoni bo'shliq va uning kolmotatsiyasi hajmi kattarishi bilan doimiy ravishda bog'liq bo'ladi.

Tub qismlarda qattiq va suyuq fazalarning o'zaro harakati interstitsial muhitda kechadi. qattiq jism bilan suyuqlik chegarasida kechuvchi tog' jinslarining buzilish mexanizmi hali etarli darajada o'rganilmagan, ammo shubhasiz minerallarning tanlab eritmaga olinishi maksimal eritma o'kazuvchi zonalarda nisbatan intensiv ekanligi bilinib turadi.

Rudalar va rudaga ega jinslarni filtrlash koeffitsientidan qat'iy nazar to'rtta asosiy guruhga bo'lish maqsadga muvofiq: 0,1 dan kam; 0,1 dan 1 gacha; 1 dan 10 gacha hamda 10 m/sut.dan ko'proq.

Tanlab eritmaga o'tkazish jarayonida eng yaxshi natijalar hozirgacha 1-10 m/sut filtrlash koeffitsientlarida erishilgan. $K_f > 10$ m/sut bo'lganda ham bu jarayon qoniqarli darajada amalga oshiriladi, ammo ko'pincha "kanallah" xavfi paydo bo'ladi. Bunda tanlab eritmaga olinayotgan aralashmalarning asosiy massasi yuqori o'tkazuvchan zonalar bo'ylab harakatlanadi va bu odatda foydali komponentlarni o'z ichiga olmaydi. K_f 0,1-1 m/sut da tavsiflanuvchi ruda jismlarining filtrlash qobiliyati yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish jarayoni bajarilsada kamroq ijobjiy jarayon sifatida qaraladi. $K_f < 0,1$ m/sut bo'lgan rudalarda talab eritmaga olishni oldindan tayyorgarliksiz (agar jarayon mumkin bo'lsa) amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lmaydi.

Filtratsion xilma-xillik

Muhitning eritma o'tkazuvchanlik yig'indisi yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli bilan qayta ishlash uchun ruda jismlarini yaroqli baholash kriteriyasi bo'la olmaydi. Eritmaning tarqalishi va konviktiv dispersiyasini aniqlashda ruda va rudaga ega jinslarning filtratsion xilma-xilligi katta ahamiyat kasb etadi, bundan tashqari mahsuldor qatlamlarda massa o'tkazishni nazorat qiladi. Maksimal eritma o'tkazuvchanlik va uran minerallari konsentratsiyasi bilan birgalikda rudalarni legallah eng qulayi hisoblanadi. Maksimal eritma o'tkazuvchanlik tarkibida uran bo'limgan burchak jinslarga tegishli bo'lgan holatlarda ish tannarxi ishlab chiqilmagan reagent chiqimi hisobiga oshadi.

G'ovakli va yoriq-go'vakli o'tkazuvchan qatlamlari konlarni uchta asosiy bir

turga mansub bo'lмаган табиий фильтрация гурухларга ажратиш мүмкін.

Birinchisi – “rejali” xilma-xillik – qatlamning kamayishi va yuvilishi bo'yicha don kattaliklarining o'zgarishi bilan hamda boshqa fatsial aralashtiruvlar orqali ko'rsatiladi.

Ikkinchisi – “vertikal” xilma-xillik – jinslarni qatlamlashga qaratilgan. Qatlamning filtrlash qobiliyati suv tashuvchi gorizontning yagona chegarasida katta qiymatdan (sutkasiga 10 metrgacha) boshlab, kichik masofalarda deyarli nol qiymatgacha (masalan, qumli va qorishmali qatlamchalarining yupqa almashinushi, qorishmalarda linza mavjudligi va h.k.) bo'lgan kesmada o'zgaradi.

Uchinchisi – “tekstur” xilma-xillik – ruda tashuvchi chiqindilar uchun xos tarzda tekstura xususiyati bo'yicha xilma-xil bo'lib, litologik bir xil bo'lgan qatlam va qatlamlarda kuzatiladi. Teksturali xilma-xillik yaproq shakliga ega loy va qorishma zarralari bilan tushuntiriladi. Krest shaklida yotqizib tashkil qilingan bunday xilma-xillikning suv o'tkazuvchanligi to'g'ri yotqizilgandagiga nisbatan ko'p marta kam bo'ladi. Teksturali xilma-xillik ayniqsa kuchli suv tashuvchi gorizont mavjudligida Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish uchun qulay sharoitlar yaratib beradi.

Cheklangan interstsial o'tkazuvchan va faqat yoriqlar orqali o'tkazuvchan bo'lgan kuchli tarzda toshga aylangan chiqindilar va kristall jinslarda filtratsion xilma-xillik yoriqlar (shu jumladan tektonik) chastotasi va joylashuvi hamda ularning ochilganlik darajasi bilan tushuntiriladi.

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishda filtratsion xilma-xillikning “geotexnologik” tashkil qiluvchisini ham hisobga olish juda muhim. Ular ish davomida shakllanadi hamda uning tanlab eritmaga o'tkazilayotgan aralashmasi bilan qayta ishlash vaqtida qatlama paydo bo'luvchi yangi xilma-xilliklar bilan bog'liq. Texnologik ishlarning rivojlanishi bilan tanlab eritmaga olish zonalaridagi umumiy holat hatto eng qulay boshlang'ich tabiyy sharoitlarda ham etarli darajada o'zgaradi.

Filtratsion xilma-xillikni ma'lum miqdorda baholash uchun ba'zi mualliflar mahsuldor qatlam hajmining qancha ulushi suv o'tkazuvchanligi bo'yicha tenglikka ega chiqindilarda to'planganligini ko'rsatuvchi filtratsion xilma-xillik koeffitsientidan foydalanishni tavsiya qiladilar. Ammo bu parametr bo'yicha u yoki bu ruda jismlari uchun qayta ishlash usulini qo'llash imkoniyatlari haqida birlamchi xulosa qilib bo'lmaydi. Bu parametr ma'lum miqdorda baholash o'tkazuvchanligida mahsuldor qatlamning (to'g'ri yotqizilgan va unga teskari holatda ham) litologik ayirmasi bilan kuzatiladi.

Hozirgi kunda yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli orqali uran hajmining asosiy qismi olinayotgan interstsial-qatlam legallah uchun mahsuldor qatlamning kam chiqarib olingan bo'sh legallah holati klassik holat hisoblanadi. Bunda mahsuldor qatlam tuproqda uzlucksiz suv bosimi bilan cheklangan eritma o'tkazuvchi qismlari (supes, qum, gravelitlar) chiqindilardan tashkil topgan. Bunday tuzilma daryo va kontinental mezo-kaynozoy chiqindilari tarqalgan hududlarda kuzatiladi.

Shtokverli ruda jismlari uchun barcha suv o'tkazuvchi yoriqlarga uranli ruda minerallari o'rnatilgan holatlar ko'proq qulay hisoblanadi.

Ma'dan tanasining suvlanishi

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli bilan konlarni qayta ishlash savolining yechimini topishda muhim masalalardan biri tabiiy va sun'iy faktorlarning to'liq qatori o'zaro ta'siri natijasida chuqurliklarda shakllanadigan optimal gidrogeotexnologik ekspluatatsiya rejimi hisoblanadi. Yuqorida sanab o'tilganlardan tashqari yana konlarning suvlanishi va suvlarning saqlab qolinishi kabi faktorlar muhim tabiiy faktorlar qatoriga kiradi. Asosiy sun'iy faktorlar sifatida texnologik konlarning ishlashi, etkazib beruvchi va so'rib oluvchi konlarning o'zaro harakati natijasida yer osti oqimining paydo bo'lishi, alohida ekspluatatsion elementlar (uchastka, blok va qatorchalar) orasidagi o'zaro harakat, samarali va samarali bo'limgan suv tashish gorizontlari hamda chuqurlikka eritmani etkazish bilan bog'liq geotexnologik hodisalar o'rtasidagi o'zaro harakatlarni olish mumkin.

Ko'plab konlar tabiiy yer osti suvlari orqali suv bilan boyitilgan. Ammo tabiiy ravishda quruq bo'lgan konlar ham mavjud. Bunday olib qaraganda ular sun'iy ravishda suvlashtirilishi mumkin, ammo bu katta qo'shimcha ekspluatatsion chiqimni talab etadi. Ruda konlarining tabiiy suvlanishi mahsuldor aralashmalarning tog' qoldiqlari orqali chiqarilgan holatlarda uranni yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usulini qo'llash uchun juda qulay. Birlamchi drenaj bilan bog'liq qiyinchiliklar qayta ishlanayotgan bloklar ostidagi depression o'ramalarda chiqarilgan mahsuldor aralashmalarni to'plashning qulayligi, imkoniyati hamda to'liqligi bilan kompensatsiya qilinadi.

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli bilan o'rganilgan konlardagi yer osti suvlari rejimi odatda kuchli bosimda bo'ladi, bu esa o'z o'mida suv o'tkazish va suv chiqarish qatlamlari hamda oziqlanish sohasining gipsometrik yuqori holati bilan qabul qilinadi. Ammo ba'zan erkin ko'zguli yer osti suvlari yoki kam naporli suvlarga ega samarali suv tashuvchi gorizontlar ham uchrab turadi. Bu gorizontlar uncha katta bo'limgan chuqurlikda legallanadi.

Nisbatan qulay sharoitlar yer osti suvlarining bosimli rejimida yaratiladi, chunki bu holatda yer osti tanlab eritmaga o'tkazishning boshqarilayotgan gidrodinamik jarayoni soddarоq amalga oshiriladi. Odatda qatlarning yuqori bosimli rejimida eritmalar oqimi va tezligini nazorat qilish uchun suyuqlik stolbining bosimli qismi chegarasida konlardagi suyuqlik darajasi belgisi o'zgarishi bilan cheklash mumkin, ya'ni mahsuldor qatlarning quritilmagan yetkazib berish va tortib olish konlaridagi ayirmasi orqali tashkil etiladi. Suv tashuvchi gorizontning bosimsiz rejimida qatlaming zarur bosimli gradientlarini tashkil etish faqat uning qisman quritilishi hisobiga amalga oshirilishi mumkin. Shu bilan birgalikda ruda jismlari tez-tez suv tashuvchi gorizontning yuqori qismida joylashadi hamda agar qatlam qisman quritilsa ular eritmaga olinmay qolinishi mumkin.

Ruda jismlari ko'proq katta chuqurliklarda legallanadi. Hozirgi vaqtida yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli orqali 400-600 m chuqurliklar zabit etilmoqda. Tanlab eritmaga o'tkazish jarayonini boshqarish uchun zarur bo'lgan bunday chuqurliklardan eritmani olib chiqish yetkazib berish opyeratsiyasi singari

texnik qiyinchiliklar va katta mablag‘lar chiqimi bilan bog‘langan bo‘lardi.

Bosimli suv mavjud bo‘lganda bu kabi negativ holatlar ko‘rinarli darajada kamayadi, chunki konlardagi yer osti suvlarining p’yezometrik darajasi zamonaviy chuqurlikning chiqaruvchi qurilmalari uchun oson qo‘llash mumkin bo‘lgan uncha katta bo‘limgan va hattoki yer sathidan baland bo‘lgan joylarda ham o‘rnataladi. Agar p’yezometrik daraja yer sathidan pastda o‘rnatsa, yetkazib beruvchi konlarga ruda qatlamlarida oddiy ertimani quyish erituvchini kiritish uchun qulay imkoniyatlarni yaratadi. Yer osti suvlarining o‘zi quyilishi chuqurlikdan mahsuldor aralashmalarni chiqarish uchun qulay. Boshqa tomondan, yer osti suvlarining o‘zi quyilish holatlarida ishlovchi eritmalarini yetkazib berishda texnik qiyinchiliklar paydo bo‘ladi, chunki ortiqcha gidrostatik bosimni yaratish uchun maxsus nasoslarni qo‘llash mumkin.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish jarayonida bosimga ega va bosimsiz yer osti suvlarining mavjud bo‘lganida samarali gorizontning qisman susaytirilish holati bo‘lib o‘tadi. Shu boisdan quyidagi qiyinchiliklar ham paydo bo‘ladi: birinchidan, yer osti suvlari “ko‘zgu”sida legallangan rudalarni qayta ishlashdagi qiyinchiliklar, ikkinchidan, mahsuldor aralashmalarni chiqarish vaqtidagi qiyinchiliklar. Bunday holatlarda yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish amaliyotida tortib olish hamda mos ravishda yetkazib beruvchi texnologik konlarning chiqimini kamaytirishga to‘g‘ri keladi. Bu esa konlarni qayta qazib olish muddatini uzaytirishga olib keladi, yuqori tabiiy suvning ko‘pligida esa mahsuldor aralashmalarning parchalanishiga ham olib keladi. Konlarning suvlanishi yer osti suvlarining statik zaxiralaridagi qanday bog‘lansa, yer osti suvlarining dinamik zaxiralarida ham shunday bog‘langan bo‘lishi mumkin. Har xil konlar uchun dinamik zaxiralar keng maydonlarda ham topiladi. Ularning xos qiymatlari yer osti oqimining suv o‘tkazuvchi va gidravlik og‘masi bilan aniqlanadi. Samarali suv tashuvchi gorizontlarni filtrlashning o‘rta qiymatlari 0,1 dan 20-30 m/sut va ko‘proq, suv tashuvchi qatlaming quvvati – birinchi metrlardan 80-100 gacha, gidravlik og‘mali esa – 0,01-0,001 oraliqda o‘zgaradi. Yer osti oqimi harakatining o‘rta tabiiy tezligi ham katta oraliqlarda aylanadi – sutkasiga millimetrlardan metrning ulushigacha, ba’zida ko‘proq. Yer osti suvlarining kichik (yiliga bir metr) tabiiy tezliklari Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish uchun qulay faktor hisoblanadi, chunki ular gidrodinamik jarayonga deyarli ta’sir o‘tkazmaydi (hamda eritmalar oqimini baholashda asosan hisobga olinishi kerak). Yer osti suvlarining dinamik zaxiralarini odatda chuqur depression o‘ramalarning paydo bo‘lishi yo‘l qo‘yilmagan holatlarda to‘g‘ri gidrodinamik rejimni qo‘llash shartida Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish jarayoniga sezilarli ta’sir o‘tkazmaydi. Shu bilan birqalikda bu zaxiralar gidrogeologik konlarda qayta ishlash jarayonida buzilgan sharoitlarni qayta tiklash uchun muvaffaqiyatli ishlatalishi mumkin.

Yer osti suvlarining minerallanishi

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulining sanoat-gidroqimyoviy rejimi ruda konlariga eritmalar, kislotalar, kompleks tashkil qiluvchilar va boshqa reagentlarni kiritish natijasida shakllantiriladi. Boshlang‘ich (tabiiy) gidroqimyoviy

sharoitlar hal qiluvchi faktorlardan hisoblanmaydi, ammo o‘z o‘rnida konlarni qayta ishlashda aniq belgilangan vazifani bajaradi. Buni esa ishning gidroqimyoviy rejimini loyihalashtirishda hisobga olish zarur.

Yer osti tanlab eritmaga o‘tkazishda har xil boshlang‘ich gidroqimyoviy sharoitlar bilan to‘qnash kelish mumkin. Har xil konlar, suv tashuvchi gorizontlar va komplekslarning yer osti suvlari tarkibi keng variatsiya qilinadi. Bunda uning uran bog‘lanmalariga harakat yo‘nalishi tabiiy holatlarda doim ham texnologik jarayon uchun qulay emas. Bu birinchi navbatda umumiy mineralallashtirishga tegishli.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish jaranida ko‘proq qulay sharoitlar kam mineralallashtirilgan suvlarda yaratiladi. Yer osti suvlarining mineralantirilishi yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulida sezilarli darajada oshadi, bu ion almashinuvida mahsuldor aralashmalarning qayta ishlanishini qiyinlashtiradi, hatto ba’zan bu holat qatlam bo‘shlig‘i kolmatatsiyasiga sabab bo‘lishi mumkin. Yer osti suvlarining yuqori boshlang‘ich mineralantirilishi ayniqsa karbonatli tanlab eritmaga olingen eritmalarни qo‘llashni qiyinlashtiradi.

Yer osti suvlarining komponent tarkibi yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazishda muhim ahamiyat kasb etadi. Suv mineralizatsiyasining asosiy komponentlari, ma’lum bo‘lganidek, HSO_3^- , SO_4^{2-} , Cl^- , Ca^{2+} , Mg^{2+} , Na^+ lar hisoblanadi. Tabiiy holatlarda yer osti suvlarining anionlari uranning jins va rudalardan suvgaga o‘tishida muhim ahamiyatga ega. Bunda ko‘proq ahamiyatga gidroqarbonat-ion ega, chunki u tarkibiga $UO_2(HCO_3)$ kiruvchi tez eruvchi komplekslarni paydo qiladi. Tabiiy suvlarda HCO_3 ning tarkibi odatda 500-600 mg/l dan oshmaydi. Uning eng ko‘p uchraydigan konsentratsiyasi 100-200 mg/l bo‘lib, u uranning tuproqqa tushishini ushlab turadi hamda bu bilan uning migratsiyasini engillashtiradi. Karbonatli tanlab eritmaga olishda yer ostidagi suvlarda karbonat-ionning ortiqcha tarkibi yaxshi rol o‘ynaydi. Ammo buni, uning boshlang‘ich va gidroqarbonatli fazasini inobatga olmaganda, keng foydalanuvchi kislotali tanlab eritmaga oluvchi deb bo‘lmaydi.

Asosiy kationli tarkibning uranni tanlab eritmaga o‘tkazishdagi ta’siri anionnikiga nisbatan kamroq. U so‘nggi davrlarda o‘rganilayotgan karbonatli eritmalar bilan karbonat rudalarini tanlab eritmaga olishda o‘ziga xos ahamiyat kasb eta boshlaganini ko‘rish mumkin.

Olti valentli uranning bog‘lanmasi yer osti tanlab eritmaga o‘tkazishda foydalanilayotgan oltingugurt kislotasining kuchsiz suvli eritmalariga yengil o‘tadi. To‘rt valentli uranning bog‘lanmalari erishi qiyinlashtirilgan. Bu jarayonning tezlashishiga *Eh* ishlatilayotgan eritmalar oksidlanish-tiklanish potensialini oshishi orqali erishiladi, buning oqibatida suv mineralizatsiyasining potensial tashkil qiluvchi komponentlari o‘z o‘rnini topadi. Bu komponentlar ichida asosiyлари kislород va uch valentli temir hisoblanadi.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli bilan ishlab chiqiladigan uran konlarining ko‘pchiligi sezilarli qiymatda eritilgan kislородга ega gipergenez zonasi suvlari bilan to‘yintirilgan. Uning suvdagi eruvchanligi 10 mg/l ga etadi. Suvning *Eh* sini oshirib, kislород uranni U^{4+} dan U^{6+} ga o‘tkazish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Tabiiy sharoitlarda uran migratsiyasiga konsentratsiyasi tabiiy suvlarda 2-

2 g/l va ko‘proqqa etuvchi uglekislotalar imkoniyat beradi. Uran konlarining sun’iy suvlarida SO₂ ning yuqori konsentratsiyasi hali kuzatilmagan. Uglekislotali gazlar ko‘p miqdorda karbonatlarga oltingugurt kislotalarining ta’sirida gidrotexnologik jarayonlarda paydo bo‘ladi hamda bu holat ruda jismlari bo‘shliqlari kolmatatsiyasi va o‘tkazuvchanligi kamayishiga sabab bo‘ladi.

Tanlab eritmaga olishda salbiy rolni suvda serovodorodning mavjudligi o‘ynadi, chunki ular uranning to‘rtvalnetli formagacha qaytishini ta’minlaydi hamda uning eritmadan tushib qolishiga sababchi bo‘ladi.

Oltingugurtli sxemada yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish uchun ijobiy holat yer osti suvlarida miqdori bo‘yicha oksidlanishdan o‘tuvchi oksidlangan temirning mavjudligi hisoblanadi.

Uran konlari suvlari oksidlovchi-tiklovchi potensiali geokimyoviy holatdan qat’iy nazar keng maydonlarda o‘zgaradi – qurollanishi saqlab qolishga imkon beradi hamda mos ravishda yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish identifikatsiyasi uchun oksidlash chiqimini oshishini talab qiladigan manfiy qiymatlardan, ruda minerallari parchalanishi stadiyasini tavsiflaydi va tanlab eritmaga olishni engillashtiruvchi 300-400 mVgacha.

Ruda gorizontlari yer osti suvlarining reagentlar bilan to‘yinishi tabiiy gidroqimyoviy sharoitlar roli kamayadi hamda tanlab eritmaga olinayotgan konlarda gidroqimyoviy holat konlarni qayta ishslashning keyingi jarayonlarida sun’iy faktorlarga bog‘liq bo‘lib qoladi.

Texnologik sxemani tanlash va quduqlardan uranni tanlab eritmaga o‘tkazishda ish rejimining har qanday o‘zgarishini rejalahtirish qayta ishlanayotgan ruda jismlari va o‘z tarkibida ruda bo‘lgan jinslarining geologik tarkibining konkret xususiyatarini tahlil qilish asosida amalga oshiriladi.

2. YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O‘TKAZISH USULI ORQALI QAZIB OLINADIGAN URAN KONLARINING TASNIFLANISHI

Uranning geokimyoviy xususiyatlari- uning yer qobig‘idagi to‘rt va olti valentli birikmalarining turli xulq atvori, boshqa uransiz minerallarga aralashma ko‘rinishida kirish qobiliyati, olti valentli uranning yaxshi migratsiya qobiliyati, uning konsentratsiyasi uchun keng geologik sharoit yaratadi (postmagmatik, metamorfik, qoldiq cho‘kindi jarayonlari va shamollatish qobig‘ining shakllanishi).

Uran konlarini shakllanishi uchun juda ko‘p turli xil genetik sharoitlar, turli hududlarni geologik jihatdan chuqur o‘rganish jarayonida uran konlarining yangi turlari aniqlanmoqda.

Ba’zi belgilari bo‘yicha uran konlari tizimi va ularning tasniflanishi asosida qurilishi uchun chet ellik tadqiqotchilarining ko‘plab ishlari bag‘ishlangan.

Ushbu maqolada uranni turli ma’dan konlaridan yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulini tafsiflashi ma’lum bir maqsadga bag‘ishlangan bo‘lib, uran konlarining mavjud tasniflarini ko‘rib chiqish o‘rinli emas. Bu yerda shuni ta’kidlash joizki, mamlakatimizda birinchi marta gidrogen uran konlarini qazib

olish uchun foydalaniladigan yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli ushbu konlarning foydali qazilmalari va gidrogeologik sharoitda yuzaga kelishi va rudalarda uranning past konsentratsiyasi tufayli ushbu konlarni sanoatda foydalanish istiqbollarini baholashga ehtiyyotkorlik bilan yondashishga imkon berdi. Ushbu usulni joriy etish geologik ishlarni faollashtirdi. So'nggi yillarda maqsadli tadqiqotlar olib borildi va mamlakatimizning turli hududlarida gidrogen konlar topildi, ular yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usulini takomillashtirish va qo'llash uchun ishonchli xom ashyo manba'sini yaratdi.

Bu kitobda gidrogen uran konlarining tavsifiga alohida e'tibor qaratilgan.

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish jarayonida konlarning suvliligi kabi gidrogeologik omillar va grunt suvlarining yotishini artezian xarakteri ahamiyati katta; tab'iy oqimlarning zaxiralari va sarfi, yer osti suvlarining harorati va kimyosi aniq ahamiyatga ega. Biroq, bu omillar hal qiluvchi emas va tavsija etilgan tasniflashda foydalanilmaydi.

Tab'iy va sun'iy yaratilgan shart-sharoitlarsiz, ishqorlanadigan ruda minerallariga reagentni yetkazib berishni va keyinchalik mahsuldor aralashmalarni yer sirtiga chiqarishni ta'minlamasdan, yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usulini uran qazib olish usuli sifatida foydalanish mumkin emas. Shu sababli, tasniflangan konlarda ruda tanasining o'tkazuvchanligi asosiy hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Rudalarning texnologik xususiyatlari ko'p jihatdan ularning mineral tarkibi va tekstura xususiyatlariga bog'liq. Olti valentli uran birikmasi EOTEQ' usuli uchun eng qulay. Tabiatda uning to'rt valentli birikmasi branneritga yaqin bo'lgan titanlar bilan minerallar assotsiatsiya zaif aralashmali reaoentlar bilan parchalanib ketganda juda barqaror hisoblanadi. Monomineralli nasturan agregatlarini ishqorlash hech qanday qiyinchiliklarga olib kelmaydi. Nasturan va koffinitdan tashkil topgan gipergen agregatlardan uran to'rt valentli boshqa tabiy birikmalarga qaraganda osonroq eritma tarkibiga o'tadi. Asosan minerallarni qisman parchalanishi sodir bo'lgan va uran qayta taqsimlish holatlari uranni eritma tarkibiga o'tkazish uchun qulay sharoit hisoblanadi. Ushbu o'ziga xos gipergeneza jarayonlarning geokimyoviy qayta shakllanishi va yoriqlar zonalarida, qatlam chiziqlarida va oksidlanish hudulari sirtlarining parchalanishida keng tarqalgan.

Uranning gidrotermik rudalardan eritmaga o'tkazish imkonini beruvchi omillarga, kon massasi qismlaridan uranni ishqorlash natijalariga qarab, uran minerallarining reagentlarda oson eruvchanligi ko'pchilik jinslar tarkibidagi minerallarning kislotalarga ta'sir etmasligini va rudalarda foydali komponentlarni mavjudligini ta'kidlash joiz.

Kon minerallari uchun geotexnologik usullarning tasnifini taklif qiluvchi I.P. Kirichenko metallni yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli yordamida (texnologik eritmalar bilan) qazib olinadigan minerallar ro'yxatini berdi.

EOTEO’O’ usulida qazib olinadigan uran konlarini tasniflash bugungi kungacha ishlab chiqilmagan.

EOTEO’ jarayonini joriy etish uchun sharoitlarni tavsiflash bo‘yicha ayrim tavsiyalar so‘nggi yillarda ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan.

Shunday qilib A.P. Zefirov 1966 yilda EOTEO’ usulini qo‘llashni yuqori tajribasiga asoslanib, qumli glinali qatlamlar va toshli tog’ jinslaridan tashkil topgan ikki turdag'i uran konlarini aniqladi. Bu guruh keng tarqalgan bo‘lib, A.P. Zefirov tahririysi ostida chop etilgan V.G. Baxurov, S.G. Vecherkina kitoblarida keyingi tadqiqotlar uchun asos bo‘ldi.

D.I. Shegoleva tahririysi tomonidan nashr etilgan 1970 yilda chop etilgan V.P. Novik-Kochan, N.V. Gubkin, D.T. Desyatnikov va N.I. Chesnokov ishlari Shuni ko‘rsatdiki, kon massasining bog‘liqligi bo‘yicha konlar sochma, toshli va qatlarga bo‘linadi. Bunday bo‘linishda sochma konlar- ishqorlovchi eritmalar reagentlari va yer osti suvlari uchun yaxshi o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan, qatlamlili konlar- burg‘ulash-portlatish ishlari natijasida maydalashsiz va tabiiy holatda o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lmagan rudalar ekanligi ko‘rsatib o‘tilgan.

Konlarning ikki guruhga ajralishi- uranni EOTEO’ bo‘yicha ishlarni olib borish uchun qulay va noqulay sharoitlar bilan, 1972 yilda V.G. Baxurovlar va I.K. Rudnevalar tomanidan ham asoslangan. Shu bilan birga, konlarni guruhlash va guruhlarga ajratish uchun mahsuldor gorizontda suv o‘tkazuvchan rudalar va tog’ jinsi o‘rtasidagi hajmiy munosabat va rudaning suv o‘tkazuvchanligi asos bo‘lib xizmat qildi. Shunday qilib, geologik va texnologik tasniflarda asosiy mezon sifatida taklif qilingan bog‘lanishlar bilan jinslarni solishtirilishi ularning suv o‘tkazuvchanligiga qarshiligi bilan almashtirildi.

Biroq geologik kuzatuv ishlarining qay darajada ekanligi ahamiyatsiz, chunki geotexnologiya jarayoning bir tekisda kechishi ruda qatlamlarining tabiy muhitda vujudga kelishiga sabab bo'ladi. Bularning hammasi geotexnologik harakatlarining kelgusida rudalarni yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usulidan foydalangan holda qazib olish imkonini beradi. Laboratoriyalarda yaratiladigan sharoitlar qanchalik harakat qilmaylik baribir tabiy sharoitlarga 100% o'xshash sharoitni yaratishning imkonini bermaydi.


Biroq geologik kuzatuvar qaysi pog'onada bo'lishidan qat'iy nazar yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish jarayoniga umuman ta'sir etmasligining geotexnologik jarayon hamda ruda konlari va qoldiqlari bilan bog'liq bo'lib tabiat xodisalari ham tajriba jarayoniga katta ta'sir ko'rsatadi. Bular shuni anglatadiki yer ostida tanlab eritishda geotexnologik sharoitlarni konlardagi tabiy sharoitlarga imkon kadar yaqinlashtirishga o'rniladi. Biroq laboratoriyalardagi konlardagi sharoitlarni hisobga olishning imkonini ham ilojisi ham yo'q. Shuning uchun konlardagi sharoitlarni laboratoriya hududlarida yaratishga kanchalik urinmaylik bularning bari befoyda. Geotexnologik izlanishlar shuni ko'rsatadiki laboratoriyalarda olib borilgan tajribalardan olingan natijalar faqatgina belgilab qo'yilgan ruda konlariga to'g'ri keladi xolos.

Ba'zi gidrogen konlarda olib borilgan tajribalar shuni ko'rsatadiki, yuqorida ko'rsatib o'tilgan qoidalarga amal qilmaslik noto'g'ri qarorlar va qo'shimcha xarajatlarga olib keladi. Masalan: 4.1 a rasmida biz ruda chegarasining karbonat kvarsiga ega bo'limgan tuproq qatlamini va uning filtratsiya koeffitsienti kesimini ($K_f = 0,5$ m/sut) holatida ko'rshimiz mumkin. $K_f = 2 \div 3$ m/sut hamda ular tajribadagi boshqa moddalar aralashmasini shu formula orqali amalga oshirishimiz mumkin. Laboratoriyalarda olib borilgan tajribalar Shuni ko'rsatadiki, rudalar tarkibidan 1 kg metallni ajratib olish uchun ko'p miqdorda kislota talab qilinmaydi. Biroq uchta so'rib oluvchi va sakkizta yuboruvchi quduqqa ega bo'lgan 30×15 m kenglikdagi konlarda olib borilganda teskari natijalarga erishildi. Bunga sabab eritma kislotalarining ruda chegaralarida to'dalanib qolishi edi.

Ikkinci holatda 4.1 rasmida ruda chegarasining yupqa tuproq qatlami va ruda qatlaming 1% karbonat bilan boyitilgan (SO_2) hamda ikki tomonlama gil bilan qoplangan kesimi berilgan. Ruda chegaralaridan yuqori qismida gil qatlaming yuqori qismida hamda ularning qoq markazidagi korbanat sementi, dolomit va tuproqli qatlamlarida uchrab turadi. Ikki oydan so'ng 30×15 m bo'lgan uchta so'rib oluvchi va sakkizta yuboruvchiga mo'ljallangan quduqlar(quduq)da 40-50 mg/l miqdorigacha bo'lgan suyuqlikdagi uranni olish mumkin. Biroq bu ko'rsatkich 2,5 oydan so'ng 3-5 mg/l ga tushib ketdi. Bunga sabab kislotaning karbonat hamda, boshqa qatlamlarigacha etib borganligi edi. Agar ishlatiladigan kislota miqdori olinadigan 1 kg metall hamda jinslar miqdoriga mo'ljallanganda maqsadga muvofiq bo'lardi. Ularning tarkibidan namunaga olingandan so'ng fraksiya jarayoni uchun ham namuna olish va uranning to'rt yoki olti valentli ekanini aniqlab olish lozim.

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli uchun mo'ljallangan oxirgi amallar ruda tarkibidagi uran minerallaridan tashqari qolgan minerallar tarkibi va tuzilishini o'rganishga yordam beradi. rudalarning suvli-fizikaviy xossalari ularning umumiy yengillligi perpendikulyar tuzilishi hamda har bir tog' jinsining

litologik jihatlarini o'rganadi. Minerallarning o'tkazuvchanligi ikki xil shaklda o'tgan chiziq yordamida aniqlanadi. Bular iks(krest) yoki bir tekis ko'rinishdagi monolit shakllar bu usulning ahamiyati shundaki uning yordamida oreol atrofiga kislota qay darajada suzib tushishini aniqlashimiz mumkin. Filtratsiya jarayoni tekislikdagi suvda ham ishlab chiqarish jarayonidagi suyuqliklarda ham uchrab turilishi lozim.




Rasm 4.1. Ishqorlovchi aralashmada oqim hosil qilishda (a) filtrvsh jarayoni bir xil bo'limgan; (b) kislota sig'imli qatlamlar sxemalari (K_f -filtratsiya koeffitsienti).

1- gorizontlar va gil qatlami; 2- qumlar; 3- gilli qumlar; 4- karbonatli tog' jinslari qatlami (dolomitlar; karbonatli sementdagi peschayniklar va boshqalar); 5- ruda qatlami; 6- oksidlangan jinslar zonasi; 7.8- texnologik quduqlar; 9- filtrlar; 10-ruda tashuvchi qatlamni mahsuldor aralashma qamrab olish konturi

Laboratoriya tajribalari jarayonida tog' jinslari kislotalar hamda har xil litologik moddalarning reaksiya jarayonlariga ahamiyat beriladi. Ayniqsa rudasiz materiallarga singdirilgan metallar ta'siri ortadi. Buning uchun metallar qaysi modda yoki minerallar tajribaga singdirilgani hamda ularning ruda qatlamlari ustki, ostki qismi va gil qatlamlaridagi kesimlarning o'rni qanday ekanini aniqlashimiz lozim. Ularning bari yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish jarayonidagi yo'qotishlarni baholash uchun zarur. Laboratoriyalarda olib borilgan geofizik tajriba natijalari o'zaro solishtiriladi va shunga qarab qazilma ishlari olib


boriladigan hududlar hamda u yerdagи uranning miqdori aniqlanadi. Yuqorida aytib o'tilgan jarayonlarning barchasi maxsus uskunalar yordamida bajariladi. Bu uskunalar yordamida har xil uzunlikdagi trubalar jamlanmasidan tashkil topgan bo'lib, ular tajriba uchun olingan na'munalar bilan to'ldiriladi (4.3 rasm).

Ba'zida bu jarayon yanada mustahkamroq namunalarda amalga oshiriladi hamda ular metrli quvurchalar yordamida o'lchanadi. Bunga misol qilib 4.4 rasm ko'rsatib o'tilgan.



Rasm 4.3. Dinamik sharoitda namunalarni tadiqiq qilishda laboratoriya qurilmasi:

1-Mariott idishi; 2- vintel; 3- shlanglar; 4- gazni chiqarib tashlash qurulmasi; 5- bufyer qatlami; 6- lavson proqladka; 7- Filtratsion trubka; 8- potrubkalar.




Rasm 4.4. ruda va qoplovchi tog' jinslarini laboratoriya sharoitida tadqiq qilish uchun mustahkamlangan truba qurilmasi sxemasi

Siqilgan havo ballonlari; 2- ishqorlovchi aralashma idishi; 3- ruda; 4/7- proba olgichlar; 5- manometr; 6- bosimga qarshi qurilma

Konlarda olib boriladigan tajribalar kon atrofilarida qurilgan maxsus quduq(skvajin)larda o'tkaziladi. Bu tajribalarni olib borish uchun qo'yiladigan eng asosiy talablardan biri konlardagi minerallarning mavjudligidir. Shundan kelib chiqqan holda tajriba o'tkazish uchun joy tanlaganda u konning geologik xususiyatlarini hisobga olish lozim. Tajribalar jarayonida yuzaga keladigan muammolarni har xil yo'llar bilan xal qilish mumkin. Buning uchun eng asosiysi tajriba maydonida ishning borishini kuzatish imkonini beruvchi quduqlar soni ko'proq bo'lishi lozim va ular yordamida olingan ma'lumotlar orqali yuzaga kelagan har qanday muammoni bartaraf etsa bo'ladi. Tajriba maydonida qudqlarning joylashuv tartibi rudalarning gidrogeologik chegaralaridagi joylashuvi va yuqorida aytib o'tilgan talablarga mos ravishda bo'lishi lozim (4.5 rasm).


Quduqlarning joylashuvining ba'zi namunalari ko'rsatib o'tilgan. Bularning orasidagi eng maqbul yo'li va qulayi bu kislotani yuborishga mo'ljallangan quduq markazda kuzatishga mo'ljallangan quduqlar esa uning atrofida joylashgani. Bu usuldan amalda foydalanish juda ko'p vaqt talab qiladi, chunki bitta quduq ish jarayonida filtrash keskin ravishda pasayib ketishiga olib keladi va kislotasi harakatini susaytiradi.



Rasm 4.5. EOTEO' da orttirilgan tajribalar asosida tuzilgan texnologik quduqlarning joylashish sxemasi:

a- ikkita har xil quduq; **b**- bitta so'ruvchi va ikkita Yuboruvchi quduq; **c**- ikkita so'ro'vchi va ikkita Yuboruvchi quduq; **d**- bitta so'ro'vchi va oltita Yuboruvchi quduq; **e**- bir qator so'ro'vchi va ikki qator Yuboruvchi quduq.

Agar aralashmani o'tkazuvchanligi bir xil o'lchamdagি quduqlardan foydalanadigan bo'lsak bu jarayonnig nisbatan tezroq kechishiga imkon yaratib beradi. Biroq bu holda ham uran tarkibini o'rganib chiqish ko'p vaqt talab qiladi va kislotasi o'z ta'sirini yo'qotishiga olib keladi (4.6 rasm).



Rasm 4.6. Chegarasiz gorizontda (MASKETda) ikkita quduq bilan ishlaganda aralashmaning harakati yo‘nalishi va quduq ta’sir zonalari konturi setkasi:


1-tok chizig’i; 2- oqim harakat chizig’i (Filtratsion qarshilik raqamlarda yozilgan); 3- ishqorlovchi aralashmaning harakat zonasini chegarasi (aralashmaning vaqt birligida hudud bo‘ylab oqib o‘tish notengligi ko‘rsatilgan).

Tajriba so‘ngida olingan hisob kitoblarga bizga foydadan ko‘ra ko‘proq zarariga ishlaganimizni ko‘rsatadi.


Kamroq vaqt sarflanisha va sarf xarajatlarining kamroqligi jihatidan eng maqbولي bu uchta quduqdan iborat konlardir(4.7 rasm). Bunday holda aylanma harakat hududi qanchalik kichik bo‘lsa, quduq ichidagi kislota sarfi shunchalik kam bo‘ladi.

Xuddi shu natijaga (4.8 rasm) to‘rt quduqli konlarda ham ko‘rishimiz mumkin. Ulardan ikkitasi(ichki) so‘riboluvchi va yuboruvchi texnologik ikkitasi (tashqi) kuzatuvchi. Quduqlardagi gidravlik tortishish kuchi evaziga yuqoridagi kabi lokal chegaralardagi eritmalarining qisqarishi cheklanishi o‘tkazilayotgan tajribalar jarayonida juda muhim hisoblanadi.

To‘sinq hosil qiluvchi quduqlarda olib boriladigan tajribalarning eng katta kamchiligi shundaki, ish jarayonida ichki va tashqi quduqlarning tuxtovsiz ishlashini umuman iloji yo‘q. Qurib chiqilgan sxemalar tufayli yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish jarayonida uran bir chiziqdagi eng asosiy hudud bo‘lib bir ikkita quduqlar bilan texnologik ravishda urab olinganligi tufayli jarayonni qay darajada kechayotganini faqat bir yo‘nalishda bilish mumkin.




Rasm 4.7. Uchta quduqlarning ishlash tizimida eritmaning ijaralish chegarasi holati va oqim setkasi (o'ng tomon pastida quduqlar bo'yicha sarf miqdori q ko'rsatilgan; 4.6. rasim alomati)



Rasm 4.8. Chegaralanmagan suvli gorizontda to'rtta quduqlarning ishlash tizimida eritmaning tarqalish chegarasi holati va oqim setkasi (o'ng tomon pastida quduqlar bo'yicha sarf miqdori q ko'rsatilgan; 4.6. rasim alomati)

Tajribalar olib borilayotgan maydonni kengaytirish uchun hamda ruda konlarining yarmini u yerdagi minerallarning tarkibini va xossalariini o'rganish hamda lokalizatsiya qurollari sifatida hatto sxemalardan ham foydalanishning


imkoni bor. Bu hollarda kislota qo‘yiladigan quduqlar ko‘p qirrali hududning tepe qismidan boshlab qo‘yiladi va tog’ jinsining markazida joylashgan so‘rib olish quduqlar orqali so‘rib olinadi. Shu yo‘l orqali tajribalarning turli yo‘nalishidagi burg‘ulash qoidalarini o‘rganishimiz mumkin. Kuzatuv quduqlar va so‘rib olishga mo‘ljallangan quduqlar orsidagi debitlarning kon ichidagi gradientlar orasidagi tenglik ichki bosim filtratsiya oqimi tufayli saqlab qolinadi. (4.9-4.10 rasm)larda to’rttalik va ettitalik tuxumsimon shaklda joylashtirilgan quduqlarni ko‘rishimiz mumkin.




Rasm 4.9. CHegarasiz gorizontda (MASKETda) uchta Yuboruvchi va bitta so‘rvuchi quduqlar bilan ishlaganda sektorda aralashmaning harakati yo‘nalishi va quduq ta’sir zonalari konturi setkasi (4.6-rasmda qolgan ma’lumotlar keltirilgan).

Yuqorida aytib o‘tilganlardan tashqari ba’zi gidrogen konlardagi tajribalar hamda ishlab chiqarish jarayonidagi tajribalar ham oxirgi paytlarda bir chiziqdagi sxemalar texnologik quduqlar qatorida joylashtirilgan (4.11 rasm)

Ularning amaliyotda keng qo’llanishi yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usulining imkonti qadar ishlab chiqarish jarayoniga yaqinlashtirilgan holda tekshirib ko‘rish imkonini yaratadi. Qatorli va kombinatsiya sxemalarining asosiy kamchiligi bu burg‘ulash ishlarining kengligidir.



Rasm 4.10. Chegarasiz gorizontda (MASKETda) oltita yuboruvchi va bitta so‘rvuvchi quduqlar bilan ishlaganda sektorda aralashmaning harakati yo‘nalishi va quduq ta’sir zonalari konturi setkasi (4.6-rasmda qolgan ma’lumotlar keltirilgan).



Rasm 4.11. Chegarasiz gorizontda (MASKETda) o’n beshta quduqlar bilan ishlaganda sektorda aralashmaning harakati yo‘nalishi va quduq ta’sir zonalari konturi setkasi (4.6-rasmda qolgan ma’lumotlar keltirilgan).

Kuzatishga mo‘ljallangan quduqlar soni va ishlab chiqarish hududidagi joylashuvi avvaldan belgilab olingan sxemaga bog‘liq bo‘lib uning yordamida

belgilab olingen muammolarni hal qilsa kam bo'ladi. Bular filtratsiya jarayoni tezligini kislota tarkibi va rudalarning ostki eki ustki qatlamlarini kuzatish imkonini yaratadi. Yuborishga va so'ribolishga mo'ljallangan quduqlarning tekislikdagi o'rnining o'zgarishlarini biz 4.6-4.11 rasmlarda ko'rishimiz mumkin. Bir xil ravishda pasayib boradigan bosimlar 4.6,4.8,4.10-rasmlarda berilgan bo'lib bu yerda filtratsiya jarayonining xajimsiz karshiligi formula tarzida ko'rsatib o'tilgan. Bu formula yordamida har qanday quduqlardagi keskin pasayish yoki qo'shimcha sarflangan kislota miqdorini aniqlash mumkin. 4.11-rasmdagi turlar EGDA qurilmasi yordamida tasvirlangan. 4.6-rasmdagi pasayish hisobini olish uchun 4.8- rasmning hisobini olmok lozim. Pezometrik pasayib ketish pogonasini aniqlash uchun gidrogeologik formula yordamida quduqlar orasidagi hisoblarni aniqlashimiz lozim (4.1-4.5 rasmlar). Buning uchun kerakli hisob-kitoblarni quyidagi holatda keltirishimiz mumkin.

$$S = (Q/2\pi K_f M) f, \quad (4.1)$$

Bu yerda: Q – (debit)quduqlarning unumдорлиги (4.6-4.8- rasmlardagi sxemalar uchun so'rib oluvchi quduqlar debiti, boshqa sxemalar uchun yuboruvchi quduqlar debiti)

K_f – filtratsiya koeffitsenti.
 M – rudalarni aralashtiruvchi chenaralarning kuchlanishi,
 f – filtatsiya'ning qarshilik kuchi 4.6-rasmdagi sxema uchun qo'yidagi ko'rinish:

$$f = \ln(r_2/r_1), \quad (4.2)$$

4.7- rasmida

$$f = \ln(r_1 r_2^3 / r_3^4), \quad (4.3)$$

4.8-rasmida

$$f = \ln(r_3 r_4^2 / r_2 r_1^2), \quad (4.4)$$

Maydon sxemalari uchun

$$f = \ln \left(\prod_{i=1}^n r_i / r_0^n \right). \quad (4.5)$$

Yuqorida berilgan formulalarda: r_1 – tekislikdagi nuktadan pasayish nuktasigacha bo'lgan masofa, i – y – quduq(quduq), r_0 – poligon sxemalarida konning markazgacha bo'lgan masofa, n – pligondagi kislotalarni yuborishga mo'ljallangan quduqlar soni.

$$f = \ln(r_2/r_1)$$

Yuqorida keltirib o'tilgang formulalar orqali 4.6-4.11 rasmlardagi gidrodinamik turlar quduqlardagi chegaralanmagan bosimning suv o'tkazmaydigan hududdagi kuchlanish darajasi cheklangan bo'ladi. Quduqlarning tekisliklarda mukammal emasligini hisoblash uchun formulaga ma'lum o'zgartirishlar kiritiladi. Suv o'tkazuvchi chegaralar uchun chegaralanmagan quvvatga ega suv sathining pasayishi qo'yidagi formuladan foydalaniлади.

$$S = \frac{Q}{8\pi K_\Phi b} \ln \frac{y + b + \sqrt{(x+a)^2 + (y+b)^2}}{y - b + \sqrt{(x+a)^2 + (y-b)^2}} \cdot \frac{y - b + \sqrt{(x-a)^2 + (y-b)^2}}{y + b + \sqrt{(x-a)^2 + (y+b)^2}}, \quad (4.6)$$


Bu yerda:

x, y —pasayish aniqlanadigan gorizontal va vertikal nuktalar,

b —filtrning umumiyligining uzunligining yarmi, a —quduqlar orasidagi umumiyligining uzunligining yarmi.

Kichik filtrlarga ega quduqlar hamda ular orasidagi masofa uchun ($b=0$) formulasi osonlashtirilgan holdagi ko'rinishi.


$$S = \frac{Q}{4\pi K_\Phi} \left(\frac{1}{\sqrt{(x-a)^2 + y^2}} - \frac{1}{\sqrt{(x+a)^2 + y^2}} \right), \quad (4.7)$$




Rasm 4.12. Katta qalinlikka ega bo'lgan suvli gorizontda filtrlar qatlama qalinligiga teng va bog'lanish darajasi pastroq bo'lgan holda aralashmaning harakati yo'nalishi va quduq ta'sir zonalari konturi setkasi (4.6-rasmida qolgan ma'lumotlar keltirilgan).

Pasayib borish chiziqlari 4.12 rasmida aks ettirilgan bo‘lib ular (4.7) formula asosida hisoblangan. 4.13-4.14 ramslardagi chiziqlar uchun bir xil logorifmlar tanlab olingan.

O‘tkazilgan tajribalar shuni ko‘rsatadiki, ish jarayonida geotexnologik hisoblar olib boriladi, ya’ni tekislikdagi ishqorlash jarayonida konga ishlov berish, ruda tarkibidan uran minerallarini ajratib olish hamda alohida jarayonlarda uranda yuz beradigan o‘zgarishlar. Aytib o‘tilgan barcha xossalar olingan ma’lumotlar yerdamida akniklanadi ulardan ba’zilari hisob kitoblar yordamida olinadi.



Rasm 4.13. Katta qalinlikka ega bo‘lgan suvli gorizontda ikkita quduq filtrlar qatlam qalinligiga 1:2 nisbatda va bog‘lanish darajasi o‘rtacha bo‘lgan holda aralashmaning harakati yo‘nalishi va quduq ta’sir zonalari konturi setkasi (4.6-rasmda qolgan ma’lumotlar keltirilgan).



Rasm 4.14. Katta qalinlikka ega bo‘lgan suvli gorizontda ikkita quduq filtrlar qatlam qalinligiga 1:2 nisbatda va bog‘lanish darajasi o‘rtacha bo‘lgan holda aralashmaning harakati yo‘nalishi va quduq ta’sir zonalarini konturi setkasi (4.6-rasmida qolgan ma’lumotlar keltirilgan).

2. IKKINCHI GURUH KONLARI.

Bu guruhga har xil turdag'i uranlarni misol keltirishimiz mumkin. Ular o‘zining kuchsiz tuzilishi tufayli yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuliga dosh berolmaydi. Uran qazib olish jarayonida yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulini o‘llashdagi tajribalar hozircha cheklangan.

Hozirda faoliyat olib borayotgan ruda konlari bu usuldan foydalanib o‘zidan foydali minerallar ishlab chiqsa oladigan rudalar qazib olinmoqda. Bunaqa konlardagi uran zaxiralari konning ma’lum qismini egallaydi hatto ba’zi hollarda rudaga nisbatan uran miqdori bu konlarda yuqori bo‘ladi. Bundan tashqari foydali komponentni ruda tarkibidan ajratib olinadi. Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulining turli xilligi uning (RNS) radiometrli nazorat stansiyalari, (ROF)radiometrlar ishlab chiqarish fabrikalarida aniqlanadi.

Amaldagi konlarda EOTEQ’ usulidan foydalanish yordamchi qiymatga ega-uranni chuqurlikdan yanada to‘liq chiqarish, muvozanatlari zaxiralarni jalg qilish va balansdagi metall yo‘qotishlarini kamaytirish imkonini beradi. Shu bilan birga, balansdan tashqari rudalarni qazib olish, odatda maxsus kapital xarajatlarni talab qilmaydi, chunki mavjud kapital ishlovlardan ochish, tayyorlash, burg‘ulash portlatish ishlarini bajarish orqali amalga oshiriladi.

Uranni EOTEQ’ usulida dastlabki maydalash bilan maxsus qurilgan rudniklar hali mavjud emas. Ammo ba’zi konlarda amalga oshirilgan tajriba ishlari va hisob-kitoblar, Shuningdek, balansdan tashqari ma’dan konidaga tajriba ishalri Shuni ko‘rsatdiki, minerallashgan konlarda uranni yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli uchun qurilgan maxsus qurilishlar muhim texnik va iqtisodiy ta’sirlarini keltirib chiqaradi. Chet eldag'i korxonalarining ish tajribasi buni tasdiqlaydi.

Ishlab chiqarish jarayoni olib boriladigan konlarda yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulini qo‘llash orqali yer ostidan uranni yo‘qotishlarsiz qazib olish uchun juda qulay. Shuning bilan bir qatorda rudalarni boshlang‘ich mablag‘siz ham qazib olish mumkin. Ruda konlarini kuzatish oqibatida olingan ma’lumotlarni yigib yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usullaridan foydalanish jarayonida qo‘llaniladi, bunday konlarning morfologik joylashuvi hamda ulardagi uran minerallarining xususiyatlarini o‘rganadi. Ruda konlarini o‘rganish jarayonida asosan bir xil miqdordagi minerallar ko‘proq o‘rganiladi, miqdori har xil bo‘lgan minerallarga unchalik ahamiyat berilmaydi. Biroq yer ostida tanlab eritmaga

o'tkazish usulidan foydalanishda esa har ikkisi ham teng ravishda o'rganiladi hamda ishlab chiqarish darajasiga yetkaziladi.

Shu bilan bir qatorda EOTEO' usulida qazib olish uchun mo'ljallangan ma'danlarning fizik-mexanik xususiyatlarini, xususan, ularning yorilish darajasini o'rgani muhim ahamiyatga ega. Ba'zi hollarda rudalarning tabiy yoriqlilik(titiluvchan)ligi rudalarni dastlabki maydalashsiz, quduqlar orqali ishqorlovchi eritmalarни yuborish yo'li bilan va mahsuldor aralashmalarni drenaj quduqlari orqali yig'ish imkonini beradi. (birinchi texnologik guruhning z-turi-jadval 3.1)

EOTEO' usulida alohida ruda jismlarini qazib olish taklif etiladigan konlarni razvedka qilish EOTEO'ning alohida ekspluatatsion bloklarida keng ko'lamli tajriba ishlarini bajarish hamda uranni uyuumlab ishqorlash usuli bilan ajratib olish imkonini beradigan muammolarni hal qilish uchun ma'danlarni laboratoriya tadqiq qilish yo'li bilan bajarish kerak.

3. YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O'TKAZISH KORXONALARIGA GEOLOGIK, GEOFIZIK VA GIDROGEOLOGIK XIZMAT KO'RSATISH.

EOTEO' usulining amaldagi ob'ektlarida geologik, geofizik va gidrogeologik ishlarning bajarilishi, konlarning texnik jixatdan to'g'ri va iqtisodiy samarali ravishda ekspluatatsiya qilishini ta'minlash, Shuningdek, ishlab chiqarishni ko'paytirish va yer qa'ridagi yo'qotishlarni kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlarni qazib olish. Ular quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

1. Konlarni kuzatish va o'rganish natijasida S₂ konidagi zaxiralarni S₁ koniga o'tkazish hamda ularni o'rganib chiqish;
2. Konlardagi geologik izlanishlarning davomi sifatida gidrogeologik, geofizikaviy tadkikotlarni aytishimiz mumkin. Bundan tashqari minerallarning tahlili orqali olingan natijalar yordamida yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usulini yanada mukammallashtirish imkonи bor;
3. Konlarning geologo-gidrogeologik chegaralarini aniqlash hamda rudalarning tarkibini o'rganishda kuzatuvning o'rni beqiyos;
4. Geologiya, gidrogeologiya va geofizika usullaridan ish jarayonida foydalanish;
5. Suv xavzalarini qo'riqlash va ularni ifloslanmasligini ta'minlash;
6. Asosiy quduqlardagi texnologik kuzatuvlar va burg'ulash ishlarini tashkillashtirish.
7. Geologik, gidrogeologik, giotexnologik, geofizika ishlarini hamda burg'ulash ishlarini tashkillashtirish va ishlab chiqarish jarayoniga tegishli bo'lgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish.

Bloklarni geologik va gidrogeologik usullardan foydalanishga tayyorlash jarayonida sement, filtr va boshqa unsurlarning quduqlardagi joylarini aniqlab geologik reja bilan taqqoslanadi hamda foydalanishga to‘g‘ri kelish kelmasligi aniqlanadi. Konlardagi minerallarning ishqorlash jarayonida va bloklarga ishlov berilish jarayonida qo‘yiladigan va so‘rib olinadigan suyuqliklar kuchli kuzatuv ostiga olinadi. Bundan tashqari geologik, hidrogeologik, geoteknologik va geofizikaviy jarayonlar sinchikovlik bilan kuzatiladi. Bundan ko‘zlangan maqsad yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish jarayonini kuzatuvga olish hamda qazib olingan minerallarning to‘liq hisobini olishdir.

Geologik ishlari

Faoliyat olib borilayotgan konlarda yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulidan foydalanib olib borilgan geologik ishlari xuddi kuzatish ishlari olib borilayotgan konlardagi kabi o‘zaro bir-biriga boglik bo‘lgan uchta bosqichdan iborat:

1. Xujjatlashtirish
2. Sinovlar o‘tkazish
3. Zaxiralarni aniq hisobga olish

Gidrogen konlardagi uran minerallari hamda geologik xujjatlar va sinovlarning ob’ekti bo‘lib har xil quduqlardan olingan Namuna minerali xizmat qiladi. Burg‘ulangan quduqlar orasidagi masofa taxminan chandalab olinadi yoki o‘xhash joylardagi taxminiyl o‘lchamlar olinadi.

Konlardan tahlil uchun olingan moddalarga asoslangan holda qazilma ishlarining keyingi bosqichlari belgilab olinadi;

1. Barcha namuna moddasiga ega bo‘lgan nazoratdagi quduqlar ruda chegaralari dosh bera oladigan tezlik bilan burg‘ulanadi;
2. Agar quduqlardagi tirkaklar soni 5–10 tagacha bo‘lsa namuna butunlay yigib olinadi va bu geologik yoriq hamda kesimlarni o‘rganib chiqishga yordam beradi;
3. Agar burg‘ulash ishlari faqatgina ruda chegaralarini o‘rganish uchun olib borilsa, unda namuna yordamida o‘tkaziladigan burg‘ulash ishlarini faqatgina ruda qatlamlarining ustki qismidagini o‘tkazishimiz mumkin;
4. Texnologik kuzatuv quduqlar uchun quduqlar namuna yordamisiz qaziladi. Biroq ba’zi hollarda, ma’dan konlarining morfologiysi, mineralizatsiyasining parametrlari, radioaktiv muvozanat koeffitsienti va boshqalar haqida aniqroq ma’lumot olish uchun bo‘rg‘ulash namuna (namuna) olish bilan amalga oshiriladi. Bunday quduqlarning soni va joylashuvni loyiha ishlarida aniqlanadi.

Namuna tahlil qilib berishi lozim bo‘lgan ba’zi moddalar loyiha tomonidan belgilanadi. Yangi rudalar turlarini aniqlash uchun ular sinov uchun yangi texnologik sxemalar qazib olish yoki namunalarni yangi usullarini eksperimental asoslash uchun sinovdan o‘tkaziladi. Namunalarning barcha turlari, namunalarni qayta ishslash va ularni hujjatlashtirish ushbu konlar yoki shunga o‘xshash konlar guruhiiga asosan tuzilgan ko‘rsatmalarga muvofiq amalga oshiriladi.

Tadqiqot va ekspluatatsion quduqlari hujjatlari xususiyati yuqorida bat afsil bayon etilgan. Qo‘yidagi fikrlarni yana bir bor ta’kidlash joiz.

1. Suvli bo‘shashgan cho‘kindilarda quduqlarni burg‘ulashda mahsuldor gorizont bo‘ylab namunani to‘liq olish qiyin, Shuning uchun vertikal ulashda har doim ham xato mavjud. Shuning uchun namunalarning haqiqiy holatini va uning uchun tanlab olingan turli xil namunalarni tuzatish quduqlarni kompleks karotaj (gamma karotaj, elektrokarotaj) va gamma-o‘lchash ma’lumotlariga asoslanadi. Ularni namuna tavsifi bilan taqqoslash geofizik parametrlari bo‘yicha farq qiluvchi anomal intervallarni va markirovka intervallarini holatini aniqlash imkonini beradi, bu esa o‘z navbatida quduq bo‘ylab kompozit litologik qayta qurish uchun imkon beradi.

2. Gidrogen turidagi ko‘plab konlar uchun hujjatlashtirish va namuna olish usullarining o‘ziga xos xususiyati rudalarning radioaktiv muvozanat koeffitsientining (30-40% dan bir necha ming foizgacha) juda keng doiradagi o‘zgarishiga bog‘liq bo‘lib, bu kislorod tarkibli suvli qatlamli uranni jadal ishqorlash va qayta taqsimlanishiga bog‘liq. Natijada radiy mavjudligi tufayli yuqori gamma-anomaliyalariga qaramasdan, qatlamli oksidlanish zonalarida uran yo‘q. Shu munosabat bilan, EOTEO’ ishi amaliyotida suvli temir oksidi mavjudligi sababli tez-tez sariq-jigar ranga ega oksidlangan jinslarning ajralishi alohida ahamiyatga ega.

Uranga nisbatan katta muvozanat siljishi bilan ajralib turadigan rudalar mavjudligi va shuning uchun atrofdagi jinslardan gamma faolligidan ozgina fapq qiladigan qoplovchi jinslar mavjud bo‘lsa, ular tarkibidagi konlarning aniqlanishi bilan birga o‘tiladigan bunday rudalarni olidin olish uchun rudali gorizont qirqimi bo‘ylab aniq litokimyoviy tekshirishlarni o‘tkazish kerak.

Texnologik va kuzatish quduqlari hujjatlari butunlay geofizik usullarga asoslangan. Burg‘ulash namuna olish bilan amalga oshirilganda, hujjat va namuna olish razvedka quduqlari singari amalga oshiriladi.

Tekshirish quduqlarini hujjatlashtirish, bu faqat kichik hajmda blokda uranni qisman olib tashlash va qayta taqsimlash hisobiga geofizik usullari ma’lumotlari asosida, shuningdek nordon minerallashgan eritmalar ta’siri natijasida bo‘shliq suvlarining va jinslarning fizik xususiyatlarini keskin o‘zgarishi tufayli bo‘lishi mumkin.

Geofizik ishlari.

Ruda konlarida kuzatuv va qayta ishlash jarayoni olib borilayotganda geofizika usulidan foydalaniladi hamda litologik bo‘laklash uchun qo‘llaniladi va uning yordamida rudalar joylashgan hudud hamda ularning sifati aniqlanadi. Shuning bilan bir qatorda quduqlarning texnik holati nazorat qilib turiladi. Standart karotajlarning geofizikaviy usulda ishlatilish (GS, KS, PS) geologik kuzatuv va texnologik quduqlarda ishlatilishi yuqorida aytib o‘tilgan edi. Ularni kuzatish natijasida olingan ma’lumotlarni namunalar yanada to‘liq ravishda to‘ldirib boradi hamda chegaralardagi ishlab chiqarish jarayoni orasidagi farqlarni aniqlash imkonini yaratadi.

Kelgusidagi elektr kuzatuv suyuqliklarning harakatini kuzatishning asosi hisoblanadi. Yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usulida ruda qatlamlarini gamma–katraj usuli orqali aniqlash masalasiga keladigan bo‘lsak bu murakkab radiologik hudud sanaladi hamda uyerdagи tekisliklarda asosan tuproqning ishqorlash jarayoni ko‘p kuzatiladi va gamma faoliyatining pasayishiga olib keladi. Shuning uchun bloklardan foydalanishdan oldin tekislik hududlaridagi namunalar bir necha bor tahlil qilinadi va o‘zaro taqqoslanib yakuniy xulosaga kelinadi. Bundan tashqari shuni unutmaslik lozim gamma–karotaj bizga uran minerallarini ajratib olish jarayonida ular harakati haqida xech qanday ma’lumot berolmasligi aniqlansa unda biz to‘g‘ridan to‘g‘ri yanada kengroq usuldan foydalanishga o‘tamiz, ammo ular darhol qo‘llanilmasligining bir necha sabablari ham bor. Agar gamma–karotaj usulini GEFEST uskunasi bilan amalga oshiradigan bo‘lsak ishlab chiqarish miqdori past va kuzatuv olib borish imkonsiz bo‘lib qoladi.

(KNR) usuli uchun esa gamma–karotajlarda qo‘llaniladigan uskuna va apparatlar xali uylab topilmagan.

Harakatdagi sulfat kislotasini kuzatish induksion karotajlar yordamida olib boriladi, shuning bilan bir qatorda, ulardan poliotelenli qobiq sifatida ham foydalanishning iloji bor, bunda u tekislikdagi suvlarning minerallashuviga yordam beradi. kuzatuv jarayonida qo‘yilgan va so‘rib olingan suvlar tarkibi o‘rganilib ruda va bloklardagi o‘zgarishlar kuzatib boriladi.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish jarayonida qo‘llaniladigan geofizik usullar to‘plami rivojlanishi davom etmoqda. Yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish jarayonini o‘rganishda geofizik usullardan foydalanish kichik ko‘lamdagi apparatlarning ishlab chiqarish jarayonini nazoratda qilib turish imkonini yaratadi. Korxonalarni yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish jarayonida ishlatiladigan apparatlari bilan ta’milanishi tog‘ jinslari tarkibidagi ko‘pgina minerallarni ajratib olishda qo‘llaniladi hamda undan katta foya olinadi.

Gidrogeologik ishlar

Konlarga ishlov berish hamda bloklardan yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish jarayoni usuliorqali foydalanish ko'p jihatdan gidrogeologik jarayonning to'liqligi va sifatiga bog'liq. Bu turdag'i amallarning yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish maydonlarida bajarilishidan ko'zlangan asosiy maqsad quduqlarning texnik va texnologik holatini nazorat qilishi hamda gidrotexnologik jarayon natijalarini tahlil qilgan holda atrof muhitiga zarar etkazmasligini ta'minlash.

Gidrogelogik ishlarning tarkibi va hajmi konlarning geologo-gidrogeologik xususiyatlariga, kon yoki uchastkaga, shuningdek ularni qazib olishni turli bosqichlariga qarab o'zgarishi mumkin.

Gidrogeologik jarayonlar bloklarni foydalanishga tayyorlash jarayonida hamda qolgan bosqichlarda ham qo'llanilishi mumkin. Ekspluatatsion bloklarni EOTEQ'ga tayyorlash davrida qo'yidagi gidrogeologik ishlar bajariladi: 1) Quduqlarni burg'ulash jarayonidan so'ng o'zlashtirib olish; 2) Suyuqliklarni Yuborishga va qaytib yigib olishga hamda ko'tarib turishga mo'ljallangan qurilmalarni sinab ko'rish; 3) Tekislikda joylashgan suvlarning tahlili.

1) Quduqlarni o'zlashtirish eng muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu jarayonda filtr va quduqlar gil qatlamlaridan hamda tuproqlardan tozalanadi. O'zlashtirishning o'z vaqtida va to'g'ri olib borilishi quduqlarni uzoq vaqt xizmat qilishini ta'minlaydi.

Filtrlar tarkibi hamda ishlab chiqarilayotgan jinslarning mustahkamligi ularni qazib olish jarayoni, filtr turi hamda quduqlarning tuzilishiga qarab ularni o'zlashtirilishi qo'yidagi usullardan biri orqali amalga oshiriladi.

a) gidrostatik bosimning pasayishi, tekislikdagi bosimning ortishi asosan faoliyat olib borilayotgan quduq atrofida kuzatiladi hamda ularning navbat almashinishi.

b) to'g'ri va tekis yuvishning quduqlardagi filtrlangan hududlariga gidravlik ta'siri

v) PAV eritmalari va kislotalar bilan yuvilgan quduqlarning fizikaviy va kimyoviy holati.

Quduqlarni o'zlashtirishga qaratilgan chora tadbirlar trubalar kerakli joyga sementlanganidan so'ng boshlanadi. Yuvish jarayoni esa quduq ichidan chiqayotgan suv tiniq holga kelmaguncha (0,1 g/l dan ko'p bo'limgan) davom ettiriladi va shundan so'ng undan foydalanishga ruxsat beriladi. Quduqlarni yuvish jarayoni tuproqli hududlarda kamida bir sutka davom etadi. Agar shu vaqt ichida kuzlangan natijaga erishilmasa unda boshqa yo'llardan foydalaniladi.

2) Suyuqliklarni ko'tarib turadigan qurilmalar sinovi quduqlarga o'rnatiladigan barcha uskunalar o'rnatilib bo'lingach amalga oshiriladi hamda

ularga suyuqlik miqdorini nazorat qilib turuvchi qurilmalar o‘rnataladi. Albatta to‘liq tushirilishidan oldin unga suyuqlik quyiladi va so‘ribolinadi bundan kuzlangan maqsad suyuqliklarni ko‘taradigan qurilmalarning qay miqdorda ularni ko‘tara bilishi.

Suyuqlik Yuborishi sinovlari 2-3 smena davomida baland va past bosim ostida 5-7 sutka davomida olib boriladi hamda har 3 soatda sarflangan suyuqlik miqdori o‘lchab boriladi.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulidan foydalanilayotgan maydonlarda suyuqliklarni ko‘taruvchi sifatida elektron nasoslar markaziga joylashtirilgan yerliflardan foydalaniladi. Erliftlarning tuzilishi va nasos turi loyiha tomonidan belgilanadi.

Quduq diametrining 100-140 mm bo‘lgan hollarda erliftlarning bir qatorligi qo‘llaniladi (unda trubalarning bir chiziqka tyerilgan holatda bo‘ladi) diametri kattaroq bo‘lgan quduqlarda esa Boshqa turdagи erliftlar qo‘llaniladi (bir-ikki yardli aylanali ikki yardli va boshqalar) qo‘llaniladi.

Erlift ishining samaradorligi suv tufayli ko‘tariladi egallagan yuzaga bog‘liq aralashmaning joylashgan chuqurligiga hamda dinamik o‘rni va suyuqliknинг ko‘tarilish balandligiga ham muhim ahamiyatga ega. Suv ko‘targichlar kesimlarning bo‘shliqlari diametri har xil o‘lchovlar havo yetkazib beruvchi kalonnasi va erliftlarning aylana tizimi yordamida aniqlanadi.

Erlift qorishtirgichlarining balandligi suyuqliknинг ko‘tarilish balandligiga bog‘liq (suv qo‘yish joyidan uning dinamigi balandligigacha).

$$H=kh,$$

bu yerda

H-qorishtirgich o‘rnataladigan chuqurlik,
k-botish koeffitsienti,
h-suyuqliknинг ko‘tarilish balandligi.

Erlift faoliyati $k=2,0 \div 2,5$ holatida foydali desa bo‘ladi.

Quduqlarni elektronasoslar bilan jihozlanishi faqatgina so‘rib olinadigan aralashmada mexanik qismlar tarkibi $<2,0 \div 2,5$ ga tushganda ruxsat beriladi.

3. Sinov uchun olinadigan suvlar burg‘ulash vaqtida hamda keyinchalik quduqlardan foydalanish jarayonida ham olinishi mumkin. Yerostida tanlab eritmaga o‘tkazish jarayonida hamda bloklardan quduqlardan foydalanish davomida qo‘yidagi gidrogeologik kuzatuvlar va tajribalar olib boriladi.

- 1) texnologik quduqlarni va ularda o‘rnatalgan suyuqliknи ko‘taruvchi asboblar faoliyatini kuzatish;
- 2) yer osti suvlar bosimini kuzatish;
- 3) quduqlarni tuproqqacha o‘lchash;
- 4) so‘rib olingan suyuqliknи mexanik moddalarga tahlil qilish;

- 5) so‘rib olingan suyuqlikni uran va pH moddalariga tahlil qilish;
- 6) so‘rib olingan suyuqlikni uran bilan birga uchraydigan moddalarga tahlil qilish;
- 7) filtrlash yo‘li orqali tajribalar o‘tkazish;
- 8) quduqlarda ta’mirlash ishlarin olib borish;
- 9) gidrogeologik kuzatuvlar va suyuqliklardan olingan natijalarning tahlili.

Ushbu ishlar, EOTEQ’ uchastkalarining ekspluatatsion davrida uran qazib olish (so‘rib olinadigan aralashma miqdori va sifati hisobga olingan holda) va qazib olishning o‘ziga xos moddiy xarajatlari (Yuboriladigan eritma tarkibi va miqdorini hisobga olgan holda) nedrda gidrotexnologik jarayonning oqimini intensivligini va shartlarini nazorat qilish, yuboruvchi va so‘rib oluvchi quduqlarni texnik holatini nazorat qilish uchun bajariladi.

EOTEQ’ning ekspluatatsion bloklarini zakisleniya va qazib olish davrida gidrogeologik va gidrogeokimyoiy kuzatishlarning tarkibi va chastotasi, ma’lum bir blokning geologik va gidrogeologik sharoitlariga, unda uran zaxirasining taqsimlanish xarakteriga, texnologik quduqlar joylashishiga, shuningdek EOTEQ’ jarayoni qaysi bosqichda ekanligiga zakisleniya, aktiv ishqorlash yoki yuvishga bog‘liq bo‘ladi.

1. Texnologik quduqlar ishini kuzatish so‘rib olinadigan (konditsion va nekonditsion) va yuboriladigan eritma miqdorini (hajmini) hisobga olish uchun hamda quduqlarni ekspluatatsion-texnik holatini nazorat qilish uchun amalga oshiriladi. Har bir texnologik quduqning ishlash vaqtini va debitini o‘lchash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Eritmani ko‘tarish uskunalarini ishlarining vizual kuzatuvlari EOTEQ’ opyeratorlari tomonidan har oyda amalga oshiriladi. Erlift qurilmasi bilan jihozlangan so‘rib olish quduqlarida siqilgan havoning solishtirma sarfini nazorat qilishi bilan amalga oshiriladi.

2. EOTEQ’ uchastkalarida yer osti suvlarining darajasini kuzatish gidrogeologik ishlarning eng muhim ko‘rinishlaridan biri hisoblanadi. Ularga bizga texnologik eritmalarini yo‘li va filtratsion tezligi, ishchi eritmani yo‘qotilishi va ularning qatlam suvlari bilan qo‘silishi, uchastkada gidrodinamik rejimning barqarorlik darjasini, kolmatatsiya tufayli filtr qarshiligining oshishi, aralashmani ko‘tarish uskunalarini solishtirma unumdorligini pasayishi va boshqalar haqida bahslashish imkonini beradi.

Truba orti p’ezometrlari bilan jihozlangan erliftli so‘rish quduqlarida dinamik darajani chuqurligi o‘lchash gidrogeologik ruletkalar yoki elektron o‘lchagichlar yordamida amalga oshiriladi. Amaldagi uchastkalarning p’ezometrik yuzasi shakli haqida so‘z ketganda, kuzatish, yuborish va ishsiz holatdagi

quduqlarning darajasi chuqurligini bir vaqtning o‘zida o‘lchash amalga oshirilishi shart. Bundan tashqari, uchastkalarda shakllangan depression voronkani xarakterlash uchun qazib olish uchastkasi to‘xtaydi va to‘xtaganidan keyin 1,5-2 soat o‘tgach barcha kuzatish va texnologik quduqlardagi daraja chuqurligi o‘lchanishi kerak.

3. Filtrni ochiqlik darajasini aniqlash maqsadida quduqlar chuqurligi o‘lchash gidrogeologik ruletkalar yordamida Yuborish va so‘rib olish quduqlarida vaqt vaqt amalga oshiriladi. Bundan tashqari, quduqlar chuqurligi o‘lchash ta’mirlash-tiklash ishlarni bajarishdan oldin va tugagandan keyin bajariladi.

4. Mexanik aralashmalar (qattiq jinslar) tarkibini aniqlash uchun mahsuldor aralashmalarni sinovdan o‘tkazish nasos bilan jihozzangan har bir so‘rib olish qudug‘i uchun amalga oshiriladi. Agar qattiq jinslar tarkibi nasos uchun standartdan ortiq bo‘lsa, quduq darhol to‘xtatiladi, nasos olinadi va profilaktik ishlari olib boriladi. Ushbu holatda nasosni quduqqa tushirish faqat qumlanish sabalari bartaraf etish bo‘yicha chora-tadbirlar o‘tkazilgandan so‘ng amalga oshiriladi.

5. pH va uran uchun mahsuldor aralashmaning sinovi ma’danli jinslarning zakisleniya darajasini baholash, ishchi eritmalarining bloklar chegarasidan tashqariga tarqalishi va eritilgan uranni hisobga olish maqsadida amalga oshiriladi. EOTEQ’ jarayonining turli bosqichlarida namuna olish davriyligi farq qiladi.

6. EOTEQ’ jarayonini baholash uchun uran bilan boyitilgan kimyoviy komponentlarda mahsuldor aralashma sinovdan o‘tkaziladi. Eritmada bikarbonat ionlari va temir oksidi va zakisining mavjudligi hozirgi kunda bu jihatdan eng maqbuldirdi.

$\text{NC}0_3$ bo‘yicha namunalar so‘rish qudug‘idan (ya’ni pH qiymati qatlamlili qiymatdan 4,5-5,0 gacha), Shuningdek har bir kuzatish qudug‘idan zakisleniya bosqichida olinadi. Bikarbonat effekt deb atalmish sababli eritmada uran konsentratsiyasining vaqtinchalik o‘sish bosqichini nazorat qilish uchun amalga oshiriladi.

Fe^{2+} va Fe^{3+} ni aniqlash uchun namuna olish ham so‘rish va chegara ichidagi kuzatish quduqlaridan amalga oshiriladi.

Ishchi va mahsuldor eritmalaridagi zakisleniya bosqichida Fe^{2+} va Fe^{3+} ionlarining paydo bo‘lishi mahsuldor qatlamda faol ishqorlanish zonasini shakllanishini boshlanishi haqida xabar beradi, $S_{\text{Fe}}^{3+}/(S_{\text{Fe}}^{2+} + S_{\text{Fe}}^{3+})$ nisbatda dinamikaning o‘zgarishi vaqtida esa (S -eritmada ionlar konsentratsiyasi) ekspluatatsion blokda oksidlanish-tiklanish holati haqida ma’lumot beradi. Shunday qilib eritmada uran miqdorining kamayishida ushbu nisbatning barqaror oshishi ishchi eritmaning filtrlanish hududida uranning yo‘qligini

yoki bu hududda ishqorlanish zonasida oksidlanish-tiklanish potensialining etishmasligi sabab eruvchan uran shakllarining yo‘qligi haqida dalillar sifatida qarash mumkin. Bunday hollarda jarayonni jadallashtirish uchun zarur chora-tadbirlar ko‘rish kerak (ishchi eritmani filtrlanish yo‘llarini o‘zgartirish, eritmaga oksidlarni qo‘shish va h.k.).

7. Tajribaviy filtratsion ishlar texnologik eritmalarini qayta ishslash natijasida uning o‘zgarishlariga bog‘liq ravishda mahsuldor qatlam jinslarining suv o‘tkazuvchanligini tavsiflovchi aniqlash uchun vaqt vaqt bilan ekspluatatsion bloklarda amalga oshiriladi. EOTEQ’ uchastkalarini ekspluatatsiya jarayonida amalga oshiriladigan tajribaviy filtratsion ishlarning asosiy ko‘rinishini ularga yaqin bir-ikki kuzatish quduqlarida suv darajasining tiklanishini kuzatish tashkil qiladi. Ba’zida boshqa tajribaviy filtratsion tadqiqotlar amalga oshirilishi mumkin: bir yoki birgalikdagi eksperimental so‘rish, ekspress quyish va boshqalar. Ushbu ishlarni bajarilishini metodik usullari, ularning natijalarini qayta ishslash va filtratsion parametrlarni hisoblash maxsus adabiyotlarda keng yoritilgan.

8. Ta’mirlash-tiklash ishlari (TTI) qatlamning filtr va filtr oldi zonalarining kolmatatsiyasi natijasida kamaygan texnologik quduqlar unumdoorligini tiklash uchun bajariladi.

Polimer materiallaridan tayyorlangan quvurlar bilan qoplangan quduqlarda TTIning asosiy ko‘rinishlarini proqachka, shlang orqali yuvish va fizik-kimyoviy qayta ishslash tashkil etadi. Burg‘ulash vositasi orqali yuvish, o‘zi harakatlanadigan burg‘ulash uskunasi bilan tozalash va boshqa ishlar quduqqa proqachka va fizik-kimyoviy ta’sirlar ijobiy natija ko‘rsatmagan hollarda ruxsat etiladi. Proqachka, yuvish va porshenli usullar quduqlarni o‘zlashtirish bilan bir xil.

9. Gidrogeologik kuzatishlar va eritmalarini sinovdan o‘tkazish natijalarini qayta ishslash sistematik ravishda olib boriladi. Kuzatuv va namunalar olish jarayonida olingan barcha ma’lumotlar tegishli hujjatlarda qayd etiladi. Eritmani Yuborish va so‘rsh hajmi bo‘yicha, shuningdek so‘rilgan aralashmalarda uran va Yuboruvchilarda kislota konsentratsiyasi bo‘yicha yakuniy ma’lumotlarga asoslangan holda bloklarda metallni qazib olish va ularga ishqorlovchi reagentlarning qabul qilinishi bo‘yicha opyerativ hisoblar olib boriladi. Ushbu hisobga ko‘ra, Yuboriladigan eritmalar hajmining muvozanatini nazorat qilish uchun joriy nazorat amalga oshiriladi.

Eritma hajmi, metallni qazib olish va reagent sarfi, mahsuldor aralashmada uranning o‘rtacha konsentratsiyasi va ushbu eritmadiagi kislota bo‘yicha jurnaldagi yakuniy ma’lumotlar EOTEQ’ natijalarini tahlil qilish va operatsion hisobotlarni tuzish uchun xizmat qiladi.

Yuqorida keltirilgan tahliliy hujjatlarga qo‘shimcha ravishda, EOTEQ’ uchastkalarida EOTEQ’ jarayonini olib borish uchun sharoitlarini har kungi tahlil

qilish imkonini beradigan grafikli gidrogeologik hujjatlar yuritiladi. EOTEO' uchastkada asosiy grafikli hujjatlar qo'yidagilar

1. blokdagi texnologik eritmalarining asosiy xarakteristikalarini o'zgartirishning xronologik rejasi;
2. ish olib boriladigan uchastkani yoki uning qismini p'ezometrik sxemasi;
3. ish olib boriladigan yoki uning qismini p'ezometrik sirtining (turg'un diprisson voronka) sxemasi
4. uchastkaning yoki uning qismini pH izo chiziqlarida zakisleniya sxemasi;
5. bloklar va uchastkalarda texnologik quduqlarning ochiqlik rejimi

V

YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O'TKAZISH JARAYONINING FIZIK-KIMYOVIY ASOSLARI

1. Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish jarayonining umumiy xarakteristikasi

Uran rudalarini ishqorlashning bosh maqsadi to'liq va mahsuldor aralashmaga o'tkazishdir. Ishqorlash rudani yotish joyida uranni ajratib olishda asosiy opyeratsiya hisoblanadi, chunki u tayyor mahsulot narxini va miqdorini aniqlaydi. [35, 35, 122]. Uran tarkibli rudalar va minerallarning ko'p xilligiga qaramasdan ishqoriy metallarning karbonat tuzli yoki kislotali suvli eritmasidan foydalaniladi. EOTEO'da eritmalar qo'yidagi talablar qo'yiladi.

- 1) uranni eritma tarkibiga to'liq o'tishini ta'minlash;
- 2) reagent narxining pastligi va uning xalq xo'jaligidagi mavjudligi;
- 3) ishqorlash jarayonida samadorlik;
- 4) qo'llaniladigan apparatlar va materiallarning korroziyaga mustahkamligini ta'minlash;
- 5) uran mineralarini eritmaga o'tkazish uchun "yumshoq" sharoitni yaratish (qizishni yo'qligi, qo'shimcha maydalash, aralashtirish va boshqalar, chunki bu opyeratsiyalar odatdagি gidrometallurgik jarayonlardan farqli o'laroq EOTEO'da foydalanish mumkin emas);
- 6) ishqorlanadigan ruda massasining g'ovaklarini va bo'shliqlarini kolmatatsiyaga olib keladigan sharoitlar istisno.

EOTEO' da eritmani tanlash uranli minerallashuvining, ruda qatlamlarining moddaviy tarkibining va ularni qoplovchi tog' jinslari shakli bog'liq holda amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, uran rudalarini gidrometallurgik qayta ishlash uran minerallarining kimyoviy tabiatiga va ularning ishqorlashdagi holatiga bog'liq holda 5 ta asosiy mineralogik sinfga bo'linadi.

1) tarkibida endogen minerallari (nasturan,uranotorit)lar mavjud bo'lgan To'rt valentli uran minerallariga ega bo'lgan rudalar;

2) tarkibida ekzogen minerallari (koffinit,karnotin, otenit,qora kumush) minerallari mavjud bo'lgan olti valentli uran minerallariga ega rudalar;

3) erishi qiyin minerallarga ega bo'lgan uran minerallari (davidit, brannerit);

4) rudalar tarkibida uchraydigan uran va uglyerod aralashmalari;

5) fosfat va boshqa turdag'i rudalar.

Ular orasidan yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli yordamida qayta ishlash uchun eng ma'quli bu birinchi, ikkita sinfidan foydalanish ma'kul. Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usulini qo'llab uran minerallarini ajratib olishda eng noqulaylari bu erishi qiyin bo'lgan minerallardir.

Birinchi va ikkinchi sinf rudalari kislota hamda karbonat usullari yordamida parchalanadi, parchalanish davrida ular karbonatli va karbonatsiz rudalarga ajratiladi.

Rudalarni kislotalar yordamida ishqorlash uranni yuqori darajada hamda ko'p miqdorda ajratib olish imkonini beradi. Biroq u ham ba'zi kamchiliklarga ega.

1) o'zining yuqori darajadagi parchalanish kobilyati tufayli u ruda tarkibida nafaqat uran balki qolgan barcha Boshqa minerallarni ham parchalaydi va shu tufayli ko'proq sarflanadi;

2) agar ruda tarkibida SO_2 2% li karbonat mavjud bo'lsa, uni qo'llab bo'lmaydi;

3) agar qazilma ishlari katta chuqurlikda olib borilsa, unda barcha quvurlar kimmat ham ashyolardan qurilmog'i lozim;

Karbonatli ishqorlash usulining yuqori qazib olish darajasi bilan ajralib turishi va avzalliklari hamda kamchiliklari

1) trubalarda harakatlanadigan suyuqliklarni iflonmasligi katta xarajat talab kilinmasligi;

2) karroziyaga karshi qurilmalar talab etilmaydi;

3) ruda va ma'danli jinslarda karbonat cheklovlari yo'q.

Karbonat usulining kamchiliklari.


1) yer osti suvlarini dastlabki filrlash bilan solishtirganda rudalarning va tog' jinslarining o'tkazuvchanligi yomonlashadi;

2) uranni ajratib olishni maqbul darajasiga erishish uchun oksidlovchi moddalarni majburiy ishlatish talayu etiladi.


Eng arzon eritmani sulfat kislotasi tashkil qiladi; boshqa ishqorlovchi uran reagentlarini (sulfat kislotasi narxining %) narxi qo‘yidagi ko‘rsatkichlarda xarakterlanadi (monogidrat yoki 100% li tuz asosida); H_2SO_4 —100, NNO_3 — 215, $NS1$ — 238, $NaHCO_3$ — 106, Na_aC0_3 — 118, NH_4HC0_3 —132, $(NH_4)_2C0_3$ — 300.

Yer qa’rida tanlab eritmaga o‘tkazish jarayoni kimyoviy reagent bilan o‘zaro ta’sir qilish natijasida uran minerallarini qattiq fazadan suyuq fazaga o‘tkazish imkonini beradi.

Kislotali tanlab eritishda oksidlangan uran minerallari uranil ionlari ko‘rinishida eritma tarkibiga o‘tadi



Uranil sulfati bilan bir qatorda, suyuq faza tarkibida kompleks uranil sulfatlari mavjud



Eritmada alohida sulfatlarning mavjudligi vodorod ionlari, sulfatlar, bisulfat, uran konsentratsiyasi aniqlanadigan murakkab muvozanatga bog‘liq. Sulfat kislotasining minimal konsentratsiyasi ishqorlash jarayonida erigan holatdagi uranil ionlarni saqlab turish sharti bilan aniqlanadi. Bu xona haroratida anionlar mavjud bo‘lganda sulfatli eritmadi olti valentli uranning pH cho‘kindilariga bog‘liq. Uranil gidrooksidining pH miqdori chegarasi 3.8-5.0, uranil fosfati 1.9-2.5, uranil arsenati 1.3-1.7 gacha (ular uran konsentratsiyasiga, haroratga, tabiatga va boshqa aralashmalarga bog‘liq) bo‘ladi.

Nasturan vua oksidlangan uran minerallarini tanlab eritmaga o‘tkazish uchun maqbul kislotalikni $pH=1.5-2.0$ tashkil qiladi.

Katta miqdorda kislota konsentratsiyasi uran minerallarining mustahkamligini va adsorbsion sig‘imi bilan belgilanadi. Odadta ishqorlash vaqtida kislota konsentratsiyasini oshirish uran minerallarining erish tezligini oshiradi va kimyoviy eritmalar bilan qatlamni to‘yinish davrini qisqartiradi hamda uni tog‘ jinslari bilan reaksiyaga kirishida sarfini oshiradi.

2. YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O‘TKAZISH TEXNOLOGIYASIDA OKSIDLOVCHI QAYTARUVCHI JARAYONLAR.

To‘rt valentli uran aralashmali sulfat kislota bilan juda sekinlik bilan eriydi va bu jarayonni tezlashtirish uchun oksidlarni qo‘shilishi talab qilinadi.




Uning o‘rniga kislorod, permanganat, vodorod perikisi, xlor va boshqalar. Sanoatda MnO₂ (pirolyuz), nitrat kislotasi (melonj), kislorod, vodorod perekislaridan foydalaniladi. [53, 55, 57, 108]

Bundan tashqari uran va mis rudalarini bakterial usul yordamida ham ishqorlash mumkin. Bu Fe³⁺ bakteriyalari ilk bor SSR, AKSH, Kanada, Yaponiya, Portugaliya va Avstraliyada qo‘llanilgan.

UO₂ minerallarining erishi va oksidlanish jarayonini ko‘rib chiqamiz. Bunda MnO₂ kislorod o‘rniga qo‘llaniladi hamda ularning tarkibida Fe³⁺ nitrat uchrab turadi.

Kisloroddan oksidlovchi sifatida foydalanish. Oksidlovchi sifatida oddiy kisloroddan foydalanishning sabablari uning qo‘llanilishi osonligi hamda arzonligidir.


Suvdagagi kislorodning oksidlanish darajasi potensial.




Uran Gidrometallurgiyasida keng qo‘llanilishiga karamay uni yer osti qazilma ishlarida oksidlanuvchi sifatida ishlatalish cheklangan. Shu bilan birga yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usulida kisloroddan oksidlanuvchi sifatida foydalanish xaligacha yo‘lga quyilmagan.

AQSHda suvli hududlarda uran mineralarini qazib olishda qo‘yidagi usul qo‘llaniladi [91]. Ruda bir necha joyilardan burg‘ulanadi hamda u yerdan yer ostidagi suvlar so‘rib olinib o‘rniga kislorod oksidlariga ega bo‘lgan suyuqliklar Yuboriladi va shundan so‘ng hammaga ma’lum yo‘l orqali rudalar tarkibidagi uran minerallari ajratib olinadi.


Sug‘orish, ma’danlar bilan yuvish shartlari eng maqbuldir, chunki reagent va uran uchun konsentratsiyali gradientlar maksimal; sug‘orishsiz turganida ular yomonlashadi va gradient nolga intiladi.

An’anviy gidrometallurgik jarayonda ishlatiladigan nozik maydalash, aralashtirish, qizitish kabi jadallashtiruvchi omillar EOTEO’ da zavodlarda istisno. Bu omillar yo‘qligi odatda ishqorlash jarayonining davomiyligi bilan kompensatsiya qilinadi.

Sun’iy o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan ruda massividan uranni eritmaga o‘tkazish kinetikasini aniqlovchi muhim parmetrini ruda monolitiga eritmani singish tezligi tashkil qiladi.

Ushbu o‘zgarishlar odatda rudaning moddiy tarkibi va eritma bilan o‘zaro ta’siriga bog‘liq. Ikkinci darajali kimyoviy birikmalarning g‘ovaklarda hosil bo‘lishi va cho‘kishi ajratib olish kinetikasini o‘zgartirishi mumkin.

Ayniqsa karbonat minerallarini saqlovchi rudalar noqulay hisoblanadi: ularni sulfat kislotasi bilan qazib olishda g‘ovaklar va yoriqlarni kolmatatsiya qiluvchi zaif o‘tkazuvchan gips hosil bo‘ladi. Selektiv eritmalardan foydalanish odatda kolmatatsiya hodisalariga olib keladi.

Eritmani ruda jismlari tarkibiga kirib borishi xarakteri bo‘yicha Sullivan tomonidan qo‘yidagi turlarga bo‘lingan.

1) doimiy har tomondan va bir vaqtning o‘zida eritma sizib kiradigan rudalar;

2) eritma boshida asosiy kanallar ya’ni qatlamlar tekisligi va yoriqlar bo‘yicha kirib borishi, keyin ulardan eng kichik g‘ovaklar va yoriqlar kiradi;

3) eritma yordamida rudalarga ishlov berishda ular vayron bo‘ladi.

Ruda monolitlarining g'ovakliligi odatda gillarning g'ovakliligiga nisbatan bir necha barobar past bo'ladi (toshli rudalarning samarador g'ovakliligi odatda 0,5-3,0%), ammo ruda jismarning g'ovagi va yoriqlari gillarnikiga nisbatan yuqoriroq.

Ruda massivi (ayniqsa karbonatsizligi) va aralashgan jinslar uncha yuqori bo'lмаган kislota sig'imiga ega.

Eritmaning ruda jismiga chuqur kirib borish tezligi elektr o'tkazuvchanligi o'lhash, rangli eritmalarni qo'llash orqali aniqlanadi. 5.7-rasmida sulfat kislota eritmasining rudaning granitporfirli jismiga (Protodyakonov shkalasi bo'yicha qattiqlik 10-15 va samarador g'ovaklilik ~1%) chuqur kirib borish harakat tezligining ruda namunasi yuzasi masofasigacha bog'liqligi ko'rsatilgan [19, 77].



Rasm 5.7. H_2SO_4 eritmasining granit-profir jinsiga chiqur kirib borish tezligining o'zgarishi

o'tish oxirgi holatda yuqori tezlik bilan amalga oshishini ko'rsatdi.

Tashqi ko'rinishga ko'ra, jinsdan uranni ajratib olishning bir qator xususiyatlariga bog'liq. Gil jinslaridan farqli o'laroq, tog' jinsi massivi suyuq faza bilan to'liq to'yingan emas, Shuning uchun ishqorlash jarayoni bir vaqtning o'zida jinslarni to'yintirishi kuzatiladi; tezligi bo'yicha bu jarayon molekulyar diffuziya tezligini ortga qoldiradi.

5.8. – rasmida tarkibida 46% uran bo'lgan tab'iy qoradan


Asosiy bosqichda (50 mm gacha) eritmani rudali monolitga o'tish darayoni to'g'ri chiziq tenglamasi bilan tavsiflanadi:

$$W_d = -A\sqrt{l} + B,$$

Bu yerda A va V – ushbu eritma bilan ishqorlash jarayonida tog' jinslarining filtratsion xususiyatlarini xarakterlovchi koeffitsient, l – namunaga singish chuqurligi.

Ruda jismiga eritmaning chuqur kirib borish tezligi uning jins yuzasidan yo'qolishi bilan kamayadi. Qumli gil va ruda monolitlariga eritmalarning aralashishi natijalarini taqqoslash bo'yicha tadqiqotlar

o'tish oxirgi holatda yuqori tezlik bilan amalga oshishini ko'rsatdi.



Rasm 5.8. Eritma bilan sug'orishda tab'iy ravishda boyitilgan qoradan uranni ajratib olish darajasining ishqorlash davomiyligiga bog'liqligi:

1 – 30 g/l H_2SO_4 ; 2 – 5 g/l $Me(HCO_3)_2$

(o'lchami -10 dan +5 mm gacha bo'lgan bo'laklar bilan) uranni eritmaga o'tkazish kinetikasi bog'liqligi ko'rsatilgan, koordinatalarda ε (ajratib olish darajasi) $- \sqrt{t}$ [77].

Boyitilgan uran qoldiqlarini ishqorlash jarayoni jarayonning boshidanoq bir bosqichda 70-80% uranni ajratib olish uchun amalga oshiriladi. Alovida ruda jismlarining qat'iy individual xususiyatlari tufayli jarayonning kinetikasi ekpyerimental tadqiqotlar asosida belgilanadi.

Taylor qatorini ifodolovchi ko'p sonli empirik tenglamalar bir nechta ishlarda [18, 19] o'ziga xos eksperimental ma'lumotlar uchun uranni miqdoriy ajratib olishni tavsiflash keltirilgan. Jarayon tezligi topilgan taxminiy ifodalar bilan ko'rsatiladi. Biroq, tenglamalrning paydo bo'lishi va ulardan foydalanish muhim qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Fik diffuziya qonunlarining alohida echimlarini diffuziya koeffitsientini hisoblashda qo'llash mumkin [137, 159]. Tab'iy sharoitlarda uranni gilli jinslardan ajratib olishdan farqli o'laroq, qatlamning bir yoki ikki tekisligidan chiqarib olish amalga oshirilsa uranni bo'lakli materiallardan eritmaga o'tkazish ko'p o'lchovli diffuzion jarayondir: alohida bo'lakning barcha qirralari (jinslarning birlashma qismlari bundan mustasno) orqali ajratib olish amalga oshiriladi. Qisman ishqorlash zonasi asta-sekin alohida bo'laklarning barcha tomonidan uning markaziga o'tadi. Har bir alohida ruda bo'lagi hajmi bo'yicha teng taqsimlanmagan uran minerali tab'iy monolitni ifodalaydi. Shu bilan birga, bo'lakdan uranni eritmaga o'tkazishda eritilgan metallni namuna ichiga (xuddi gillardan diffuzion ajratib olish kabi) qisman aralashishi sababli miqdorni teng taqsimlanishi sodir bo'ladi. Bunday hol ko'p hollarda ishqorlash jarayonining ta'rifini sezilarli vaqt kesimida ($\varepsilon = 60-70\%$ gacha) ko'rsatkichli funksiya ko'rinishida olish mumkin

$$Q = k\tau^\mu,$$

bu yerda Q – ajratib olingan metall miqdor, g; μ va k – empirik aniqlangan koeffitsientlar; τ – vaqt, sut.

Uranning diffuziya koeffitsienti qiymatlari eritmani singib borish tezligiga mos keladi.

Bloklarda eritmaga o'tkazishda ruda qatlami turli o'lchamdagagi bo'laklardan iborat: kichik millimetrdan 150-500 mm gacha. Ulardan uranni ajratib olish turli vaqtda sodir bo'ladi. Shuning uchun, ajratib olingan uran miqdori jarayonning davomiyligiga bog'liqligini matematik izohlosh murakkablashadi. Uranni bloklardan eritmaga o'tkazishning dastlabki bosqichi ma'dan o'lchamining barcha sinflaridan metallni ajratib olish vaqtini bo'yicha mos keladi. Eng kichik zarrchalardan uranni ajratib olish tugallangandan so'ng, ishqorlash jarayoni uranni boshqa katta bo'laklardan olib chiqish davomiyligi bilan aniqlanadi. Bloklarda

ishqorlashning bosqichma – bosqich xarakteri odatda tenglamada (5.8) koeffitsientning o‘zgaruvchan qiymatlarini olishga olib keladi. Ishqorlash jarayoni mexanizmi, albatta, o‘zgarmaydi.

Jarayonning tezligini xarakterlovchi miqdoriy parametrlarni joriy etish uranni muvoffaqiyatli ishqorlash uchun ruda bo‘laklarining optimal o‘lchamini hisoblash yo‘li bilan aniqlash imkonini beradi.

VI

YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O‘TKAZISH USULIDA URAN KONLARINI QAZIB OLİSH TİZİMLARI

1. YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O‘TKAZISH USULIDA QAZIB OLİSH TİZİMLARINING TASNIFI

Konchilik sanoatida ruda konlarini qazib olish tizimi deganda vaqtga bog‘liq holda tayyorlash va tozalash ishlarining to‘plamini ma’lum bir tartibda olib borish tuShuniladi [4].

Konchilik ishlarining biri konni qazib olishga tayyorlash uchun, ya’ni uni uchastkalarga, qavatlarga, bloklarga ajratish uchun xizmat qilsa, boshqasi yordamida esa ma’danni bevosita ajratib olish – tozalash ishlarini amalga oshiradi. Tozalash ishlari – nedrdan foydali qazilmani bevosita ajratib olish bo‘yicha texnologik opyeratsiyalar majmuasi. Bu texnologik jarayon rudani maydalash, yetkazib berish, tushirish va yo’qlashdan tashkil topgan.

Zamonaviy konlarda tozalash va tayyorlash ishlari bo‘yicha qiyin bo‘lgan kon ishlarini bajarish uchun turli xil kon mashinalari qo‘llaniladi. Kon joylashishining kon – geologik sharoitlarini yoki uning bir qismini to‘la hisobga olgan holda qazib olish tizimini to‘g‘ri tanlash va tozalash jarayoni mexanizatsiyasi asosan foydali qazilmani qazib olish samaradorligi aniqlaydi.

Ruda konlari o‘zining xilma-xilligi bilan ajralib turgani kabi, ularning ishlab chiqarish tizimi ham turlidir. N.I.Trushkov yer osti usulida qazib olishning asosiy tizimlarini 150 tasinigina hisoblab chiqqan.

Ruda konlarini qazib olish tizimlari hamda uning tasniflanishini murakkabligining farqli ravishda xilma-xilligi haqida tushuncha beruvchi sabablar

qatoridan ko‘proq mavjudlari bu – har bir yangi ruda konlarining yakka tartibdagи (individual)ligi va ishlab chiqarish tizimlarining doimiy takomillashishidir.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulining joriy qilinishi qazib olish tizimlariga qabul qilingan tasniflarning to‘ldirilishi zaruriyatini keltirib chiqaradi. O‘zining boshqa an’anaviy qazib olish tizimlaridan tub tubdan farq qilishi hamda uning so‘nggi yillardagi keng tarqalganligini hisobga olgan holda, uran konlarini Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulida qazib olish tizimlarini alohida tasniflash lozim.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli bilan uranni qazib olishning keng rivojlanganligi va to‘plangan amaliy tajriba bugungi kunda boshqa an’anviy qazib olish tizimlari bilan solishtirganda, bu usulning mavjud ajralib turuvchi xususiyatlarini alohida ta’kidlash hamda ularga ta’rif va tasnif berish imkonini beradi.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli bilan konlar (yoki uning bir qismi)ni qazib olish tizimi ochish va tayyorlash ishlari majmuasini vaqtga bog‘liq holda, ma’lum bir tartibda bajarish hamda metallni rudadan suyuqlikka o‘tkazish uchun boshqariladigan kimyoviy-texnologik jarayoniga bog‘liqligi tuShuniladi.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish tizimlari bir biridan quyidagilar bo‘yicha farq qiladi:

- konlar yoki ularning bir qismini ochish usuli bo‘yicha;
- aralashgan jins va ishqorlanadigan ruda massivlarini holati (kon geologik) bo‘yicha;
- maydalash usuli yoki ruda massivi fizik - kimyoviy xususiyatlarining o‘zgarishi bo‘yicha;
- ruda massividagi eritmaga olinayotgan suyuqliklar reagenti harakatining geotexnologik sxemasi (rejimi) bo‘yicha;
- qazib olish yo‘nalishi va tartibi bo‘yicha;
- yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli qayta ishslash bloklarining bosqichma – bosqichligi va hokazo boshqa texnologik xususiyatlar bo‘yicha;

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish tizimlarining muhim ajralib turuvchi jihatlari, konlar ochilishining prinsipial sxemasi, ruda konlari yoki ruda jismlarini eritmaga tayyorlash usullari (tabiiy yoki sun’iy ravishda yaratilgan sig‘im bilan) hamda suyuqliklar harakati sxemasi hisoblanadi [1—3, 16, 74—76, 85, 97, 120].

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli bilan ekspluatatsiyaga tayyorlanayotgan ruda jismlarini ochish sxemasini yuzadan quduqli, shaxtali va aralash turlarga bo‘lish mumkin, shaxtali sxemalarga lahmlarda ruda jismlarini ochish ham kiradi. Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli bilan konlarni qayta topshirishga tayyorlash jarayoni yuzadagi quduqlar sxemasi orqali burg‘ulash va aloqa yuzasiga quduqlarni bog‘lashdan tashqari yana uzellarni ishlovchi

(texnologik va nazorat o‘lchovchi) jihozlar va asboblar bilan ta’minlashni o‘z ichiga oladi. Ruda konlarini eritmaga tayyorlash o‘z ichiga yana ekspluatatsiya bloklarini oksidlashni hamda eritma harakati va yo‘nalishini chegaralovchi vaqtinchalik gidroparda tashkil etish va shu bilan birga rudani o‘z ichiga oluvchi jinslarni gidro yorish yordamida yoriqlar hosil qilishni ham oladi.

Ruda jismlarini shaxtalar yordamida ochishda va portlashlar yordamida tog’ massalarini yuzaki maydalashda ekspluatatsiya bloklarini tayyorlashning yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulini qo‘llashgacha ishlab chiqilgan ko‘plab ma’lum turlari ishlatiladi.

Suyuqliklar harakati shartlariga ko‘ra filtratsion, infiltratsion va pulsatsion-statik sxemalarga ajraladi [74-76]. Filtratsion sxema reagent eritmasining doimiy yoki davriy oqimi ishlatilishiga asoslanadi, bu oqimlar ruda massivlarning barcha yoriq va g‘ovaklarini so‘rib oluvchi va yuboruvchi quduqlarda bosim farqi hisobiga to‘ldiradi. Infiltratsion sxema suyuqlik reagentining infiltratsion oqimi ishlatilishiga asoslanadi, uning harakati esa ruda (maydalangan va to‘plangan ruda) jismlari orqali sug‘orish qurilmasidan drenajlarga gravitatsiya kuchi orqali o‘tadi. Pulsatsion-statik sxema esa uchastkalar va ruda jismlarining komlar yoki maxsus tayyorlangan ruda bilan to‘ldirilgan kameralarning eritilayotgan reagentlar bilan davriy to‘ldirilishida yotadi. Rudalarning boyitish texnologiyasida bu usul immyersion nomi bilan mashhur.

Barcha yuqorida sanab o‘tilgan yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulining turlari o‘zaro bog‘liqdir. Suyuqlik harakati sxemasini tanlash ruda jismlarining paydo bo‘lishi, hidrogeologik vaziyati, aralashgan jins xususiyatlari shartlari tahlili asosida amalga oshiriladi. O‘z o‘rnida, bu tanlov ruda jismlarini aniqlash sxemasi hamda ularning eritmaga tayyorlash usulini ham oldindan ko‘rsatib beradi. Demak, filtratsion sxema nisbatan teng o‘tkazuvchan rudalar va aralashgan jinslar bilan bir qatorda, bur turda bo‘lmagan qatlamlar rudalardan metallarini yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usuli orqali qazib olishda qo‘llaniladi. Bu sxema bo‘yicha (3.1. – jadval) birinchi geologik – texnologik guruhlarning qatlamlarini yuqori yer osti suv bosimi bilan sug‘oriladigan qatlamlarda tab’iiy o‘tkazuvchanlikka ega bo‘lgan ruda jismlari qazib olish uchun konlarni an’anaviy usuli qazib olishning barcha texnologik jarayonlari orqali sezilarli o‘zgaradi.

Bunday konlarda ochish, tayyorlash, kesish va tozalash ishlari o‘rniga yer yuzasidan ochish, ruda jismini qazib olishga tayyorlash hamda texnologik eritmalarini ruda jismining yotish joyiga tashish yo‘li vazifalarini bajaradigan texnologik quduqlar burg‘ilanadi. Rudani an’anaviy tozalash va uni yuqoriga chiqarishni rudani yotish joyida metallni tanlab eritmaga o‘tkazish va hosil bo‘lgan mahsuldon aralashmalarni qayta ishlash uskunalarigacha tashish bilan

almashtiriladi.

Infiltratsion sxema past filtratsion xususiyatiga ega bo‘lgan ikkinchi geologik-texnologik guruh konlarining rudalaridan uranni eritmaga o‘tkazish uchun qo‘llaniladi (3.1. jadval). O‘tkazuvchanlik bunday rudalarda ruda massivini burg‘ulash – portlatish ishlari yordamida maydalash bilan ruda jismini ishqorlashga dastlabki tayyorlash orqali ta’minlanadi. Bu sxema qoidaga ko‘ra konlardagi kambag‘al va balansldan tashqari ruda jismlaridan an’anaviy usulda ishlanayotgan va qazib olingan konlarda uranni ajratib olishda qo‘llaniladi. Bunday konlarning ochilishi, ko‘p holatlarda ekspluatatsion bloklarning ruda parchalanishi tayyorgarligi yer osti kon ishlari orqali qayta ishlanayotgan konlarda amalga oshirilayotgan jarayonlardan prinsipial farqga ega emas.

Infiltratsion ishqorlash sxemasi asosan, dastlabki parchalangan rudalardan uranni eritmaga keltirish hamda to‘p yoki chuqur ishqorlash orqali keng tarqala boshlagan. Bunday holda filtratsion ishqorlash sxemasidagi singari eritmarudadagi bo‘sqliqni to‘liq to‘ldirmaydi, faqatgina kapillyarning alohida devorlari va bo‘laklari sirtini yupqa plynka bilan yopadi va moylaydi. Faqat kamyerning quyi qismida filtrlangan zona tashkil topadi.

Agar rudani sug‘orish qatorlash davri bilan sug‘orish davrini navbat bilan davriy (siklli) amalga oshirsa, uranni infiltratsion ishqorlash jadalroq kechadi. Qatorlash davrida maydalangan ruda massasi va uranning qiyin eruvchi to‘rt valentli shaklidan tez eruvchi olti valentli shakliga o‘tishiga sabab bo‘luvchi oksidlanish jarayoni rivoji uchun qulay shart sharoit yaratiladi. Sug‘orish va qatorlash davri davomiyligi keng hadlarda o‘zgaradi (bir necha soatdan bir necha soatgacha) hamda rudaning moddaviy tarkibi va fizik xossalariiga bog‘liq bo‘ladi.

Infiltrli sxema ayniqsa, uranni to‘ldirilgan rudalarda ko‘p hajmdan ishqorlashda hamda kameraning ko‘rinarli balandligida (15-20 mdan ko‘proq) samaraliroq. Bu holatda eritma reagentining ruda bilan kontakti uchun kerakli vaqt ajratiladi va natijada mahsuldor aralashmada katta metall konsentratsiyasini ta’minlaydi.

Reagent eritmasini infiltrli sxema bo‘yicha eritilmalanayotgan sug‘oruvchi rudaga yetkazib berishni quyidagi usullar orqali amalga oshirish mumkin:

1) Kamerada o‘rnatilgan maxsus sug‘orish ko‘rsatmalarini yordamida eritmani tekis sachratish yo‘li bilan;

Jadval 6.1

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulida uran konlarini qazib olish tizmlari tasnifi

Sinf	Sinf nomi	Guruhi	Guruh nomi
I	Tabiiy o‘tkazuvchanlikka	1	Konlarning yuzaviy joylashuvi va filtrlifi rejimi orqali

	ega bo'lgan rudalardan metallni yer osti tanlab eritmaga o'tkazishlashning shaxtasiz tizimlari	2	Texnologik quduqlarning chiziqli joylashuvi va filtrli rejimi orqali
		3	Turli joylashuvga ega filtrlashni to'suvchi kishanlar hamda eritmalash rejimi orqali
II	Tabiiy tab'iy o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan rudalardan blokdagi metallni Yer osti tanlab eritmaga o'tkazishlashning SHaxtali tizimlari	1	Drenajli kon lahmlarining chiziqli va xalqaviy joylashuvi hamda filtratsion rejimi orqali
		2	Drenaj lahmlarining va sug'orish qurilmalarining turli joylashuvi va filtratsion rejimi orqali
		3	Filtratsion to'siqlar va pulsatsion – statik rejimi orqali
III	Maydalangan va to'ldirilgan rudalarga bloklarda metallni Yer osti tanlab eritmaga o'tkazishning SHaxtali tizimlari	1	Filtratsion, infiltratsion va pulsatsion-statik rejimlarli kameralarda rudani to'lirish orqali
		2	Infiltratsion va pulsatsion statik rejimli qayta ishlangan bloklari hamda inkirozga uchragan zonalarni eritmalash orqali
V	Yer osti tanlab eritmaga o'tkazishning shaxtali va shaxtasiz elementlarida kombinatsiyalashgan tizim	1	YUzadan quduqlar orqali eritmani Yuborish, ularni kon lahmlarida qabul qilish filtratsion rejim
		2	YUzadan quduqlar orqali rudani sug'orish, ularni kon lahmlarida qabul qilish va filtratsion rejim
		3	YUzadan quduqlar orqali bloklarga (kameralarga) eritmani etkazish, ularni kon lahmlarida qabul qilish va pulsatsion – statik rejim
V	Yer osti tanlab eritmaga o'tkazishning shaxtali va an'anaviy qazib olish tizimi elementlarida kombinatsiyalashgan tizim	1	Rudaning bur turdag'i texnologik navini qazib olish, qazib olish joyini tayyorlash va tab'iy o'tkazuvchanlikka ega bo'lgan yumshoq rejimdagi rudaning boshqa navini yer osti tanlab eritmaga o'tkazish
		2	Rudaning bur turdag'i texnologik navini qazib olish, maydalash, magazinlashtirish va yumshoq rejimdagi rudaning boshqa navini eritmaga o'tkazish
		3	Bir blok sharoitida rudani tayyorlashning turli usullari va kombinatsiyalashgan rejim orqali eritmaga o'tkazish

2) kameraning (blok) shiftida yoki ruda jismining yo'qorgi qismida burg'ulangan quduqli sug'orgichlar yordamida, agar ular yumshatishga muhtoj bo'lmasa;

3) burg'ulash – portlatish yoki gidravlik yorish usuli bilan sun'iy hosil qilingan yoriqlarga eritmani yuborish;

4) ag'darmaga (uyuumlab ishqorlashda) yoki magazinlashtirilgan ruda yuzasida hosil qilingan suv havzalari va xandaklarni eritma bilan to'ldirish.

Ko'rib chiqilgan rudadan uranni yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishning principial geotexnologik sxemalari turli konstruktiv jihozlanishga ega bo'lishi mumkin. U yoki bu sxemani qo'llashdan maqsad rudanining fizik – kimyoviy xossalariiga, ruda jismlari elementlari yotishi va boshqa faktorlarga bog'liq hamda u bu sxemalarning texnik-iqtisodiy taqqoslanishi asosida aniqlanishi lozim.

Yuqorida sanab o'tilgan yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishning farqli xususiyatlari va to'plangan tajribani o'rganish va keng joriy qilish, yangi tizimlarni tashkil etish va takomillashtirishda amaliyotda qo'llash uchun ularning sinf va guruhlarga bo'lingan klassifikatsiyasi amalga oshiriladi. Keltirilgan klassifikatsiyada yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishning barcha tizimlari konlarning ochilish sxemasi va uchastkalariga ko'ra 5 ta sinfga bo'lingan. Bundan tashqari ruda jismlari tayyorgarligi usullaridan tanlab eritmaga o'tkazish (tabiiy va sun'iy sig'imiga ko'ra).

Har bir tizimlar sinfida - kon va tog' ishlanmalari hamda tanlab eritmaga o'tkazish rejimida joylashuv sxemalariga bog'liq tizimlar guruhlari ajratib ko'rsatilgan.

2. TAB'IIY O'TKAZUVCHANLIKKA EGA BO'LGAN RUDADAN URANNI YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O'TKAZISHNING SHAXTASIZ (QUDUQLI) TIZIMLARI (I SINF)

So'nggi paytlarda girdogen tipli qatlamlı konlarlardagi rudalardan uranni yer ostida tanlab eritmaga o'tkazish usuli bilan qazib olish yanada ko'proq rivoj topmoqda. Qoidaga ko'ra, bu usul orqali qazib olish rivoji bosimlilarida qanday bo'lsa, bosimsizlaridan ham xuddi shunday yaxshi o'tkazuvchan jinsga ega bo'lgan suvli gorizont konlariga to'g'ri keladi.

Tanlab eritmaga o'tkazish usuli rivojlanishning birinchi bosqichida umumiyl holatda nisbatan uncha murakkab bo'limgan geologik va gidrogeologik shartlar (ruda konlarining sodda morfologiysi bilan taqqoslaganda ustun jihatli uncha chuqur bo'lamagan yotish (200 m gacha), ruda va turli ruda aralashmalarining unumdar geologik va texnologik xossalari (CO_2 bo'yicha karbonatlik 1,0-1,5%gacha, glinstligi 10-15% gacha, suv sig'imi $K_f > 1 \text{ m/kun}$ va boshqalar) bilan tavsiflangan konlarda qo'llaniladi. Bunday sharoitlar belgilangan hollarda ish

yo‘nalishini, xususan, texnologik quduqlar va ayniqsa quduqlarning to‘g‘ri burchakli va to‘g‘ri chiziqli joylashish sxemasini, filtrlarini konstruksiyalari soddalashtirilgan texnologik quduqlar konstruksiyasi va ularning filtrlarini chiziqli sxemalarini ishlab chiqilishi va qo‘llashni aniqlangan.

Hozirgi kunda tanlab eritmaga o‘tkazish usuli orqali mavjud ishlab turgan va ko‘rib chiqilgan qazib olishga mo‘ljallangan uran konlarida zaxiraning ko‘pgina qismi 500-600 metr chuqurlikda yotadi hamda quvvatning tez o‘zgarishi va konlar shakllari va eniga ko‘ra (20-50 metrgacha) ko‘zga ko‘rinmas o‘lchovi bo‘yicha, konlar va ruda konlarining murakkab shaklli maydonlari belgilanadi. Uncha baland bo‘lмаган о‘rtacha karbonatli ruda konlari qatorida ko‘pincha yuqori karbonatli karbonatlar aniqlanadi (2,5-3% gacha va ko‘proq) hamda bu uchastkalar rudaning texnologik xossalari va ularning oltingugurt oksidli eritma bilan aralashtirish jarayonida o‘tib borishini sezilarli o‘zgartiradi.

Ko‘proq unumdor uchastkalardagi singari geotexnologik va gidrogeologik sharoitlarda tanlab eritmaga o‘tkazish uchun unchalik unumdor bo‘lмаган uchastkalar va konlarga mo‘jallangan zaxiralarnini to‘liq, intensiv va iqtisodiy jihatdan samarali qayta ishslash, amalda qo‘llanilayotgan ruda konlarini aniqlash sxemalari va qazib olish tizimlarini yanada takomillashtirishni talab qiladi.

Ruda konlarini ekspluatatsiya qilishning elementlari va asosiy bosqichlari.

Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulida gidrogenli uran konlarini qazib olish tizimlari strukturasida asosiy hisobga olish birliklarini elementar qator (yacheyka), ekspluatatsion blok va ekspluatatsion uchastka tashkil qiladi

1. Elementar qator deb zaxirasi bitta so‘rib oluvchi quduq orqali qazib olinadigan mahsuldor qatlama qismiga aytildi. Qator sirtli konturlar bilan chegaralangan bo‘lib, ular maksimal darajada turli gidrodinamik chegaraga (suv to‘sirlari, Yuboruvchi quduqlar chegarasi, oqimning neytral va egri chizig‘i) yaqinlashuvchi bo‘lishi kerak. Bunda qator imkoniyatiga ko‘ra gidrodinamik yopik rejimda (yacheyka chegarasidan tashqariga oqimning yo‘qligida va ularning kontur tashqarisidagi suvlar bilan aralashganda) funksionallashishi lozim.

2. Ekspluatatsion blok – bir vaqtning o‘zida yagona geotexnologik rejimda ishga tushirilgan va qazib olinadigan ruda va ruda aralashgan jinslarning moddiy tarkibini, zaxiralarni bir xil taqsimlanishi bilan tavsiflangan aralashgan elementar yacheykalarni o‘z ichiga olgan mahsuldor qatlaming bir qismi. Sanab o‘tilgan shartlar yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazishni boshqarish imkoniyatlarini ta’minlab beruvchi va ekspluatatsion blok zaxiralarini qayta ishslashda maksimal darajada sinxronlash uchun zarur. Blokka biriktirilgan elementar yacheykalar

yuqorida sanab o‘tilgan geologik va gidrogeologik shartlar va zaxiralarning qayta ishslash va tayyorgarlik muddatidan kelib chiqib aniqlanadi.

3. Ekspluatatsion uchastka qo‘shma ekspluatatsion bloklar guruhi hisoblanib, mustaqil kommunikatsiya tizimlari va nazorat o‘rnatmalariga hamda yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish jarayonini geotexnologik rejimda boshqarish imkniyatlariga ega. Uchastka o‘lchovlari (biriktirilgan ekspluatatsion bloklar soni) xuddi ruda koni (yoki bir qismi)ning morfologik strukturali va textonik xossali kabi boshqa texnik va tashkiliy faktorlari orqali aniqlanadi.

4. Yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish korxonalarini loyixalashtirish amaliyotida ekspluatatsion uchastka qatorini ekspluatatsion maydonga biriktirish qabul qilingan bo‘lib, ular odatda yagona texnologik qurilma (qayta ishslash kompleksi)ga bog‘lanadi.

Yer ostida eritmaga o‘tkazishning ekspluatatsion bloklarida zaxiralarni qayta ishslash uch bosqichda amalga oshiriladi, ulardan ikkitasi mavjudligiga ko‘ra tayyorgarlik ko‘rvuchi va yakunlovchi hisoblansa, yana bittasi texnologik xususiy hisoblanadi. Bu bosqichlar quyidagilar:

1) zaxiralarni aniqlash, ya’ni konlarni burg‘ulash va o‘zlashtirish hamda ularni texnologik kommunikatsiyalar bilan bog‘lash va nazorat kiluvchi va o‘lchovchi apparatlar bilan ta’minlash;

2) nedrda texnologik jarayonni joriy etish, ya’ni ruda konlariga ishchi eritmalarini etkazish, rudalarni uranni tanlab eritmaga o‘tkazgan holda texnologik tayyorlash, mahsuldor shakllantirish, ularni so‘rib oluvchi quduqlarga etkazish va yuqoriga chiqarish;

3) ishlab bo‘lingan bloklar likvidatsiyasi, ya’ni blok chegarasi va yer yuzasida joylashgan ruda aralashmali suvli gorizontning birlamchi holatini tiklash.

Fizik-kimyoviy sharoit jarayonlari haqidagi zamonaviy karashlar va texnik iqtisodiy jihatdan uning bajarilishini hisobga olgan holda, yer ostida eritmaga o‘tkazish usuli bilan zaxiralarni qayta ishslash texnologik bosqichini uchga bo‘lish mumkin:

1) ruda konining oksidlanishi, ya’ni ruda aralashmali suvli gorizontida mahsuldor aralashma oqimi harakatini shakllantirishga tayyorlash;

2) uranning faol tarzda tanlab eritmaga o‘tkazilishi, ya’ni blokdan konditsion mahsuldor aralashmani shakllantirilishi va chiqarilishi;

3) uranning tanlab eritmaga o‘tkazilishini yakuniga etkazish (“yuvish”), ya’ni mavjudligiga ko‘ra qolgan (tanlab eritmaga o‘tkazishning faol bosqichi tugatilganidan so‘ng) o‘z ichida uran tashkil etuvchi konditsion aralashmani qatlam suvlari yoki “matochniy” eritma yordamida chiqarish.

Bu shartli bo‘lish hisoblanadi, chunki bir blokning o‘zida deyarli turli zonalardagi barcha uch bosqich bo‘lib o‘tadi hamda blok uchun har bir bosqichning boshlang‘ich va yakuniy vaqtini belgilash tortib olingan konlarning mahsuldor aralashmalarida aniqlanishi bo‘yicha amalga oshiriladi. Demak, kam karbonatli (1% gacha SO_2) bloklar uchun oksidlanish bosqichining yakuniy kriteriyasi deb ko‘pincha mahsuldor aralashmada pH eritmaning 4-3 gacha pasayishi oqibatida bortlisiga kadar uran konsentrasiyasining mo’qim o‘sishi hisoblanadi; yuqori karbonatli bloklar uchun esa bu bosqichning yakuni o‘sha bortli konsentratsiya’ning pH tortib olingan eritmaning 6-5 bo‘lgandagi o‘sishi bilan belgilanadi.

Blokdagи faol tanlab eritmaga o‘tkazish bosqichi yakuniy qismi koidaga ko‘ra bortli kiymatdan kam tortib olingan eritmada tiklanmas uran tarkibining kamayishi bilan aniqlanadi.

Texnologik rejada syerno oksidlashda yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish har bir bosqich jarayoni uchun qazib olingan eritma oksidlanishining aniq rejimi belgilab qo‘yiladi. Demak, ko‘zga ko‘rinmas darajada karbonatlangan rudani o‘z ichiga oluvchi qoldiqlar (SO_2 bo‘yicha 1% gacha) bilan tavsiflanuvchi ekspluatatsiya bloklari uchun bir qator konlarda optimal sifatida quyidagi tortib olingan eritmalarni oksidlash qabul qilingan: oksidlanish bosqichida 20 – 30 g/l, faol tanlab eritmaga o‘tkazish bosqichida 10 g/l atrofida, “yuvish” bosqichida “matochniy” eritma qo‘shimcha oksidlanishlarsiz sorbsiyadan so‘ng so‘rib oluvchi quduqlarga etkazilgan.

Ruda va rudani o‘z tarkibiga oluvchi turli gorizont moddaviy tarkibidan qat’iy nazar oksidlash va ruda konlarini qayta ishlash rejimlari mavjud. Masalan, yuqori karbonatli (SO_2 bo‘yicha 2% dan yuqori) rudani qayta ishlashda zakisleniya va qazib olish bosqichida ishqorlashning zaif kislotali rejimini qo‘llash maqsadga muvofiq.

Burg‘ilash qudug‘i – yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish usulida gidrogen konlarni qazib olish tizimining bosh halqasi

Burg‘ulash quduqlari yer ostida eritmaga o‘tkazish usulida gidrogen konlarini qazib olish tizimida muayyan usulda qurilgan va jihozlangan bir geologik – texnologik jarayonning asosiy texnik elementi bo‘lib, keng miqyosli axborot bilan ta’milanadi: yer qa’ri (uran zaxirasi) – jarayon (uranni eritmaga o‘tkazish) – sirt (qazib olish, natija).

Mavjudligi bo‘yicha texnologik va axborot zanjining asosiy xalqasi hisoblanib, burg‘ulash quduqlari quyida keltirilgan asosiy turli xildagi

funksiyalarning kompleksini bajarilishi ko‘zda tutilgan: 1) geologik qidiruv; 2) zaxiralarning ochish va tayyorlash; 3) zaxiralarni qazib olish; 4) ekspluatatsion blokda EOTEО’ ning fizik-kimyoviy jarayonlarini maksimal darajada yaxshilaydigan eritmaning filtratsion oqimining strukturasini shakllanishini ta’minlovchi gidrodinamik sharoitni tuzish yo‘li bilan mahsuldor qatlamda texnologik eritmalarini harakatlanishini boshqarish; 5) yuborilgan va so‘rib olingan eritmalarining miqdorini va sifatini nazorat qilish; 6) filtrlanishga qarshi pardalarni tuzish; 7) yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish jarayonini joriy qilishning gidrodinamik va fizik - kimyoviy parametrlar nazorati; 8) rudadan uranni chiqarish to‘liqligini nazorat qilish; 9) atrof-muhitni mumkin bo‘lgan fizik - kimyoviy ifloslanishlardan saqlash.

Yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usuli bilan konlarni qazib olishda ishlatiladigan burg‘ulash quduqlari o‘zining maqsadi, bajaradigan funksiyalari tarkibi va hajmi bo‘yicha texnologik, barrajli, kuzatuvchi, nazorat va qidiruv turlariga bo‘linadi.

Texnologik quduqlar – yer qa’riga ishchi eritmani etkazish (yuboruvchi) va mahsuldor eritmani sirtga chiqarish (so‘rib oluvchi) uchun mo‘ljallangan, yana bir muhim texnologik jarayon funksiyasini bajarishni ta’minlaydi. Bu konlar orqali nafaqat eritmalar transportirovkasi, balki ishchi eritmalarining filtratsiyasi yo‘li va tezligini mahsuldor qatlamda gidrodinamik rejimlarining boshqarilishini ta’minlaydi. Bu texnologik quduqlarni konstruktiv xususiyatlariga hamda ularning jihozlanishi va ekspluatatsiyasiga yuqori talablarni qo‘yadi.

Barrajli quduqlar ekspluatatsion blok tashqarisiga tanlab eritmaga o’tkazishning oqimini cheklovchi gorizontal va vertikal filtrlanishga qarshi pardalarni yaratishga hamda bu ruda konlarini o‘z ichiga oluvchi eritma bilan qamrab olishga qaratilgan.

Kuzatuvchi quduqlar ekspluatatsion bloklar chegarasida eritmalarining shakllanishi shartlari, mahsuldor suvli gorizontning gidrodinamik holati, texnologik eritmalarini ekspluatatsion uchastkalardan tashqariga yoyilishi va ularning ruda ustki va ostki suvli gorizontida mumkin bo‘lgan oqimini kuzatish va nazoratga olish uchun mo‘ljallangan.

Nazorat quduqlari nedrlardan foydali komponentlarni to‘liq chiqarishni nazorati uchun qazib olingan uchastkalarga hamda boshqa masalalar yechishda (turli rudani o‘z ichiga oluvchi texnogen o‘zgarishlarini tatbiq qilish, mumkin bo‘lgan atrof muhit ifloslanishini nazorat qilish va hokazolar) burg‘ulanadi.

Qidiruv quduqlari geologik geologo – razvedka ishlarining barcha bosqichlarida burg‘ulanadi – izlashdan ekspluatatsion razvedkagacha. Zaxiralarni geotexnologik qazib olish jarayonining ishlatilish belgilari bo‘yicha quyidagicha guruhash mumkin: texnologik, barrajli va kuzatuvchi quduqlar ekspluatatsion

quduqlar kategoriyasiga kiradi (ya’ni yer osti tanlab eritmaga o’tkazishning ekspluatatsion blogida qatnashishadi), qolgan uchtasini yordamchi guruhga birlashtirish mumkin.

Yer osti tanlab eritmaga o’tkazishning ekspluatatsion bloklari jarayoniga nisbatan burg’ulash quduqlarining ikki guruhlari o’rtasida asosiy prinsipial farq tashkil qiladi. Bu farq bilan ekspluatatsion quduqlariga ishonch va uzoq xizmat qilishning, xususan yuqori talablari tushintiriladi. Mos ravishda bu farq ekspluatatsion va yordamchi quduqlari konstruksiyalarida jihozlanishi (burg’ulash, o’zlashtirish) va uskunalari usulida o’zining ifodasini topadi [36].


Sirtdan burg’ulangan quduqlar orqali yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish usuli bilan uran konlarini qazib olishning barcha tizimlari kunlik sirt bilan jarayonning bajarilishini ko’zda tutadi.

Sirtdan burg’ulangan quduqlar orqali uranni EOTEQ’ tizimlari guruhlарining xususiyatlari

Eritma harakati sxemasi va texnologik quduqlarning joylashuv sxemasiga bog’liq holda, EOTEQ’ ning bu sinfida uch guruhi ajratiladi - quduqlarning yuzali, chiziqli va aralash joylashuvi (so’ngi joylashuvga yana gorizontal va vertikal yo’nalishlarda (sun’iy suv tirkaklarini hosil qilish maqsadida gidro to’siqlar va qatlamni gidravlik yorish) ishqorlovchi reagentning yoyilishini chegaralash uchun filtrlanishga qarshi vertikal va gorizontal pardalardan foydalanish bilan bir qator tizimlarni o’z ichiga oladi).

Hududimizda va chet davlatlarda reagent eritmalari oqimining filtratsion yo’nalishining sirtdan quduqlar orqali tanlab eritmaga o’tkazish tizimlari keng tarqaldi. Bunda ruda massivining geologik shartlari va filtratsion xossalariiga bog’liq ravishda quduqlarning yachevkali va chiziqli joylashuvi bilan yer ostida tanlab eritmaga o’tkazish tizimi ham bo’lishi mumkin.


1) Quduqlar joylashuvining yachevkali tizimlari, odatda rudaning nisbatan past suv o’tkazuvchan ($K_f \approx 0,1 \div 1,0$ m/sut) sharoitlarda cho’kindi qatlamli bir jinsga mansub bo’lmagan rudaga va gorizontal yoki zaif qiya yotishgan jinslarga yo’naltirilgan ruda konlari uchun qo’llaniladi. Bu tizimlar uncha katta bo’lmagan quduqlar orasidagi masofada (8 – 20 m) o’zaro yachevkalar hosil qiladigan yuboruvchi va so’rib oluvchi quduqlarning kon yuzalarida bir tekisda navbatlashishini ifodalaydi.



Rasm. 6.1. Quduqlar joylashuvining yacheykali tizimlari:
a - geksoganal; b – uchburchakli sxema; 1 - Yuboruvchi quduqlar; 2 - so'rib oluvchi quduqlar; 3 - ruda konlari konturi

2) Quduqlar joylashuvining chiziqli tizimlari kon maydonida yuboruvchi va so'rib oluvchi quduqlar qatorining ketma-ket navbatlashishidan tashkil topgan. Ruda massivining filtratsion xossasi va bir jinsligidan farqli ravishda qatorlar va quduqlar orasidagi masofa keng chegaralarga aylanadi (15 – 50 m va ko‘proq). Qazib oluvchi qator odatda uchta ketma-ket joylashgan qatorga tegishli ikki yuboruvchi va bitta so'rib oluvchi quduqlardan iborat bo‘ladi.

Uran konlarida quduqlar joylashuvining chiziqli tizimi keng qo‘llaniladi. Ular cho‘zilgan gidrogen uran konlarini qazib olishda samarali bo‘lib, yana yog‘inli, yaxshi suv o‘tkazuvchan murakkab hidrogeologik sharoitlarda joylashgan rudalar bilan qo‘shilgan. Optimal rejimlarda jarayonni yuritish bo‘yicha ma’lum tajriba to‘plangan va kerakli parametrлари ishlаб chiqilgan.



Rasm. 6.2. Texnologik quduqlarning chiziqli joylashuv tizimlari;
a.- to‘g’riburchakli; b - shaxmathli; v –boshqa Yuboruvchi quduqlar sonining so'rib oluvchi quduqlar soniga nisbati bilan $\frac{1}{2}$, $\frac{1}{3}$, 1 - to‘suvchi quduqlar; 2 - qazib olish yacheykasi; qatorlar orasidagi masofa - L, quduqlar

Ekspluatatsion quduqlar tarmog‘ining zichligi

Tadqiqotlarda qayd etilganidek, namunalardan eng qulayi quduqlar va qatorlar orasidagi masofa nisbati 1 : 2 bo‘lganida shaxmatli joylashuvga ega chiziqli tizim hisoblanadi, nisbatan kamroq qulaylikka egasi esa masofalar nisbati 1 : 1 bo‘lgan to‘g‘riburchakli joylashuvdagagi tizim hisoblanadi.

Quduqlar orasidagi masofaning nazariy va taxminiy tushunchasiga keladigan bo‘lsak, bu savol oxirigacha o‘z yechimini topmagan. Quduqlar orasidagi masofani tanlash - juda murakkab vazifa bo‘lib, ko‘plab inshootlarning texnik imkoniyatlari va quduqlar ekspluatatsiyasi, iqtisodiy va boshqa jarayonlarning geologik va gidrogeologik, gidrodinamik va texnologik faktorlariga bog‘liq. Shuning uchun hozirgi kunda amaliyatda quduqlar orasidagi masofani tanlash yoki EGDA qurilmasida analog modellashtirish, yoki tajribali yoki ekspluatatsiya qilinayotgan uchastkada qayta ishlash variantlarining bir nechtasini texnik - iqtisodiy jihatdan qo‘yish yordamida amalga oshiriladi. Demak, misol uchun KFJB m/kun koeffitsientli ruda filtratsiyasining bitta gidrogen qatlamli koni uchun texnik-iqtisodiy taqqoslama varianti shuni ko‘rsatib turibdiki, 25x50 m masofada joylashgan zigzagli quduq tizimi optimal hisoblanadi.

Yuborilgan va tortib olingan quduqlar qatorlarining har xil masofali yer ostida tanlab eritmaga keltirishning ekspluatatsion bloklari ishining tahlili ko‘rsatib turibdiki, qatorlar orasidagi (20-30 m va kamroqqacha) qisqartirilgan masofali quduqlar joylashuvi sxemasi qator mavjud yutuqlarga ega:

1) quduq tarmog‘ining zichligida zaxira tayyorlash va bloklarni ekspluatatsiyaga kiritish muddatlari qisqaradi;

2) boshqa teng kuchli sharoitlarda qatorlar orasidagi masofa qisqarishi oqibatida bloklarni qayta ishlash vaqtini kamayadi;

3) qatorlar orasidagi masofaning kamayishi alohida bloklarni qayta ishlash differensial rejimi uchun yaxshi imkoniyatlarni ta’minlab beradi;

4) boshqa teng kuchli sharoitlarda yuboruvchi va so‘rib oluvchi quduqlar orasidagi masofaning qisqartirilishi oqibatida ruda sig‘imli jinslarni texnologik ishlashda jalb qilinadigan quvvatlar kamayadi. Bu esa ayniqla ruda jismlarni qayta ishlashda kislota chiqimlarini kamayishiga sabab bo‘ladi;

5) quduqlar qatori orasidagi masofaning yaqinlashishi oqibatida texnologik ishlashga jalb qiluvchi jinslar quvvati kamayishi sabab mahsuldor aralashmalarda uran tarkibi bir qancha ko‘payadi;

Shu bilan birgalikda quduqlar va qatorlar orasidagi masofaning kamayishi oqibatida ruda yuzasining birligiga keltiruvchi quduqlar soni sezilarli oshadi. Mos

ravishda eritmaga chiqarilgan metall tannarxida burg'ulash ishlariga ketadigan chiqim ulushi oshadi.

Bayon qilinganlarni hisobga olgan holda mazkur ishning avtorlari quyidagi hisoblash ishlarini amalga oshirishdi. Bu hisob - kitoblar chuqurlikdagi uran zaxiralarini aniqlashga ketadigan chiqim ulushi, bitta texnologik quduqqa to‘g’ri keladigan yuza va samaradorlikni o‘z ichiga oladi. Hisoblash ishlari 100 metrdan 600 metrgacha chuqurlikda va samarali yuzaning uran bo‘yicha amalga oshirilgan va 1 kg/m^2 dan 4 kg/m^2 gacha o‘zgarishida hamda inshootlarga faktik chiqimlarni va ishlab chiqilgan quduqlar bog‘liqligini hisobga olgan holda amalga oshirilgan.

Yuzali quduqlar orqali yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazishni qazib olish tizimlarida tog‘ kon mablag‘lari ketma-ketligi va aniqlash sxemasini to‘g’ri tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ruda jismlarining morfologik xilma-xilligi, ruda va rudali jinslarning turli gidrogeologik xossalari, samarali gorizontning geokimyoviy va gidrogeologik xususiyatlari ruda konlari aniqlanish sxemasiga nisbatan differensial qarashlar chaqiradi.


To‘plangan tajribani inobatga olgan holda yuzaviy quduqlar orqali yer ostida tanlab eritish tizimi bilan turli morfologik tipli quyidagi konlarni aniqlash va qayta ishlash sxemasini taklif etish mumkin (6.4 rasm).

1. 50 m enli konlarni markaziy (o‘qli) qismida burg‘ulangan texnologik quduqlarning uzun qatorlari orqali aniqlash va qayta ishlash lozim bo‘ladi; bunda qayta ishlashning birinchi bosqichining birinchi yarmida ishchi eritmalarini yuborish amalga oshirilsa, ikkinchisida - tortib olinadi. Kuzatuvchi quduqlarda ishchi eritmalarining paydo bo‘lishi bilan qayta ishlashning ikkinchi bosqichi keladi: blokning yuborish qismida takomillashtirilgan mahsuldor eritmalarining tortib olishi amalga oshirilsa, ikkinchisida – teskarisi ya’ni tortib olinganlari qayta yuboriladi.

Bu smena blok zaxirasining to‘liq qayta ishlanmaguniga qadar davom ettiriladi. Bunda har keyingi bosqichda amplituda ishchi eritmalarini oshirib borish talab etiladi. Bu holatda ishchi eritmalarining o‘zgaruvchi oqimi uchastkasida qayta olingan uran bosqichma-bosqich yer ostida tanlab eritmaga o‘tkazish jarayoniga tortiladi.

Ko‘rinib turibdiki, boshqa qisqa (eniga 50 m gacha) ko‘proq “zichlangan” quduq setkalarining qo‘llanishi (masalan, uchyadrli yoki yachevkali) blokni rentabel tarzda qayta ishlash imkoniyatlari bilan cheklanadi.

Taklif etilayotgan blokni qazib olish tizimi yuzaviy kommunikatsiyalar bilan mos keluvchi quduq bog‘lamlari uchun o‘zaro almashuvchan (har bir yuborish quduqlari bir vaqtda ham so‘rib oluvchi hisoblanadi)



Rasm 6.3. texnologik quduqlarning chiziqli sxemasida zaxirani ochishning solishtirma narxini hisoblash nomogrammasi:

S – zaxirani ochishning solishtirma narxi; R – zaxira; S – maydon: $\frac{P}{S}$ – qazib olish yacheykasi mahsuldorligi. Quduqlar konstruksiyasining asosiy elementlari: 1 – PVP «T» 110/18; 2 – PVP «T» 225/25 – ishchi kolonna, PVP «T» 140/18 – filtr: 3 – i/st 219/8 mm – ishchi kolonna, i/st 69/4 mm – filtr: 4 – PVP «T» 140/18. Chapdan pastga – nomogrammadan foydalanish namunasi: $\frac{P}{S} = 3 \text{ kg/m}^2$, $S=1750 \text{ m}^2$, 4 – tipdagi quduq, chuqurlik 200 m, $S = 1,55 \text{ rub/kg}$

quduqlarni burg‘ulash zaruriyatini eltirib chiqaradi.

2. Eni 50 - 150 m bo‘lgan konlar yotishi bo‘yicha quduqlar qatorlarini aniqlashda tavsiya etiladi. Yuboruvchi quduqlarni ruda konlari konturi bo‘yicha

joylashtirish, so'rib oluvchilarini esa markaziy qismga joylashtirish, hamda ularning holatini qatlam oksidlanish zonasini chegarasi bilan imkoniyatga ko'ra tekislash tavsiya etiladi. Ixtiyoriy ravishda so'rib oluvchi quduqlarning ishlab chiqarishini yuboruvchi quduqlarning mos ravishda sonining oshishi yoki ularning ishlab chiqarilishi oshirilganda kengaytirilayotgan kon uchastkalarida oshirish lozim.


3. Eni 150 metrdan ortiq bo'lgan konlarni tekis tozalash quduqlarida bo'lgani kabi ruda konlari va orasidagi masofa 50 - 100 m bo'lgan quduq qatorlari joylashuv rel'efidan qat'iy nazar tozalash bo'yicha quduqlarni aniqlash mumkin. Zarur bo'lganda ruda konlari konturlari maxsuliy eritmalarining kontur tashqarisidagi qatlam suv bilan aralashmasini kamaytirish uchun bloklovchi buyurtma quduqlar bilan burg'ulanadi.

Tadqiqotlarda qayd etilganidek, namunalardan eng qulayi quduqlar va qatorlar orasidagi masofa nisbati 1 : 2 bo'lganida zigzagli joylashuvga ega chiziqli tizim hisoblanadi, nisbatan kamroq qulaylikka egasi esa masofalar nisbati 1 : 1 bo'lgan to'g'riburchakli joylashuvdagli tizim hisoblanadi.

Quduqlar orasidagi masofaning nazariy va taxminiy tushunchasiga keladigan bo'lsak, bu savol oxirigacha o'z echimini topmagan. Quduqlar orasidagi masofani tanlash - juda murakkab vazifa bo'lib, ko'plab inshootlarning texnik imkoniyatlari va quduqlar ekspluatatsiyasi, iqtisodiy va boshqa jarayonlarning geologik va gidrogeologik, gidrodinamik va texnologik faktorlariga bog'liq. Shuning uchun hozirgi kunda amaliyotda quduqlar orasidagi masofani tanlash yoki EGDA qurilmasida analog modellashtirish, yoki tajribali ekspluatatsiya qilinayotgan uchastkada qayta ishlash variantlarining bir nechtasini texnik - iqtisodiy jihatdan qo'yish yoramida amalga oshiriladi. Demak, misol uchun KFJB m/kun koeffitsientli ruda filtratsiyasining bitta gidrogen qatlamlari koni uchun texnik-iqtisodiy taqqoshlama varianti Shuni ko'rsatib turibdiki, 25x50 m masofada joylashgan zikzakli quduq tizimi optimal hisoblanadi.

Tozalash bo'yicha quduq qatorlari bilan enli konlarni (300 m dan ortiq) aniqlashda cheklovchi tartib orqali pyeriferiyadan markazga amalga oshirish tavsiya etiladi. Bunday holatda, yer ostida tanlab eritishuchastkasida ish rivojini oshirishda hosil qilingan depression voronka albatta konning markaziy qismiga ko'shilib ketadi hamda jarayonning texnik va iqtisodiy natijasiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Barcha ko'rib chiqilgan aniqlanish sxemalarida quduq qatorlari orasidagi masofa asosan ruda konlari o'lchovi va morfologiyasi orqali aniqlanadi, bundan tashqari mahsulot tannarxi strukturasida zaxiralarni aniqlash xarajatlari normativlari orqali ham qatorlarda quduqlar orasidagi masofalar quduqlarning



Rasm 6.4.ruda jismining morfologiyasiga bog'liq holda texnologik quduqlarning chiziqli joylashish sxemasi:

1 – нуда jismi chegarasi; 2 – texnologik quduqlar (*a*, *b* – одатиуунумдорликка ega bo'lgan Yuboruvchi va so'rib oluvchi quduqlar); 3 – 80% da qazib olingan bloklar; 4 – 4 – 50% da qazib olingan bloklar; 5 – 5 – 20% da qazib olingan bloklar; 6 – zakisleniya boshichida yotqan bloklar; 7 – qatlamlı oksidalish zonasining asta – sekin murash chegarasi

debiti va maqbulligini inobatga olgan holda aniqlanishi kerak.

Filtrlanishga qarshi pardalardan foydalanishda qazib olish tizimlari

Yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishda gorizontal va vertikal yo'naliishlarda eritmalar harakatini cheklovchi gorizontal va vertikal ekranlar katta ahamiyat kasb etadi. Bu yerda mahsuldor qatlamning ruda va rudasiz qismlari qalinligi nisbati noqulay hisoblanadi (misol uchun, $m/M < 1/10$).


Demak, ruda konlari tashqarisiga ishchi eritmalar tarqalishini cheklash uchun eni 50 m gacha bo'lgan kichik ruda konlarini qazib olishda maxsus barraj quduqlarini burg'ulash yo'li bilan vertikal gidropardalar ishlatilishi mumkin. Xususan, buning uchun Y.V.Kul'tin va boshqalar tomonidan texnologik va barraj konlarining maxsus qatorlarini ishlatish tavsiya etilgan. Ularni kon bo'yab (6.5 rasm) va "plyus" (6.6 rasm) bo'yicha joylashtirish mumkin. Har ikkala holatdan ham konlarni qayta ishslash ikkita bosqichda amalga oshiriladi.

Eritma yoyilishini to'sib qo'yuvchi vertikal to'siqlarni suv tashuvchi gorizontning ruda saqlovchi sun'iy ravishda kira olmaydiganlarini chaqirish yo'li bilan yaratish mumkin.

Ko'rsatilgan kimyoviy to'siqlar barcha ruda konlari atrofida ham paydo bo'lishi mumkin: ular qayta ishslash konlari tashqarisiga eritmaning tarqalishiga hamda kontur tashqarisidagi qatlam suvlarining mahsuldor aralashmalarga qo'shilishiga ham to'sqinlik qiladi. Ruda sig'diruvchi gorizontning katta quvvati holatida hamda quyi va yuqori suv kuchining yo'qligi tufayli gorizontal gidropardalarni yoki jinlarda gidrobo'shliqlari ishlatish bilan sun'iy suv kuchlanishini yaratish zaruriyatini uyg'otadi.


Neft sanoati amaliyotida loysement yoki qattiq sintetik smoldan sun'iy o'tkazmas proqatlam yaratish maqsadida jinslar gidrobo'shliqlari metodikasi ishlab chiqilgan. Yer ostida tanlab eritish usuli orqali girogen konlarni qazib olishda bunday proqatlamlar yaratilishi zaruriyati shubxasiz.

Ta'kidlash joizki, yer ostida tanlab eritish usuli orqali konlarni qazib olish tizimi jinslarning gidroparda va gidrobo'shliqlari yaratilishi bilan o'zining murakkabligi va xarajatlarining ko'paygani tufayli ajralib tursada, ammo bunday ekranlar yaratilishidan kutilayotgan samara ularni yaratishda olib borilayotgan qidirish ishlari bilan tushuntiriladi.



Rasm 6.5. geoteknologik yacheykalarni uzunasiga joylashganda konni qazib olish sxemasi:


1 – ruda konining chegarasi; 2 – ruda konining qazib olingan uchastkalar; 3 – gillar; 4 – qumlar; 6 – quduqlar (*a* – so'rib olavchi, *b* – Yuboruvchi) 6 – ishchi eritmanning oqim chizig'i




Rasm 6.6. Geotexnologik yacheikalarni ko'ndalang joylashgan konni qazib olish sxemasi: (3.6. – rasmida belgilari ko'rsatilgan)

Yuqorida sanab o'tilgan yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishning farqli xususiyatlari va to'plangan tajribani o'rghanish va keng joriy qilish, yangi tizimlarni tashkil etish va takomillashtirishda amaliyotda qo'llash uchun ularning sinf va guruhlarga bo'lingan klassifikatsiyasi amalga oshiriladi. Keltirilgan klassifikatsiyada yer ostida tanlab eritmaga o'tkazishning barcha tizimlari konlarning ochilish sxemasi va uchastkalariga ko'ra 5 ta sinfga bo'lingan. Bundan tashqari ruda jismlari tayyorgarligi usullaridan tanlab eritmaga o'tkazish (tabiiy va sun'iy sig'imiga ko'ra).

Har bir tizimlar sinfida - kon va tog' ishlanmalari hamda tanlab eritmaga o'tkazish rejimida joylashuv sxemalariga bog'liq tizimlar guruhlari ajratib ko'rsatilgan.



Rasm. 6.7. Filtrlanishga qarshi pardaga bilan konlarni qazib olish sxemasi:
1 - ruda koni; 2 - mexanik pardalar; 3 - kimyoviy pardalar. Quduqlar: № 1, 5 – mexanik pardalar uchun; № 2, 4 - kimyoviy pardalar uchun; № 3 - ruda konini qazib olish uchun.



Rasm 6.8. Gorizontal hidro pardalardan foydalangan holda ko'ndalang qatorli ruda konlarini qazib olish sxemasi (6.5. – rasmda belgilari ko'rsatilgan)

3. TABIY O'TKAZUVCHAN RUDALARDAN BLOKLARDA URANNI YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O'TKAZISHNING SHAXTALI TIZIMI (II SINF)

Devorlari qalinligi 18-25 mm bo'lgan polietilen trubalarini buzuvchi kon bosimi intensiv ravishda namoyon bo'ladigan, ruda tanasi juda chuqur joylashgan yer ostida ishqorlash korxonalaridan birida o'rnatish uchun standart po'lat trubalar (GOST 632—64) qo'llaniladi. Boshlanishida quduq ruda tanasigacha burg'ulanadi va truba atrofi maydonini sementlash bilan po'lat trubalar bilan mustahkamlanadi. Bu ishlar bajarilib bo'lgandan so'ng, ruda oralig'i bo'ylab quduq burg'ulanadi (kuchaytirilgan konstruksiyali), filtr va normal (10-12 mm) qalinlikdagi polietilen trubali o'rnatiluvchi kolonna tushiriladi. O'rnatiluvchi kolonnada filtr yuqorisida po'lat trubalarni mahsuldor qatlamning kislotali suvidan izolyatsiyalovchi salnik o'rnatiladi. Ishchi yoki mahsuldor aralashmalar kon bosimining hamma kuchini o'ziga qabul qiluvchi o'rnatiluvchi po'lat trubalarning ichki diametridan birmuncha kichik bo'lgan, tashqi diametriga ega polietilen trubalar bilan tashiladi. Truba oralig'i maydoniga doimiy ravishda polietilen truba ichida yuzaga kelgan bosimga qarshilik ko'rsatuvchi oddiy texnik suv (uncha katta bo'limgan miqdorda) yetkazilib turadi. Bunday konstruksiyali quduq ekspluatatsiyasi bo'yicha ijobiy tajriba mavjud. Ayniqsa quduqning filtr qismida ta'mirlash o'tkazish bo'yicha jarayon soddalashtirilgan.

5. TEKNOLOGIK QUDUQLARNI JIHOZLASH UCHUN KONSTRUKSION MATERIALLAR.

MDX davlatlarida yer ostida ishqorlash korxonalarida amaliyotda

oltingugurt kislotasini erituvchi sifatida qo'llanilishi ustunlik qiladi. Bu hol quduqning o'rnatiluvchi kolonna va filtrlari, texnologik eritmalarining ustki trubo o'tkazgichlar, qayta ishlovchi apparatlar, qorishmani ko'taruvchi uskunalar, o'lchov va nazorat asboblar va boshqalar uchun konstruksion materiallar tanlashda katta qiyinchilik tug'diradi. Shunga bog'liq holda, qayd etib o'tish kerakki, bikarbonat erituvchini qo'llash bilan yer ostida ishqorlash texnologiyasini qazib olish va tadbiq etish, yuqorida sanab o'tilgan barcha uskuna materiallarni antikorroziyasiz, odatiy bajarlishiga imkon beradi. Bikarbonat erituvchini qo'llash texnik – iqtisodiy jihatdan samarali hisoblanadi.

YOTQIZISH QUVURLARIGA QO'YILGAN TALABLAR

Oltingugurt kislotali erituvchini qo'llash bilan bog'liq holda, yer ostida ishqorlash korxonalarida quduqlarni jihozlash uchun qo'llaniladigan trubalar quyidagi asosiy talablarga javob berishi lozim:

1. kislotalarning kuchsiz eritmalariga yuqori korroziyali turg'unlikka ega bo'lishi;
2. chuqurligi 500-600 m gacha bo'lgan quduq jihozlari uchun zarus bo'lgan mustahkamlikka (ichki va tashqi yo'qlarda) ega bo'lishi;
3. qayta (yoki ko'p marotaba) qo'llash imkoniyatini yaratib berish;
4. alohida trubalarni ulash joylarida gyermetikligini saqlagan holda minimal vaqtda ulashni bajarish lozim;
5. sanoat miqyosida seriyali ravishda qazib olish;
6. yuqori bo'limgan qiymatga ega bo'lish.

Quyidagi trubalar o'rnatiluvchi sifatida qo'llanilish imkoniyati har tomonlama o'rganilib chiqilgan va baholangan: qatlammassa, polietilen (PVP, PNP), polipropilengan (PP), polivinilxloridli (PVX), viniqatlamlili (VP), metall – zanglamaydigan po'latdan, bimetall, ichki antikorroziyali qoplamlari oddiy po'latdan, shishaqatlamicli, Shuningdek, biqatlammassali, fanyerli, asbotsementli, metall qatlamicli – polietilen, metall setka bilan armirlangan.

Tajriba va sanoat sharoitlaridagi ko'p tomonlama sinovlardan so'ng past va yuqori mustahkamlikka ega polietilen truba (PNP va PVP) lar keng ommalashdi. Sanoat sharoitida chuqur quduqlar (250-300 m dan yuqori) ni jihozlash uchun X18N10T (GOST 9262—74) markali zanglamaydigan po'latdan tayyorlangan trubalar sinab ko'rildi. Lekin ularning antikorroziyali turg'unligi yuqori emasligi aniqlandi.

Bugungi kunda GOST 18599—73 va VTU 95—3.33—75 korxona normalari bo'yicha ishlab chiqilgan polietilen trubalar yuqorida qayd etib o'tilgan asosiy talabalarga javob beradi. Polietilen trubalar 4 markada: engil (L), o'rtacha

engil (SL), o‘rta (S), og‘ir (T) – yuqori va past mustahkamlikdagi trubalar.

PVP dan diametri 630 mm gacha bo‘lgan o‘rnatiluvchi trubalarning katta nomenklaturasi tayyorlanmoqda. PNP dan odatda 160 mm diametrli trubalar tayyorlanadi. Konning geologik va gidrogeoloik sharoitlari, ularni joylashish chuqurligi va eritmani ko‘taruvchi jihoz turi bilan asoslangan, yer ostida ishqorlash talablarini hisobga olgan holda, VTU 95-333—75 bo‘yicha, PVP dan diametri 110, 140, 160 va 210 mm va devori qalinligi 18 mm bo‘lgan o‘ta og‘ir turdag (ST) trubalari ishlab chiqilmoqda.

Yer ostida ishqorlash quduqlarini jihozlashda polietilen trubalarini ulash, ko‘p hollarda texnologik quduqlarning texnik holatini aniqlovchi ma’suliyatlari jarayon hisoblanadi. Yer ostida ishqorlash korxonalari amaliyotida o‘rnatiluvchi polietilen trubalarni payvandlash va rezbali ulash usullari ken qo‘llanilmoqda.

Polietilen trubalarni payvandlab ulash sifatini oshirish va payvandlash ishlarini mexanizatsiyalashtirish uchun USVT-2 va USGT-2 payvandlovchi uskuna yaratilgan. Bu uskunaning payvandlash rejimini (Temperatura, bosim, o‘rnatish tezligi va b) qat’iy boshqarilishi ta’minlangan. USVT-2 va USGT-2 larning harakatlanuvchi va harakatlanmaydigan qisqichlar tugunlari, ta’minalash bloklari bir turli qilib qabul qilingan. Bu esa, ikkala uskunani ham gorizontal truo‘tkazgichlarni payvandlash imkonini beradi.

Payvandlash, uskunani burg‘ulash agregati machtasiga konsolli mustahkamlash tizimi ishlab chiqilgan.

Yer ostida ishqorlash korxonalarida chuqurligi 200-350 m bo‘lgan quduqlarni jihozlash uchun ST turdag devori qalinligi 18-25 mm bo‘lgan polietilen trubalarni keng tadbiq etish bilan bog‘liq holda, ularni rezbali ulash qo‘llanila boshlandi.

Rezbali ulashning aniq ijobiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, bir qator ishlab chiqarish korxonalarini va tadqiqot tashkilotlari tajriba va ishlab chiqarish sharoitida, rezbali ulashlarning bir necha ko‘rinishlarini sinab ko‘rishdi va qazib olishdi.

Ulash turi va konstruksiyasini tanlash quyidagi asosiy talablardan kelib chiqadi:

1. truba tanasiga qaraganda, ulovchining materiali va konstruksiyasi gyermetikligini saqlash uchun tashqi va ichki bosimning o‘qga tushadigan og‘irligiga qarshi turg‘unligi kam bo‘lmasligi lozim;

2. -30 dan +60° S gacha bo‘lgan Temperaturada ulanishning sifat va texnologik ko‘rsatkichlari pasaymasligi lozim;

3. ulanish, oltingugurt kislotasi va tuz kislotasi eritmalariga nisbatan korroziyaga chidamli bo‘lishi lozim.

4. yig‘ishga (montaj) sarflangan vaqt minimal bo‘lishi lozim.

Ishlab chiquvchi va ishlab chiqaruvchilar fikriga ko‘ra, metall setka bilan ichki armirlangan polietilen trubalar yer ostida ishqorlash korxonalarida chuqr quduqlar uchun keng va muvafaqqiyatli qo‘llanilishi mumkin.

6 ARALASHMANI KO‘TARISH VOSITASI VA USKUNASI.

Mahsuldor qorishmani tortish uchun qo‘llaniladign uskuna yer ostida ishqorlash usulining samaradorligini ta‘minlovchi muhim tashkil etuvchisi hisobalandi. So‘ngi vaqtarga qadar, tortuvchi quduqdan mahsuldor qorishmani ko‘tarishni ta‘minlovchi asosiy uskuna erliftlar hisoblangan. Yer ostida ishqorlash usulini birinchi marta tadbiq etish davrida erliftlarni qo‘llash konstruksiyasining soddaligi, ishslashda ishonchliligi bilan tushuntiriladi.

Erlift uskunalari konstruksiyasi maxsus adabiyotlarda yozilgan, yer ostida ishqorlashda ularni qo‘llashning ba’zi afzallikkleri esa, ushbu kitobning 4-bo‘limida keltirilgan. Bu uskunaning katta kamchiliklari mavjud:

1. ularning FIK sababli (10 % dan yuqori emas) katta energiya (siqilgan havo) sarfi;
2. quvvatli kompressor stansiyalarining zaruratiyiligi;
3. impuls rejimida qorishmani ko‘tarishda quduqlarni texnik holati va ularning filtr qismida salbiy kechadi.

Shunga bog‘liq holda, 1971—1976 yillarda ish bajarishida korroziyaga chidamli bo‘lgan cho‘kma quduq nasoslarini tayyorlash va yaratish bo‘yicha katta ishlar amalga oshirilgan. Bir necha tur va o‘lchamdagি quduq cho‘kma elektr nasoslar konstruksiyasi ishlab chiqilgan, ishlab chiqarish sharoitlarida sinalgan va seriyali ravishda ishlab chiqarishga jalb etilgan:

UESNK4’ 100-80 va UESNK-160-80 (diametri 93 mm, ishlab chiqarish unumidorligi 100 va 160 m³/sutka yoki 4 va 6 m³/s va bosimi 80 i 100 m mos ravishda);


UESNK6-360-150 (diametr IZ mm, ishlab chiqarish unumidorligi - 15 m²/s va bosimi 150 m);

Bu nasoslarning FIK 36-37% va tarkibi 10% gacha oltingugurt va 0,1 g/l mexanik aralashmadan iborat mahsuldor qorishmani quduqdan tortib chiqarishi mumkin.

«Moldavgidromash» ishlab chiqarish birlashmasi tomonidan yaratilgan ESV6-25-140XG markali ishlab chiqarish unumidorligi 25 m³/s va bosimi 140 m bo‘lgan cho‘kma elektr nasoslari sanoat sinovlaridan o‘tkazilmoqda.

UESNK4-100-80 va UESNK4’160-80 nasoslarini ekspluatatsiya qilishda o‘zining ijobiylarini tavsiya etdi. O‘rtacha ishlab berish vaqtiga 9 ming soat, maksimali esa 14-15 ming soatni tashkil etadi. Tortuvchi quduqlarning debiti 1,5-2

baravarga o'sadi. Erliftlarga qaraganda, elektr energiya sarfi 4-6 martaga pasaygan, iqtisodiy samaradorligi esa, bitta nasos uchun 1350 rub/yilni tashkil etadi.



Rasm 7.6. UESNK4-100-80 uskunasining tuzilishi:

1-datchik; 2- boshkaruv stansiyasi; 3-PVP 40*37 suv ko'tvrish trubasi; 4- vitli mahkamlangan ustun; 5-o'ichov simlari; 6- PVP 140*12 markali obsad trubalar; 7- ustki sath elektrodi; 8- d-7.14 mm po'lat arqon; 9- pvstki sath elektrodi; 10- nasos; 11- quduq filtri; 12- elektrosvigatel rostlagich stakani; 13- himoya suyuqligi sathi elektrodi; 14-elektrosvigatel; 15- elektrosvigatel yo'naltiruvchi stakani (kojuxi).

Bundan tashqari, nasoslar qorishmani ko'tarish jarayonini avtomatlashтирishni engillashtирadi va tortuvchi quduqlar ustida changlanishini bartaraf etadi. Qishki sharoitlarda, yer ostida ishqorlash ob'ektlari uchun tanafussiz, to'xtab qolishlarsiz ish sharoitini yaratib beradi. Cho'kma nasoslarni qo'llash tortuvchi quduqlar debitini ahamiyatli darajada istiqbolini ochadi. Bu esa, yer ostida ishqorlashni takomillashtирishni davom ettirishning asosiy

yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Cho‘kma nasoslarni qo‘llash quduqlarni jihozlash va ularni ekspluatatsiya qilishda texnik holatini yaxshilashga olib keladi. 7.6. rasmda UESNK4-100-80 uskunasini montaj sxemasi keltirilgan.

Shuni belgilab o‘tish lozimki, konstrukcion tashkilotlar cho‘kma elektr nasoslarini kelgusida takomillashtirish ustida ishlashni davom ettirmoqda.

VII

YER OSTIDA TANLAB ERITMAGA O‘TKAZISH UCHASKASINING YER USTI VA YER OSTI SORBSION USKUNASI ERITMASI TARKIBIDAN URANNI AJRATIB OLİSH.

1. MAHSULDOR ERITMADA URANING ION HOLATI.

Uyumlarda va EOTEO’ dagi mahsuldor eritma tarkibida olti valentli uran mavjud. Zamonaviy nazariya bog‘liq bo‘lgan akva- va atsiokomlekslarningligandlarning fazoviy joylashuvlari borligin, qaysilarki sorbsiya, elyuiratsiya va ekstraksiya jarayonini yaxshi borishiga asos bo‘ladi. Spektrofotometriya usuli bilan olti valentli uran uchun har xil turdagи ion birlashmalari borligi aniqlanib ularda konstantalar ion almashuv va ekstraksiya jarayonlari uchun har xil turdagи aniqlash usullarini hisobga olgan holda hisoblanib olinadi, ular: uranil kationlari uchun $K_1=5.0-6.5$, uranilsulfat neytral molekulasi uchun $K_2=50-96$, uranildisulfat anioni uchun $K_3=350-900$, uraniltrisulfat anioni uchun $K_4=2500$.

Eritmalardagi kislotalikka va uning tarkibidagi uran konsentratsiyasi, sulfat ioniga qarab oddiy va murakkab uran sulfatli ion birikmalari miqdori darjasи nisbati o‘zgarib turadi (chizma 8.1). Uranning sulfat kislotali eritmdagi ion holatlari orasidagi dinamik tengligining mavjudligi, ularni ham kation ham anionlar orqali

tenglik ni sorbsiya bo‘ladigan ion tomonga siljigan holatida ajratib olishni imkonini beradi. Sulfat kislotalardagi uran formalarining ionlari orasidagi dinamik tenglik, ulardan uranni ham kation ham anion orqali ajratib olishni, sorbsiya qiladigan ion tengligi tamon siljish bilan boradi. Eritmda pH 2.5 bo‘lganda uranil ionlarining polimyerizatsiyasi namoyoe bo‘la boshlaydi (35, 131), buning natijasida uranil sulfat ioni komplekslari bu ko‘rinishni oladi $\text{U}_2\text{O}_5(\text{SO}_4)_3$. Oxirgi ko‘rinish anionit hajmini sezilarli darajada ko‘paytiradi.


2. URANGA BOG‘LIQ QO‘SHIMCHALAR

Uranni yer osti ishqorlash jarayonida sulfat kislota bilan eritganda ko‘p har turdagи qo‘shimcha elementlarning erishi kuzatiladi (8.1 jadval), buning natijasida har xil keraksiz qo‘shimchalar mahsuldor eritma tarkibiga uran bilan birga o‘ta boshlaydi.

Jadval 8.1

Sulfat kislotada rudaning asosiy komponentlarini samarali erishi [35, 43, 57]

Реакциялар	Эритмага ўтиш %	Эритмадаги компонентлар концентрацияси г/л
$n\text{SiO}_2 + n\text{H}_2\text{O} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4} (\text{H}_2\text{SiO}_3)_n$	1	0,1—0,5 (SiO_2)
$\text{CaSiO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{CaSO}_4 + \text{H}_2\text{SiO}_3$		
$\text{Al}_2\text{O}_3 + 3\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Al}_2(\text{SO}_4)_3 + 3\text{H}_2\text{O}$	3—5	1—12 (Al_2O_3)
$\text{Fe}_2\text{O}_3 + 3\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{Fe}_2(\text{SO}_4)_3 + 3\text{H}_2\text{O}$	5—8	3—7 (Fe_2O_3)
$\text{FeO} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{FeSO}_4 + \text{H}_2\text{O}$	40—50	0,5—3,0 (FeO)
$\text{FeCO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{FeSO}_4 + \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2$	80—90	0,2—0,7 (FeO)
$\text{CaCO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{CaSO}_4 + \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2$	80—90	1,5—2,0 (CaO)
$\text{MgCO}_3 + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{MgSO}_4 + \text{H}_2\text{O} + \text{CO}_2$	88—90	0,5—3,0 (MgO)
$\text{MoO}_3 + \text{H}_2\text{O} \xrightarrow{\text{H}_2\text{SO}_4} \text{H}_2\text{MoO}_4$	60—90	0,05—1,0 (Mo)
$\text{K}_2\text{O} \cdot \text{V}_2\text{O}_5 \cdot \text{UO}_3 \cdot n\text{H}_2\text{O} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow (\text{VO}_3)_3\text{SO}_4 + \text{K}_2\text{SO}_4 + (n+3) \text{H}_2\text{O} + \text{UO}_2\text{SO}_4$	92—95	0,5—5,0 (V_2O_5)
$\text{CuO} + \text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow \text{CuSO}_4 + \text{H}_2\text{O}$	30—70	0,1—1,0 (Cu)
$\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 + 3\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow 3\text{CaSO}_4 + 2\text{H}_3\text{PO}_4$	70—90	0,2—1,4 (P_2O_5)
$\text{Ca}_5\text{F}(\text{PO}_4)_3 + 5\text{H}_2\text{SO}_4 \rightarrow 5\text{CaSO}_4 + 3\text{H}_3\text{PO}_4 + \text{HF}$	—	—




Rasm 8.1. Uranning har xil sulfat kislotali eritmalardagi ion bog‘lam ko‘rinishi.

Natijasida uranil sulfat ioni komplekslari bu ko‘rinishni oladi $\text{U}_2\text{O}_5(\text{SO}_4)_3$. Oxirgi ko‘rinish anionit hajmini sezilarli darajada ko‘paytiradi.

Rudada malum miqdordagi 4 valentli uranning borligi, ularni eritmaga oksidlab o'tkazish uchun, EOTEQ' da 3 valentli temir, natriy yoki kaliy xlorat va boshqalar ishlatiladi [35, 43, 57, 68, 131]. Ortiqcha miqdordagi 4 valentli uran rudalariga oksidlovchini qushish har doim ham shart emas. Bu asosankup sulfat kislota talab etadigan uran mineralli rudalarga ta'lugu. Bundan tashqari ko'p miqdorli sulfat kislotali eritma bilan ishqorlashda, ko'p miqdorda 3 valentli temir ham uchraydi, qaysikioksidlanish tiklanish patensialini 400-55 mV darajada ushlaydi. Bundan tashqari eritmalarni yer usti va yerosti komplekslarida aylanib yurishi natijasida 3 valentli temir oksidining kerakli darajasi yig'ilib qoladi. Oksidlarni erituvchi eritmaga qushish orqali, uran konsentatsiyasi oshishi va mahsuldor eritmada keraksiz moddlar ko'payoishi kuzatiladi. Buning natijasida eritmani ammiak bilan pH =7-8 qilib neytrallashtirganda, anchagina iflos 2-4% atrofida uran ga ega kimyoviy konsentrat hosil bo'ladi. Shuning uchun anchagina kambag'al rudalarini uyumda yoki EOTEQ'asosiy jarayonlarda kuchli asoga ega bo'lgan anionitlar sorbsiya da ishlatiladi [28, 124, 142, 143, 146, 152, 154, 161].

Uranni sorbsiya orqali ajratib olishda u bilan birga uchraydigan qo'shimchalar anionitlari uzini har xil ko'rsaadi. Misol, ishqoriy va ishqoriy yer metallaring kationlari hamda 2 valentli mis, temir, kobalt va marganets ionlari sorbsiyaga uchramaydi va ortiqcha hisoblanadigan elementlardir. Bazibir anionlar esa, aksincha anionitlarda yaxshi sorbsiyaga uchraydi hamda ajratib olinayotgna uran ionlariga raqobatga olib keladi. Ularga misol qilib sulfat, nitrat, xlorid, ftorid, fosfat ionlaridir. Bu anionlar dipressiyali qushimchalar turiga mansub.

Va nihoyat, shuni aytish kerakki kuchli asosga ega bo'lgan anionitlarga turdosh bo'lgan ionlar ham mavjud, ular anionitlar tarkibida asta sekin yig'ilib borib, ularni buzadi, ya'ni ularni foydali moddalar xususan uranni yutib qolish xususiyatidan maxrum qiladi. Shuning uchun EOTEQ' jarayonida mahsuldor eritma tarkibidagilar 0.1 mg ekv/l nitrat ionlar, 0.2 dan 0.4 gachamg ekv/l fosfat ionlari ko'rsatkichidan oshmasligi kerak. Sulfat ionlarining kuchli dipresli ta'siriniga etiborni kuchaytirish kerak, chunki sulfat kislotali eritmalarining EOTEQ' da ko'p marta ishlatilishi oqibatida, ulardasulfat kislota ta'sirida yig'ilayotgan (50 dan 100 g gacha) komponentlar, misol ishqoriy metallar, magniy, alyuminiy, temir, marganets va boshqalar ko'p uchramoqda. Sulfat ionlarining kuchli dipresli ta'sirini uranning




Rasm 8.2. Sulfat ionlarining kuchli dipresli ta'sirini uranning sorbsiya jarayonida olinadigan miqdoriy koefitsientlari hamda ularning kuchli asosli anionit stiroldivinilbenzil tipiga qarab yig'ilishiga bog'liqligi

sorbsiya jarayonida olinadigan miqdoriy koeffisientlari hamda ularning kuchli asosli anionit stiroldivinilbenzil tipiga qarab yig‘ilishida ko‘rshimiz mumo’qin, masalan Daueks-1 (chizma 8.2), bu yerda aniq qilib shu aytilgan koefitsientning 5×10^{-5} dan, eritmadiyi molyarl tenglik 0.1 dan 5 M ko‘paysa 100 martagacha kamayib ketadi.

Odatda elyuir eritmadiyi bunday yuqori darajadagi tuzlarning miqdori uranning desorbsiya jarayoonini anionitlar bilan borishini yaxshilaydi. Shuning uchun ham sulfat tuzlarining bunday miqdori, eritmalarini anionitlar bilan qayta ishlashda kerak emas. Ortiqcha yig‘ilgan tuzlar jarayondan chiqarib tashlanadi.

4. MAHSULDOR ERITMADA URAN SORBSIYASI STATIKASINING ASOSIY QONUNIYATLARI

Uranilsulfat komplekslarining maksimal yutilish stirol-divinilbenzol anionit trimetilammon tiplarning pH=2.0-3.5 bo‘lgand kuzatiladi. (8.3. – rasm). Mahsuldor eritmalaridagi ortiqcha kislotalik, ya’ni 5-20 g/l, bo‘lganda ularning tarqalish koeffisienti 20-100 martagacha kam, bu shu holatda ham to‘gri ko‘rsatkich hisoblanadi va 8.3 chizmada ko‘rinib turibdiki, uranning konsentratsiya tengligi 1 g/l bo‘lganda, anionitlarning to‘yinganlik hajmi 30 -70 mg U₃O₈/1 mg sorbent uchun.



Rasm 8.3. Olti valentli uranni har xil komplekslarning stiroldivinbenzol anionitdagи sorbsiyasida tarqalish koefitsienti, Daueks 1 (1) va Daueks 2 (2) (Sn kislotaning eritmadiyi konsentratsiyasi, mol/l)

chiziqlari ko‘rsatilgan. Ular, uran xlorid vanitrat komplekslari faqat konsentratsiyasi yuqori bo‘lgan holdagina yutilishini ko‘rsatadi. Shuning uchun elyualit o‘rnida bu kislotalar kam konsentratsiya uchun ishlatiladi. Uranning ftorid komplekslari shu anionitlarda yaxshi sorbsiya bo‘ladi. Ular uran yuqori kislotali eritmalaridan yutilish jarayonini kuchaytiradi, masalan kislota miqdori 20 dan 40 g/l.

Sulfat kislotali eritmalarida ortiqcha kislotalik anionit sig‘imi va tarqalish koifitsentlarini unchalik ham yuqori emas, Shuning uchun 10 dan 15 % gacha sulfat kislotali eritma uran desorbsiyasida ishlatiladi.

8.2 – rasmda, Sulfat ionlarining kuchli dipresli ta’sirini uranning sorbsiya jarayonida olinadigan miqdoriy koeffisientlari hamda ularning kuchli asosli anionit stiroldivinilbenzil tipiga qarab yig‘ilishiga bog‘liqligi va qiya

EOTEO' da mahsuldor eritma tarkibidagi uran konsentratsiyasi keng chegarada o'zgaradi. Ko'p tadqiqotchilar izlanishlarini sorbsiya izotermasida umumlashtirib $\text{Ph}=1,0-2,0$ olamiz, bu yerdan izotermaning qavriqligini ko'rsatish mumkin hamda ularni Freyndlix tenglamasiga bog'liqligini aytishimiz mumkin, bu esa uranni ajratib olishda muhim rol o'ynaydi hamda anionitlarda trimetallammoniy tip dagi U_3O_8 yutilishini sig'imini ko'rsatikichi oshishini belgilaydi va u 8 dan 15 mg/l sorbentga tengdir. Ish jarayonida esa bu ko'rsatkichlar ballast hamda dipressant va stimuli qushimchalar kiymati bilan shzgarib turadi. (Jadval 8.2)

Jadval 8.2

Amberlint IRA -400 anianitning har xil teng ogirlikdagi eritmadagi konsentratlarni yutilish xarakteristikasi (anionit granulalarini kattaligi +0,63 dan -1,6 mm gacha pH=1,5)

Ko'rsatkichlar	Tajriba raqamlari							
Uranning teng miqdorli eritma U_3O_8 konsentratsiyasi g/l		1					0	
Anionitning uranga to'yinish U_3O_8 ga mg/mg								50
Uranning tarqalish koefitsient		0						

4. KONSENTRATSIYASI PAST BO'LGAN ERITMADA URAN SORBSIYASI KINETIKASINING O'ZIGA XOSLIGI.

Ion almashish jarayonlarini bir necha vaqt va fazoviy oralig'ida boruvchi 5 ketma ket bosqichlarga bo'linadi:

- 1) chegara plyonkasidan o'tivchi ion almashish difuzziyasi;
- 2) sorbent granula yuzasidan ionning yutilishi o'zgarishi, yoki ionitning garanula ichida har qanday joyida o'zgarishi;
- 3) ion almashiv yoki sorbsiya ta'siri;
- 4) ajralgan ioni ajralish joyidan sorbent granulasi yoki ionit yuzasiga jo'natish;
- 5) plenka chegarasidan ionni ajaratish diffuziyasi.

Birinchi va oxirgi bosqichlarda massa almashish jarayoni xarakterlanadi, ikkinchi va to'rtinchi bosqich massa berish va to'rtinchisi kimyoviy jarayonlardir.

Hamma jarayonda ion alamashishni ko'rish qiyin. Shuning uchun ishni onsonlashtirish uchun, limitlash jarayoni qullanadi hamda hamma jarayon limitlanadai, misol kimyoviy jarayon. Granula yuzalarida ionlarning konvektiv ko'chirish plenkaning chegarasida suyuqlikning qattiq jisim bilan ulanishiga qarab qiyin hisoblanadi, jarayon sezilarli sekinlashadi. Undan tashqari jarayon diffuziyasi g'ovakli qattiq jisimda sekinroq, qattiq jisimda esa yanada sekinroq borishi aniq. Tajribalar natijasida jarayonning gelli ionittda bir valentl ionli eritmaga qaraganda 3-5, ikki valentl ionli eritmaga qaraganda 5-100, uch valentl ionli eritmaga qaraganda 10-100 martagacha sekin boradi. Shularni inobatga olib Shuni aytish mumkinki ion almashinuv kinetikasida massa almashish jarayoni katta rol o'ynaydi (63, 123). Nazariy o'yab ko'rib ion almashinuv kinetikasi bosqichlari limitini bu yarim almashinuvni hisoblash mumkin:

$$K_{rit.} = (D \sqrt{D} C_p) (\delta / r_0) (5 + 2 K_D),$$

Bu yerda a va C_p ionlar bilan to'yingan sorbentning oldindan aniq bo'lgan qiymati hamda eritmadi tenglik konsentratsiyasi, moll qismlarda o'lchanadi; diffuziya koeffitsientlari o'rniga D va \sqrt{D} larni, ya'ni foydali diffuziya koifitsentini qo'ysak bo'ladi, agarha haqiqiy diffuziya qiymati aniq bo'lsa; δ chegara pylonka qalinligi (10^{-2} - 10^{-3} sm); r_0 o'r ganilayotgan sorbent yoki granula diametri; K_D ionlarning taqsimlanish konstantasi.

Agar yarim almashiniy kriteriyasi birdan kichik bo'lsa, pylonkali kinetika, agar birdan yuqori bo'lsa gelli, agar teng bo'lsa aralash kinetika o'rinnlidir. Limitlovchi kinetik bosqichni aniqlashning eng oddiy usuli bu, eritma va ion tushashishini oldini olishdir. Agar bir necha vaqtdan so'ng ajralganlarni tutashtirsak aralashtirsak, almashinish tezligi pylonkali kinetik holatda o'zgarmaydi, gelli kinetikada esa oshadi. Bu gradientlarning konsentratsiyasini ion ichida granulalarga gelli kinetikada eritma va ion orasida tutashuv vaqt yoqligi tengligi bilan izohlanadi. Pylonkali kinetikada granula ichidagi gradient konsentratsiyasi yo'q, shuning uchun jarayonning to'xtalishi tezlikka xech qanday ta'sir o'tkazmaydi.

Tajriba shuni ko'rsatadiki, limit jarayonli pylonkali kinetika konsentratsiyasi 0.01 n. va undan yuqori eritma uchun, ya'ni sorbsiya jarayonining oxirigi bosqichlari uchun, qaysiki foydali komponentni sorbsiya bilan ajratib olish da kerak.

Pylonkali kinetikadagi massa almashinish jaraayoni Fikning birinchi qonuniga asoslanadi:

$$dm = DS(dC/dX)dx = -DS(C_0 - C_p)dx.$$

Sorbsiya jarayoni uchun $dC/dX = C_0 - C_p$. Plyonka qalilagini ko'rsatuvchi S_1 qiymatlarini, granula radiusi r_0 va fazalar tutashish F, ni qo'yib, sorbsiya jarayoni uchun Fik qonuni bo'yicha bu formulaga kelamiz :

$$\frac{dm}{dx} = \frac{da}{dx} = \frac{3DF}{r_0\delta} (C_0 - C_p),$$

bu yerda $\frac{3DF}{r_0\delta}$ tezlik koeffitsienti, ($C_0 - C_p$) sorbsiya jarayon harakat kuchi.

Tezlik koeffitsientini plyonka kinetikasini $\frac{da}{dx}$ - ($C_0 - C_p$) o'qlarida tangenes burchak orqali chiqgan qiya chiziq orqali onson topish mumkin.

Anionitning to'yinish vaqtida katta hajmli uranil sulfat komplekslari eritma pastidan ko'tarilib, chegara plyonka orqali granula ichiga o'tadi. Amberlit IRA-400 misolida, xlor forma ko'rinishida shu ionlarning o'ziga xos sorbsiya kinetikasi 1 g/l U_3O_8 sulfat magniyli eritmada sinalgan (110). Ko'rrib turibdiki, bunday ionlarni g'ovakli anionitlarda sorbsiya qilish maqsadga muvofiq.

Yanada chuqorroq qilib bu holat trimetallammoniy asosli anionit markasi Daueks -1 da uranil sulfat kompleksllari ^{235}U izotopda sinalgan. Unda gelli kinetika uchun yarim almashinish vaqt vaquyidagi formula orqali topiladi

$$\tau_{1/2} = 0.03 r_0^2 \sqrt{D},$$

Bu yerda r_0 anionit granulasi diametri, \sqrt{D} esa difuziya koeffitsienti.

Fikning qonuknin asosida Programma bo'yicha izotop tenglikka kelishini o'zga xoslik kinetikasini muhit pH=1.8-2.0 va uran konsentratsiyasi 1g/l da o'r ganiladi.

5. ERITMALARNI SORBSION QAYTA ISHLASH DINAMIKASI QONUNIYATLARI

Eritmlarni sarbsion qayta ishlash vaqtidagi dolzarb maslalardan biri bu foydali komponentni ajratib olish va shu vaqt o'zida sorbent ni to'liq to'yintirishdir. Bu bir xil eritmlarni anionitlarga bir necha marta ishlatish orqali yeri shiladi. Sorbsion kolonnaning birinchisi rus olimi N.I.Zalomanov va N.S.Ivanov tomonidan 1870-1880 yy. Tuproqning yutish qobiliyatlarini tekshirishda ishlatilgan. 1911 y. Esa rus olimi M.I Svet tomonidan xromotog'rafiya fon yo'naliishiga asos solingan va ommaga uzining usimlik pigmentlar ajratib olishni sorbsiya bn qilish kashfiytini namoyish etgan.

Eritmani ionit qatlidan o'tkazish vaqtida foydali komponent konsentratsiyasi pasaishi kuzatiladi. Ishchi qatlamning matematik tengligi Fik va Nerst tengligi orqali umumiy Shilov aytgan bu ko'rinishga keladi :

$$Z_0 = \frac{W}{\beta} \ln \frac{C_0 - C'}{C_1 - C'} = \frac{\delta W}{DF} \ln \frac{C_0 - C'}{C_1 - C'},$$

Bu yerda W – eritmaning filtratsiya tezligi, β – sorbsiya’ning kinetik koeffitsienti, W/β ga teng, D – ionitdagi diffuziya koeffitsienti, F – sorbent yoki ionitning granulalarning umumi yuzasi, C_0 – foydali komponentning boshlanishdagi miqdori, C_1 – foydali komponentning jaroyon oxiridagi qiymati, δ – chegar pylonkasidagi foydali komponentning konsentratsiyasi, $\delta W/DF$ – pylonka chegarasi qalinligi, mm.

Shuning uchun kambag‘al tarkibli rudalarni EOTEO’ mahsuldor eritmdagi miqdorni aniqlash Shilov tenglamasi qisqartirilgan:

Umuman aytganda sorbent ishchi qatlam uzunligi Z , ishlayotgan iatlam uzunligi Z_0 va ortiqcha sorbent qatlam balandligi h larning yig‘indisiga teng:

$$Z = Z_0 + h.$$

Bir vaqtning o‘zida ishlayotgan ionitningng foydali ish koeffitsienti η kattalik bilan o‘lchanadi:

$$\eta = KPD = \frac{Z-h}{Z}.$$

Eng katta FIK uzlusiz ishlayotgan uskunalarda bhladi.

Sorbsion kolonnaning berilgan uzunligida va eritmdagi foydali komponent konsentratsiyasi va uning kolonkadan chiqish himoya vaqt harakati θ bo‘lib, u N.A. Shilov formulasi orqali topiladi:

$$\theta = k Z_0 - \tau,$$

bu yerda θ sorbsion kolonna himoya harakt vaqt, k –himoya vaqt koeffitsienti, τ –vaqt yo’qotilishi.

Sorbsion kolonna uzunligi qisqaligi tufayli, undan o‘tayotgan eritma tarkibidagi foydali komponent konsentratsiyasi sorbentdan o‘tish vaqtida minimaldan ko‘rsatilgan darajagacha oshadi. Sorbsiya jarayonidagi chiqish vaqt qiya chizig‘i quyidagi formula orqali topiladi:

$$C = C_0 \exp(\beta Z_0 / W)$$

Bu yerda β , Z_0 , W – ishlayotgan sorbent qatlamiga tegishli ko‘rsatkichlar.

Chiqish eritmadagi foydali komponent konsentratsiyasi almashinish konstantasi pasayishi yoki tarqalish koeffitsienti pasayishi bilan ortadi.

6. URAN BILAN TO‘YINGAN SORBENT REGENERATSIYASI

Desorbsiya – bu sorbsiyalangan foydali komponentni sorbent yoki ionit tarkibidan ajratib olish jarayoni. Regeneratsiya- bu ionitning sorbsion xususiyatlarini tiklash jarayonidir. Shunday holatlar ham ma’lumki bu ikki jarayon bir vaqtda yakunlangan. Bundan tashqari desorbsiyadan so‘ng ionitni tuz ko‘rinishda olishadi, u sorbsiyada ishlatiladi. Misol, uranni desorbsiyasi sulfat kislotali eritmalar ni sorbsiya qilishda uchraydi. Ko‘pgina hollarda, foydali komponentli desorbsiya qilingandan so‘ng ionit qo‘srimcha regeniratsiya eritmalar bilan qayta ishlanib ELYUIR moddalar ajratib chiqarib tashlanadi va kerakli holatga o’tkaziladi .

Desorbsiya jarayonida foydali komponentning ionit tarkibidagi miqdori kerakli darajagacha pasayadi hamda bu keraksiz eritmalar ni chiqarib tashlashga yordam beradi. Ionitning regeniratsiyalangan hajmi qoldiq deyiladi va u 10-20% dan oshmasligi kerak, ELYUIR ionlar miqdori esa regeniratsiya qilinayotgan ionitdan chiqarib tashlanib qayta ishlovchi mahsuldor eritmalar tarkibiga tushmasligi kerak, agar ular tushsa foydali komponentni depress holatda yutilishga olib keladi.

Desorbsiya’ning differinsial qiya chizig’i Gaus qiya chizig’i ko‘rinishiga ega, shu qiya chiziq va obsissa o‘qi hosil qilgan yuza regeniratsiya qilinayotgan ion hajmiy sig’imga qiymatiga teng va u quyidagi formula bo'yicha topiladi

$$a = \int_{V2}^{V1} CdV$$

bu yerda V1 va V2 foydali komponent paydo bo’ladigan va yo’qaladigan disorbsiyalananadigan eritmalarning hajmi.

Disorbsiya jarayonini tugatishdagi nazariy likobchalar soni quyidagi qisqartirilgan formula bilan topiladi

$$a = 16 \left(\frac{S_{max}}{V} \right)^2$$

bu yerda S_{Max} – disorbsiya’ning differinsial qiya chiziq uchun foydali komponentning maksimal konsentratsiyasi; V – disorbsiya qiya chiziq enining cho‘qqisi .

Kolonnadagi regeniratsiya qilinayotgan ionit qatlam balandligini hamda nazariy likobchalar sonini bilgan holda, nazariy likobchalarga teng bo‘lgan balandlikni topish qiyin emas.

$$VVET = \frac{N_{sorb}}{N}, \text{ sm}$$

Uranni elyuirlash

Elyuirlash – tuyingan sorbentdagi foydali komponentni toza erituvchilar bilan yuvish, masalan, sulfat kislotali eritmalarini qayta ishlashda yutilgan uranil sulfat ionlarini kupincha sulfat kislotali elyuentlash o'tkaziladi. Bu holatda regeniratsiyalangan sorbernt yoki ionit tarkibidagi foydali komponent elyuirlangandan keyin tuz ko'rinishida qoladi va u eritmalarini sorbsiyali qayta ishlashda foydalaniлади (35,57,68,131,152). 8.3 chizmadan kurinib turibdiki Sulfat kislota konsentratsiasi 2-3 n., yoki 10-15% bo'lsa uranilsulfat ionlarini sulfat kislotali muhitda tarqalish koeffitsienti birdan kichik bo'ladi. Shuning uchun sulfat kislotaning Shunday eritmalarini AM, AMP, Daueks-1 va Amberlit Ira-400 tipdagi anionitlarnig uran disorbsiyasi uchun ishlatiladi. AKSH da bu elyuentlar uranni kuchli asosli anionitlardan desorbsiya qilishda «Injemont» «Split Roq» zavodlarda ishlatiladi. «Split Roq» korxonasidagi CHikuvchi Tovar regenirati 3.6-4.0 hajm/hajm sorbentga teng.

Daueks-1 AM va AMP tipidagi anionitlarni uran desorbsiyasida ishlatilganda jarayon xona haroratida 30-40 soatgacha desorbsiyalanadi. Elyuent 20 selsiydan 60 selsiygacha isitilsa disorbsiyalanadigan uran 2 barobar oshadi. Anionit hajmi uranga nisbatan 40 mg/g bo'lsa Uranning tovar elyuentdagi konsentratsiyasi 10-12 g/l bo'ladi. Yuqori kislotali qoldiqqa ega bo'lgan tovar regenirati ekstraksion tozalaniladi hamda undan uran kerosin eritmalarida trialkilamin va di-2-etilgeksilosfor kislota bilan ajratiladi. Birlashgan rafinatlar elyuirlangan eritma tayyorlashga yoki uran rudasini eritmaga o'tkazishga qayta jo'natiladi. Uranni anionitlardan sulfat kislotali dissorbsiya qilish va keyingi olingan tovar elyuonitni ekstraksion qayta ishlash sxemasi bo'yicha Yaponiyada Yamamoto Shvetsiyada Ranstade, AQSHda Djefri-siti va Gaz-Xillz zavodlari ishlaydi .

Uranni siqib ajratish

Siqib ajratish – foydali komponentni yanada kuchli sorbsiyalanadigan ion yoki modda bilan disorbsiyalash. Bunda qayta ishlangan sorbent yoki ionit dissorbsiyalangan ion ko'rinishida qoladi, bundan kelib chiqadiki, shu ionni ionitdan ajratish uchun maxsus qayta ishlash jarayoni kerak, u foydali komponentni yanada tezroq ajratib olishga xizmat qiladi.

Uran sulfat ionlarning desorbsiyasi samaradorligi kationlarning tabiatiga bog‘liq, ular esa xlorid ionlar bilan bog‘liq. Regenerat chiqishining minimal ko‘rsatkichi xlorid ammoniy ishlatilganda yaxshi boradi. Regenerat chiqishi 1.-2. Martagacha oshadi, agar elyuanit sifatida natriy va magniy xloridlar ishlatilsa.


Xlorid eritmali uran desorbsiya AQSH ning “Maob” va “Montisello”, Kanadaning “Bikford, Gunnar, Dayno, Reyroq va Faradey” zavodlarida qo‘llaniladi.

Ko‘pgina chet el uran korxonalarida asosan nitrat elyuantlar ishlatiladi. Misol uchun AQSH da ularni “Daunmayning”, “Lakki Mak Yurenium”, “Blyuotyer”, “Moab”, “Injemont”, “Split Roq”, Kanadada esa “Algom Nordik”, “Leyk Nordik”, “Konsolideytend Denison”, “Milliken Leyk”, JAR da esa 20 ga yaqin konxonalar shu usuldan foydalanadi.

IONITDAGI URAN KOMLEKSLARI KONVERSIYASI

Ionit fazasidagi sorbsiyalangan uransulfat komplekslarni xlori yoki nitratli holatga, ularni nitrat va xloridning konsentratsiyasi baland bo‘lgan eritma bilan qayta ishlash kerak. Masalan, osh tuzli konsentratsiyali eritma bilan qaytav ishlab xloridli uran sulfat holatiga o‘tkazish mumkin, sungra uni suv bilan elyuirlab, konsentratsiyasi 60 g/l uranga ega bo‘lgan tovar elyuant olish mumkin. Qanchadur uranning qismi xloridli konversiya jarayonida desorbsiya bo‘ladi, shuning uchun ham tuzli eritmalar xloridli konversiyadan so‘ng tovar regenerat suvli elyuant ga ko‘shishlib keyinggi qayta ishlash bosqichiga ketadi. Xlorid konversiyali usul bilan desorbsiya, uranni bir necha har xil kompleks qo‘shimchalardan yaxshiroq ajralib chiqishiga olib keladi. Yarim ishlab chiqarish holatida tekshirilgan Xlorid konversiyali jarayonning texnologik sxemasi 8.4 chizmada ko‘rsatilgan: ishlab chiqarish quvvati su0tkasiga 453 kg uranieritmdan ajratishga mo‘ljalangan hamda chiqgan eritmlarni sulfat xlorid va kalsiy xlorid yordamida tozalash hamda ularni jarayonda qayta ishslash ko‘rsatib o‘tilgan [115].

Xuddi shu usulda nitrat konversiya jarayoni ham uran sulfat komlekslar uchun boradi. Uning farqli tomonlaridan birinitrat konversiya vaqtida uran eritmda anionitlar azot kislotasi 6-8 M uning tuzlari bilan tozalanganda bo‘lmaydi.



Rasm 8.4. Xlorli konversiya usulidan foydylanib uranli rudalarni qayta ishlash ning prinsipial texnologik sxemasi.

Uran tarkibli ionitlarni regeneratsiyalash, tiklash usuliga bog'liq holda xorijda uran zavodlarida tovar elyuatlaridan uni ajratib olishning turli usullari qo'llaniladi. AQSH va Kanadada uranni nitratli desorbsiyalash usuli 157J keng qo'llaniladi. Bu usul yordamida 7— 10 g/l uran konsentratsiyali tovar elyuatlarini ajratib oladi. Bunday elyuatlardan uranni ajratib olish pH ning turli ko'rsatkichlarida maydalab cho'ktirish usuli orqali amalga oshiriladi.

Ekstraksion desorbsiya (ED-jarayon)

Organik moddalar suvli eritgichga qo'shilsa, dielektrik sobit kamayadi va ion almashinushi va eritma orasidagi foydali komponentlarning taqsimlanish koeffitsienti o'zgaradi. Organik moddalar sifatida ko'proq ekstragent aralashmalaridan foydalaniladi. 1958 yilda Jenevada o'tkazilgan Atom energiyasini tinch maqsadlarda ishlatish bo'yicha ikkinchi xalqaro konferensiyada anionitlar bilan uranni desorbsiya qilish uchun ekstragentlarni qo'llash imkoniyati haqida ma'ruzalarda ko'rsatib o'tilgan. O'tgan yillarda so'rilgan tarkibiy qismlarning desorbsiyasi uchun organik moddalardan foydalanishgan bag'ishlangan maqolalar soni ortdi. Foydalaniladigan elyuit moddalarning fizikkimyoviy xususiyatlariga ko'ra, ular bir qator sinflarga bo'linadi: atseton, spirt

yoki keton turidagi suvda eruvchan organik modda, mineral moddalarning suvli eritmasi va ekstraktorlar (trialkiamin, tributylfosfat, di – 2 - etilgeksilfosfor) kabi yerimaydigan organik moddalarning emulsiyasi.

Suvli organik erituvchilar. KU – 2 kationli toriy va uranni alohida desorbsiya qilish atseton, tuzli kislota va suvning aralashmasi bilan ta'minlanadi. Bunda muhitlarda toriy uchun tarqatish koeffitsienti cheksiz darajada kengayadi va uran uchun cheksiz qiymatga ega. Uran va toriyni to'liq ajratilishi 50% atseto, 5% xlorid kislotasi va elyuit ichida 5% suv bilan amalgalashadi.

Suvsiz eritmalar. Amberlit ionitlarining turli xil ion almashinuviga shu jumladan ularning to'yinishi, I.Bodamyer va R. Kuninlar tomonidan suvsiz eritmalarida tekshirildi:

- 1) suvsiz muhitda harakat suvli muhitda ion almashinuv harakatlariga mos keladi;
- 2) suvsiz muhitda almashinish tezligi suvli muhitga nisbatan kamroq, polyarli suvsiz eritmalarida turli xil qo'shimcha vositalarning kyerosinli eritmalariga nisbatan tezroq bo'ladi;
- 3) ionitlarning to'yinish darajasi hamma vaqt ham almashinuv samaradorligini oldindan belgilab bera olmaydi, chunki yuqori g'ovakli ionitlar uchun uchun yaxshi sorbsiya yaxshi to'yinmaganligida ta'minlaydi.

Nihoyat, qimmatbaho tarkibiy qismalarni mineralli kislotalarning suvli eritmasidan suyuqlantirish uchun ishlatilganda to'yingan sorbentni natriy bo'limgan suvli eritmalar bilan qayta tiklash afzal emas, chunki sorbent – desorbsiya davrida so'rgichning suvsizlanishi va to'yinishi ion almashinuvning mexanik yo'qotishlarining sezilarli darajada oshishiga olib kelishi mumkin, bu oqibatda ion almashinuv jarayonining rentabelligiga ta'sir qiladi. Shuning uchun suvli eritmalar shaklida organik suyuqlik moddalarni yoki ularning emulsiyalar shaklida suvli eritmada foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Mineral moddalarning eritmalarida emulsiya ektragentlar. Uranni anionitlardan desorbsiya qilishda ekstragentlar mavjudligida mineral kislotalarning eritmalarini bilan olib boriladi, masalan tributylfosfata, tiralkilamin [105]. Jarayon aralashtirgich – tindirgich turidagi apparatlarga aralashtirishda olib boriladi. Anionit, eritma va ekstragentlarning nisbati 1:1:(5—10) ga teng. Aralashtirish jarayoni har bir bosqichda 1 soat davomida amalgalashadi, undan keyin anionitni 2-3 min. davomida emulsiyadan ajratiladi, aralashmagan suyuqliklarning emusiyasi 5-10 daqiqa dan oshmasligi kerak. AMP anionitidan uranni desorbsiya qilish kyerosinli eritma ekstragentining mavjudligida 30 g/l sulfat kislotali eritma bilan 7 – 8 bosqichda aralashtirish orqali tugatiladi. Qayta tiklangan anionning qoldiq sig'imi dastlabki tarkibning 0,25% dan oshmaydi, to'yingan ektragentda uranning konsentratsiyasi 6 – 7 g/l. Sulfat kislotaning aylanish eritmasida uran

konsentratsiyasi 0,4 – 0,6 g/l oralig‘ida bo‘ladi. Bu esa ekstraksion desorbsiya sharoitlarida uranning samarali massa uzatilishini odatdagi sharoitga qaraganda bir necha barobar tezroq ta’minlaydi.

7 MAHSULDOR QORISHMALARINI SORBSIYALI QAYTA ISHLASH UCHUN APPARATLARNING ASOSIY TURLARI.


Amaliy ionalmashuv va sorbsiyalovchi texnologiyalar maqsadi uchun keng masshtabdagi davriy va uzluksiz harakatdagi jihozlarning maxsus turlari yaratilgan.

Davriy harakatdagi sorbsiya apparatlari

Bir kamerali vertikal apparatlar. Harakatsiz yoki qayd qilingan sorbent qatlamlari kolonnada navbatma navbat sorbsiyalash, yuvib tozalash va desorbsiya jarayonlari o’tkaziladi. Kolonnalar bo‘linadigan apparatlar prinsipi bo‘yicha bog‘lanadi.

MDX davlatlarida ilk marotaba 1938 yilda bosimli vertikal sorbsiyalovchi kolonnalar tayyorlana boshlandi. Bu kolonnalar dieametri 1010, 1524 va 2000 mm bo‘lgan silindrsimon korpusga ega va 6 atm bosimida ishlash uchun mo‘ljallangan. 4 atm bosimidan pastda ishlash uchun esa diametri 2500 va 3000 mm bo‘lgan kolonnalar ishlab chiqildi.

Keyinchalik esa, VODGEO tizimli bosimli turdagli vertikal sorbsiyalovchi apparatlar ishlab chiqarildi. Bu apparatlar bugungi kunda ham ishlab chiqarillmoqda. (8.5 rasm, 8.3 jadval).




Rasm 8.5. Vertikal qirqimdagagi sorbsion kolonnaning tashqi ko‘rinishi va proeksiyasi

Ko‘p kamerali vertikal apparatlar. Mayda granulali (0,63 mm kattalikdagi) sorbentlarni qo‘llaganda, sorbent qatlami qarshiligining oshishiga bog‘liq holda Ural-energometallurgprom tizim tomonidan bosimli turdag'i ikki va uch kamerali sorbsiyali kolonnalar taklif etildi.

Bunday kolonnalar bitta apparatda uncha katta bo‘limgan balandlikdagi bir nechta sorbent qatlamini parallel ravishda ishlashini ta’minlaydi. (8.4 jadval). Bunday turdag'i kolonnalarda ishchi kesimi 0,8 dan 9,1 m² gacha o‘zgarib turadi.

Gorizontal sorbsiyalovchi apparatlar.

Odatda ionit qatlami orqali qorishmalarni filtralash tezligi 5-25 m/s chegarasida o‘zgarib turadi. Katta oqimli suv yoki qorishmalarni qayta ishlash uchun ishchi maydoni 100-140 m³ bo‘lgan bosimli gorizontal filtrlar yaratilgan. Bunday kolonnalar bitta texnologik zanjirda qorishmalarning har qanday oqimini qayta ishlashni ta’minlaydi. (8.6. – rasm.)



Rasm 8.6. sorbsion gorizontal apparat:

1 – qayta ishlangan aralashma uchchun chiqish kanali; 2 – aralashmani qabul qilish uchun yo‘qorgi drenaj; 4 – drenajli qalpoq; 5 – pastki drenaj plitasi

Jadval 8.3.

Glanmsyergolm ning sorbsiyalovchi kolonnalarining asosiy turlari.

Belgisi, parametrlari	O‘lchamlari, mm				
D (tashqi)	1010	1524	2000	2500	3014
d ₁ (ichki)	51	100	125	150	150
d ₂ >	20	51	51	75	75
d ₃ >	150	300	400	400	400
d ₄ >	700	1200	1390	1670	2000
H	3390	3518*	3550	3690	3793
h ₁	3270	3398	ZZP	3536	3673
h ₂	120	120	239	154	120
h ₃	1530	2812**	1530	1481	1500
h ₄	1085	813	958	992	1018
h ₅	827	420	540	524	550
h ₆	600	600	700	750	750
A	1405	2322	2900	3580	4097
B	670	1000	1275	1610	1871
V	458	663	728	973	973
G	400	600	600	690	690
E	700	950	900	1300	1300
J.	400	600	875	1150	1411

Filtrning metall qismining massasi, kg. Ryazan glaukoniti massasi, t	1060	2148	3260	3841	5285
Filtrning bosimli, yo'qli massasi, t	IJ	3,8	6,5	10,3	14,9
Filtrlash maydoni, m ²	5,5	13,0	21,0	29,0	45,0
Filtrning ish unumdorligi, m ³ /s,	0,8	1,8	3,1	4,9	7,1
Filtrlashning 10 m/s tezligida.	8	18	31	49	71

Jadval 8.4


Seriiali turdag'i ikki kamerali sorbsiyalovchi apparatning xarakteristikasi

Kolonna diametri, mm	1000	1500	2000	2600	3000	3400
Ishchi kesimi, m ³	0,8	1,77	3,14	5,30	7,10	9,10
Sorbent qatlami qalinligi» mm:						
1-pog'ona	2000	2000	2500	2500	2500	2500
2-pog'ona	1500	1500	1500	1500	1500	1500

Uzluksiz harkatdagi sorbsiya kolonnalari.


Sorbentning harakatlanuvchi qatlamlı kolonnaları [54, 69]. Qorishmalarni kolonnaga pastdan yuqoriga yetkazib berishda sorbent qatlamlı birmuncha suriladi, bu esa, katta tezlikda, shuningdek, yuqori qatlamlı tarkibli va yopishqoqlikdagi qatlamlarni qayta ishlashda ko'rinish turadi. Ionit yoki sorbentli foydali komponentlarga to'yingan tashuvchi erliftlar yordamida kolonnaning quyi qismidan chiqaradi va bir vaqtning o'zida yuqoridan uning miqdoriga mos keluvchi erliftlarni qo'shadi. (KDS apparati). Sorbsiya – desorbsiyalash siklining sexmasida bog'langan sorbentning harakatlanuvchi qatlamlı bir nechta kolonnalarining (apparat (KDS) HSK - harakatlanuvchi sorbentlar kolonnasi apparati) tashqi ko'rinishi 8.7. rasmda ko'rsatilgan.

Sorbentning yuqoridan pastga harakatlanish tezligi 0,3-1,0 m/s atrofida boshqariladi, qayta ishlanadigan qorishmaning kiruvchi oqimining tezligi esa 6,5-6,7 m/s atrofida. Erliftlar yordamida tashishda qorishmalarni sorbent bilan birgalikdagi katta sirkulyasiyasi kuzatiladi. Shuning uchun kolonnaga berishdan oldin qo'zg'almaydigan elaklarda (elagining qiyaligi 30° bo'lgan tirkalgan setkasimon drenajlar) suvsizlantiriladi.



Rasm 8.7. Uzluksiz sorbsiyalovchi qurilma sxemasi – desorbsiya KDS apparatida bajariladi:
1-kiruvchi aralashma va sorbsiya matochnigi; 2- sorbent; 3- siqilgan havo; 4- birinchi mahsuldor suv; 5- ikkinchi mahsuldor suv; 6- regeneratlar

SHu tariqa, sorbentning tashuvchi erliftlar orqali boshqariladigan tezlikda yuqorida pastga tomon oldinga intiluvchi harakati tashkil etiladi HSK apparatlarini qorishma yoki zichligi $1,050 \text{ g/sm}^3$ dan kichik bo‘lgan pulpalarни qayta ishslash, ushningdek, sorbentni yuvib tozalash va qimmatbaho komponentlar desorbsiyalash uchun qo‘llashning maqsadga muvofiqligi sanoat sinovlari bilan tasdiqlangan. HSK turidagi apparatlarining kamchiligiga sorbentni sezilarli darajada bo‘ylamasiga joyini o‘zgartirishi va sorbent qatlami ichida kanal hosil bo‘lishidir, bu esa, sorbsiya-desorbsiyalash bosqichida bog‘lovchi apparatlarga birin ketin kaskad o‘rnatilishiga sabab bo‘ladi.



Rasm 8.8. PBUSSK apparati sxemasi:

1 — probasaralagich; 2 — qorishmalar uchun taqsimlovchi jihoz;; 3—yuqorigi qabul qiluvchi bunker; 4 — kolonnaning silindrsimon korpusi; 5 — ichki yo‘qlovchi truba; 6—drenaj jihizi; 7 — gidrozavtor; 8 —quyi stakan,

KNSPR apparati [70, 125]. Pnevmatik bo‘shatiluvchi uzluksiz sorbsiyalashning sorbsiyalovchi kolonnasi (PBUSSK) korpus, konussimon markaziy yo‘qlovchi trubalar, quyi drenaj, stakanli gidrozavtor, otboynikli yuqori qopqoq va sorbent uchun qabul qiluvchi bunkerlardan iborat. 8.8 rasm. Pnevmatik impuls paytida gidrozavordan suyulikni siqib chiqarib

tashlash uchun va sorbentning oldinga intilishi uchun pnevmoklapanlar tizimi orqali havo beriladi. Qaytma klapan vazifasini 3-5 konussimon yo'qlovchi truba bajaradi. Sorbentning ish unumdoorligi va qayta ishlanadigan mahsulotning xarakteriga bog'liq holda pulsatsiyalash chastotasi 60 imp/s atrofida boshqariladi. Havo sarfi 1 m³ sorbentga 10—12 m³/s dan oshmaydi.

Bugungi kunda ishchi hajmi 10-12 va 30 m³, diametri mos ravishda 1,5-2,5 m bo'lgan apparatlar sinovdan o'tkazilgan. PBUSSK apparatlarida jarayonning davomiyligi HSK appparatlariga qaraganda 2 marta kam. Bu esa, jarayon davomida bir vaqtning o'zida sorbentni yo'qlashini va qurilish uchun kapital xarajatlarni kamaytiradi. PBUSSK apparatining kamchiligiga avtomatlashtirish tizimining murakkabligini kiritish mumkin.

Zich qatlamlili harakatlanuvchi sorbentning bosimli kolonnalar [13, 112]. Siqilgan qatlamlili harakatlanuvchi kolonnalarda, bosimli sorbsiyalovchi kolonnalar (BSK)da sorbent qatlamini zichlash uchun qayta ishlangan qorishmani chiqarish ko'zda tutilgan.

PBUSSK apparati bilan solishtirganda, bu turdag'i kolonnalarda sorbentni yuqorida pastga harkatlanishining an'anaviy yo'nalishi saqlanib qolgan va avtomatlashtirish sxemasi soddalashtirilgan. Kolonnalar avtonom ravishda va biri bilan birin ketin bog'lanish rejimida ishlash mumkin.

Shnekli turdag'i uzluksiz adsorber. Apparat sorbentni majburiy tashishga ega. Mayda granulirlangan va tolasimon sellyuloza materiallarining turli ko'rinishlarida ishlash uchun qo'llaniladi. Apparat U – simon korpusdan iborat va sorbentni tashishni va qayta ishlangan qorishma yoki elyuentlar oqimga qarshi harakatini ta'minlovchi teshilgan (pyerforirovannim) shneklar bilan jihozlangan.

Kukunsimon sorbentlarni qo'llash uchun apparatlar. So'ngi yillarda nisbatan yuqori ish hajmiga va qulay kinetik xususiyatlarga ega bo'lgan mayda granulirlangan sorbentlarni qo'llashga katta qiziqish uyg'onmoqda. AQSH va G'arbiy Evropaning bir qator energiya bloklarida kukunsimon ionitlarni qo'llash bilan birga cho'kma yuviluvchi ionitli filtrlar (CHIF)dan foylanilmoqda. O'zining konstruksiyasi bo'yicha CHIF lar yuviluvchi sellyulozali filtrlarga o'xshaydi. O'zining yuqori kinetik xususiyatlari tufayli kukunsimon sorbentlarning qatlami 5-25 mm balandlikka ega. Tajriba va sanoat sinovlari Shuni ko'rsatdiki, yuvilish uchun CHIFni KU-2 turdag'i stiroldivinilbenzol sulfatokationitlarni qo'llash mumkinligini ko'rsatdi. Yuviluvchi ionitli filtrlar 6 atm ishchi bosimda 300 m³/s gacha ish unumdoorligiga ega.

8 TOVAR REGENERATORLARIDAN URANNI AJRATILISH USULLARI.

Uran tarkibli ionitlarni regeneratsiyalash, tiklash usuliga bog'liq holda

